3-son, 2024

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

ISSN: 2181-4465

INNOVATIVE PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

INNOVATSION PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Ilmiy jurnal

(Uchinchi son)

Toshkent – 2024

“Innovatsion pedagogika va psixologiya”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

Bosh muharrir:

Nishanova Z. T. – psixologiya fanlari doktori, professor,

Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Egamberdiyeva F. O. – pedagogika fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrirlar:

Umarov B. M. – psixologiya fanlari doktori, professor;

Nishanova D. K. – t.f.f.d., (PhD), dotsent v.b.

Musahhih:

Yunusov K. A.

Tahrir hay’ati a’zolari:

Kozlov V.V.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya);*
Lekerova G.J.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Qozog‘iston);*
Sibel Sönmaz	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Turkiya);*
Shafiyeva I.I.	*Psixologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon);*
Palatkina G.V.	*Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya);*
Xazova S.A.	*Psixologiya fanlari doktori, dotsent (Rossiya);*
Ibragimov X.I.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Mirqosimova M.	*Pedagogika fanlari doktori, akademik;*
Muslimov N.A.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xalilova Sh.T.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Xodjayev B.X.	*Pedagogika fanlari doktori, professor;*
Kadirova M.R.	*Pedagogika fanlari doktori, professor.*
Shoumarov G‘. B.	*Psixologiya fanlari doktori, akademik;*
Karimova V.M.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Atabaeva N.B.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Abdullaeva D.U.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Baykunusova G.Y.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Qarshieva D.S.	*Psixologiya fanlari doktori, professor;*
Nishanov S.Y.	*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD*)

MUNDARIJA

Umarov Baxriddin Mengboyevich
Voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsining individual - psixologik xususiyatlari 4

Baykunusova Gulmira Yuldibayevna
Ijtimoiy identifikatsiya hasad hissi shakllanishining mexanizmi sifatida 13

Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna
Ekoterapiya va ekopsixologiyaning inson ruhiy salomatligidagi o‘rni 24

Mamadiyorov Jamol Baxodirovich
Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari 33

Nishanova Zamira Taskarayevna, Nishanbekov Talg‘at O‘rinboy o‘g‘li
Intellekt va kreativlikning o‘zaro aloqasi 40

Nishonova Dildora Komiljanovna, Mansurova Mohinur Dilmurod qizi
Inson psixologiyasida dinlarning o‘rni 49

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna, Erkinxo‘jayeva Mohinaxon Baxtiyor qizi
Talaba-yoshlar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari 58

Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida Abdujabborovna
Boshlang‘ich ona tili darslarida so‘z birikmalari ustida ishlash 67

Kurbanova Zilola Alisher qizi
Oila psixologiyasi va psixoterapiyasi fanini o‘qitishda talabalarga oila funksiyalari haqida bilim berish usullari 74

Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna, Nosirova Zamira Xosil qizi
O‘quvchilarning kasb tanlashdagi muammo va yechimlari 81

G‘ofurov Jamoliddin Xusniddinovich, G‘ofurova Sabrina Farrux qizi
Matematika fanida animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish 90

Момунова Алийма Назаралиевна
Трудоустройство людей с инвалидностью в контексте социально-экономической политики Кыргызской Республики 101

Mamanazarov Uchqun Burxon o‘g‘li
Moral self-awareness in adolescence: changing characteristics 109

VOYAGA YETMAGAN JINOYATCHILAR SHAXSINING INDIVIDUAL - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

INDIVIDUAL - PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF JUVENILE CRIMINALS

ЛИЧНОСТЬ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ПРЕСТУПНИКОВ ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Umarov Baxriddin Mengboyevich
Oriental universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori,
Psixologiya fanlari doktori
Tel.: +998 97 726-60-61
e-mail: botirumarov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jinoyatchilik xulqiga ega voyaga yetmagan shaxslarning individual-psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Muallif, jinoyatchilik xulqi bilan ajralib turadigan bolalar va o‘smirlarda mavjud bo‘lgan o‘ziga xos shaxs xususiyatlarini o‘rganadi. Ular o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik omillar, hissiy-emotsional holatlar va shaxslararo munosabatlar batafsil muhokama qilinadi. Maqolaning muhim jihatlaridan biri, voyaga yetmaganlarning jinoyatchilik xulqini tushunishning zaruriyati bo‘lib, bu ularni vaqtida tuzatish va sog‘lom shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradigan psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. Muallif tahlil qilayotgan psixologik xususiyatlar, jinoyatchilik xulqi ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy muhitni va bu muhitning o‘zgarishlarini ham e’tiborga oladi. Ushbu tadqiqot, jamoatchilik va ijtimoiy xizmatlar uchun jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyalarini takomillashtirishda foydali ma’lumotlar taqdim etadi. Natijalari, ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktik tadbirlar rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, boshqaruv va ichki ishlar tizimida samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Maqola, dastlabki tadqiqot sifatida, jinoyatchilikning oldini olish va voyaga yetmaganlarning sog‘lom rivojlanishini ta’minlash yo‘lida dolzarb mavzuni ko‘taradi.

Kalit so‘zlar: ***shaxs, xulq, jinoyatchilik xulqi,*** *individual-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik omillar, hissiy-emotsional holat.*

Annotation. The article provides an in-depth analysis of the individual psychological characteristics of juvenile individuals with criminal behavior. The author examines the specific personality traits present in children and adolescents who exhibit delinquent behavior. Social-psychological factors, emotional states, and interpersonal relationships among these individuals are discussed in detail. One of the

key aspects of the article is the necessity of understanding the delinquent behavior of minors, which serves as a foundation for developing psychological approaches aimed at correcting and fostering their development as healthy individuals. The author also considers the social environment related to the analyzed psychological characteristics and its changes. This research provides useful information for improving strategies against juvenile delinquency for public and social services. The findings are of significant importance in planning social rehabilitation and preventive measures, aiding the development of effective strategies within management and internal affairs systems. As a preliminary study, the article addresses a relevant topic in the prevention of delinquency and the promotion of healthy development for minors.

Keywords: *Personality, behavior, criminal behavior, individual psychological characteristics, socio-psychological factors, emotional state.*

Аннотация. В статье глубоко анализируются индивидуально-психологические характеристики несовершеннолетних, проявляющих преступное поведение. Автор исследует специфические черты личности, присущие детям и подросткам с преступным поведением. Подробно обсуждаются социо-психологические факторы, эмоционально-эмоциональные состояния и межличностные отношения между ними. Одним из важных аспектов статьи является необходимость понимания преступного поведения несовершеннолетних, что станет основой для разработки психологических подходов, помогающих своевременно исправить их и развивать их как здоровых личностей. Автор также учитывает социальную среду, связанную с анализируемыми психологическими характеристиками, и изменения в этой среде. Данное исследование предоставляет полезную информацию для совершенствования стратегий борьбы с преступностью для общественности и социальных служб. Полученные результаты имеют важное значение для планирования социальной реабилитации и профилактических мероприятий, способствуя разработке эффективных стратегий в управлении и системе внутренних дел. Статья поднимает актуальную тему профилактики преступности и обеспечения здорового развития несовершеннолетних в качестве первоначального исследования.

Ключевые слова: *личность, поведение, криминальное поведение, индивидуально-психологические особенности, социально-психологические факторы, эмоционально-эмоциональное состояние.*

KIRISH

Ma’lumki, shaxsning, jumladan, voyaga yetmaganlar shaxsining u yoki bu xislati ijtimoiy muhitda, ya’ni oilada, jamoada, maktabda, mahalladagi ijtimoiy-psixologik

munosabatlarda shakllanadi. Kichik ijtimoiy guruhlar sharoitida shaxsning ijtimoiy sifatlari, maqsad va yo‘nalishlari, xarakteri, qiziqishlari, ehtiyojlari shakllanadi va tarkib topadi (Алемаскин М., 2009). Shuning uchun ham voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsini o‘rganishning muhim metodologik prinsiplaridan biri o‘smirni konkret shaxs sifatida oilada, jamoa sharoitida shakllanishini tadqiq etish bo‘lib hisoblanadi.

Shaxsni o‘rganishdagi bu xildagi yondashuv umummetodologik prinsiplar, o‘ziga xos usullar, yo‘llar va tartiblar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, o‘smirning ruhiyati, u yashayotgan va faoliyat yuritayotgan hududning xususiyatlari, etnopsixologiyasi ham o‘smir shaxsini o‘rganishda e’tiborga olinishi lozim bo‘ladi. Voyaga yetmagan jinoyatchi shaxsini o‘rganishning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri uning individual va yosh xususiyatlarini, aqliy taraqqiyot va onglilik darajasini e’tiborga olgan holda yondashuvdir. Bu xulq og‘ishiga ega bo‘lgan o‘smir haqida yanada aniqroq, to‘laroq ma’lumot olish imkoniyatini beradi.

Ma’lumki, insoniyat psixologiyasi va uning ma’naviy dunyosi shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni beqiyosdir. Demak, aytish mumkinki, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsining psixologik xususiyatlari u o‘sib ulg‘aygan muhitga, tengdoshlari psixologiyasiga mos ravishda shakllanadi. Shuning uchun ham jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsini sog‘lom xulqli bolalar va o‘smirlar shaxsidan alohida holda o‘rganish yaxshi natija bermaydi. Biroq, unutmaslik kerakki, jinoyatchi shaxsi bilan sog‘lom xulq-atvorli voyaga yetmaganlar psixologiyasi o‘ziga xos tafovutlar ham kuzatiladi. Bu farqlanishlar jinoyatchi shaxsiga xos bo‘lgan tartib va qoidalar, ijtimoiy axloq me’yorlariga nisbatan qarama-qarshilikda, kishilarni hurmat qilmaslikda, o‘z manfaatlarini ustun qo‘yishda va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Bunday xislatlarning shakllanishi tabiiyki, jinoyatchi o‘sib ulg‘aygan ijtimoiy muhitga, oilaga, mahalla va jamoaga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan shaxsining ijobiy va salbiy xislatlarini o‘rganishni ijtimoiy muhitdan, u o‘sib ulg‘aygan oilaviy muhitdan alohida ajratib olgan holda o‘rganib bo‘lmaydi. Ushbu qarashlardan kelib chiqib, biz jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar psixologiyasini, ularning shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini, ularning oilaviy muhiti, o‘rtoqlari davrasi va qo‘ni-qo‘shnilari haqidagi ma’lumotlarni aniqlash va ularni tadqiqotimizdan olingan natijalar bilan taqqoslash orqali o‘rganishga harakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Shaxsni psixodiagnostik baholash” testidan olingan natijalarning ko‘rsatishicha, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarda eng yuqori ko‘rsatgichni asotsiallik shkalasi tashkil qildi (14,60 %). Psixik beqarorlik shkalasi ko‘rsatgichi ham boshqa shaxs xususiyatlar ko‘rsatgichiga qaraganda ancha yuqoriligi kuzatildi

(13,61%). Shuningdek, tadqiqotimizda nevrotizm (11,13%), psixotizm (11,02%), depressivlik (ruhiy tanglik) (9,50%), tobelik (6,55%), xususiyatlari ham yuqori darajalarni ifodalaydi.

Jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarda shaxs xususiyatlarining namoyon bo‘lishi yosh xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha ifodalandi: asotsiallik 12-13 yoshli bolalar va o‘smirlarda 13,71% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 14-15 yoshda bu ko‘rsatgich 14,32% ga teng bo‘ldi.

Olingan natijalardan ma’lum bo‘ldiki, asotsiallik, psixik beqarorlik, psixotizm, nevrotizm holatlari darajasi yosh ortib borishi bilan ko‘tarilib borganligi kuzatildi. Bu asotsial xulqning shakllanishi va namoyon bo‘lishi o‘smirlik va ilk o‘spirinlik yoshi davriga kelib yuqori darajaga ko‘tarilib boradi degan xulosani beradi. Boshqacha qilib aytganda, yuqori yoshga kelib, o‘smir xulq-atvorida jinoyatchilik xulqi barqaror, turg‘un ko‘rinish ola boshlaydi. Bu ularning yoshi ortib borishi bilan delinkvent xulq - qat’iy, turg‘un tus ola boshlashi holati esa voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish tadbirlarini imkon qadar yoshroq davrdan boshlash yaxshi natija berishiga sabab bo‘ladi.

Jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsidagi asotsiallik, psixik beqarorlik, psixotizm, nevrotizm va depressiya holatlari darajasining yuqoriligi birinchidan, jinoyatchi o‘smir voyaga yetgan ijtimoiy muhitdagi nosog‘lom va krimenogen muhitning bolalar va o‘smirlarga asta-sekinlik bilan ta’sir etib borishi natijasida ularda ruhiy zo‘riqishning, ijtimoiy voqeliklarga, ijtimoiy me’yorlarga nisbatan norozilik hissining paydo bo‘lishiga hamda shaxs va muhit o‘rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga olib kelsa, ikkinchidan, o‘smir voyaga yetgan nosog‘lom muhitning ta’siri o‘smir shaxsining nerv-fiziologik tizimida inertlik, qo‘zg‘aluvchanlik, ruhiy taranglik xususiyatlarining paydo bo‘lishiga va natijada bu ikki omil, ya’ni shaxs va muhit o‘rtasida deformatsiyalashuvning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi va voyaga yetmaganlarda ijtimoiy tartib va qoidalar hamda axloqiy me’yorlarga nisbatan hurmatsizlik, ularni tan olmaslik hissining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsidagi psixik beqarorlik, psixotizm va nevrotizm xususiyatlari darajasining yuqoriligi o‘smirlarning ijtimoiy muhit va ijtimoiy me’yorlarga nisbatan moslasha olmasliklariga, ya’ni dezadaptatsiyalanishi sabab bo‘ldi. O‘smirning ijtimoiy muhitga nisbatan moslasha olmasligi esa ota-onasi, o‘qituvchilari va atrofdagilardan ko‘ngil qolishiga olib keladi va ayrim holatlarda bu ularning turli xil g‘ayriqonuniy guruhlarga qo‘shilib ketishiga va jinoyatchilik xulqining shakllanishiga turtki bo‘ladi.

Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, ijtimoiy muhitga nisbatan moslasha olmaydigan voyaga yetmaganlarda agressivlik, (tajovuzkorlik) qo‘zg‘aluvchanlik, asabiylik holatlari boshqa shaxs xususiyatlariga qaraganda ancha yuqoriligi kuzatiladi.

Shuning uchun ular o‘zlarining bunday xususiyatlari tufayli tez-tez nizoli va janjalli vaziyatlarga tushib turadilar (Васильев В., 2000). Bu holatlar bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Qolaversa, bunday o‘smirlardagi kayfiyatlar o‘zgaruvchanligi, doimo nimadandir ko‘ngli to‘lmasligi va qo‘zg‘aluvchanligi ko‘pincha ularning maktabdagi sinfdoshlari, oilaning boshqa a’zolari bilan kirishib keta olmasliklariga sabab bo‘ladi. Natijada ular maktabga bormaslik, tez-tez uyga kelmay qolish, ota-onasining gap-so‘zlari va pand-nasihatlarini tan olmaslik kabi salbiy xislatlarni odat qilib oladilar.

Tadqiqotimizda o‘rganilgan delinkvent xulqli bolalar va o‘smirlarda nevrotiklik darajasi ham ancha yuqori darajani ko‘rsatdi (11,13%). Buning sababini o‘smirning nerv-fiziologik xususiyatida o‘zgarishlarning paydo bo‘lishi, shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasida dezadaptatsiyalanishning vujudga kelishi va buning natijasida o‘smirda emotsional beqarorlik, kayfiyat o‘zgaruvchanligi, qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlarining paydo bo‘lishi holati bilan izohlash mumkin.

Delinkvent xulqli bolalar va o‘smirlarda psixotizm va nevrotizm xususiyatlarining yuqoriligi bizning nazarimizda ular tarbiya olgan oiladagi nosog‘lom muhitga, ya’ni ota-onalar o‘rtasida nizoli vaziyatlarning tez-tez bo‘lib turishiga, ota-onalar yoki oilaning boshqa a’zolarining bir-biriga nisbatan qo‘pol, bemehr munosabatda bo‘lishliklari, oilaviy tarbiyadagi nuqsonlar hamda o‘smirning maktab jamoasida o‘z o‘rniga, mavqeiga ega emasligi, fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi va boshqalarga bog‘liqdir.

Delinkvent xulqli bolalar va o‘smirlardagi autizm, ya’ni ijtimoiy tartib va me’yorlarni qabul qila olmaslik, o‘z o‘y tashvishlari atrofida uymalashib qolish, tashqi muhit voqea-hodisalarining ijobiy jihatlarini ko‘ra olmaslik, o‘z istak, mayl, qiziqish va qarashlari atrofida fikr-mulohaza yurituvchanlik xususiyatlarining ustunligi, muammoli vaziyatlarga, qiyinchiliklarga o‘z ichki, ya’ni endogen kechinmalari orqali yondashuvlari tufayli jinoyatchilik xulqining paydo bo‘lishiga ta’sir etishi mumkinligi kuzatiladi. Shuningdek, ulardagi bunday xususiyatlar ko‘pincha, shaxsning o‘z xatti-harakatlari motivatsion asosini anglab yetmaslikka olib keladi va o‘zlari tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlari mazmun va oqibatini anglab yetmagan holda g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir etishlariga sabab bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotimiz natijalariga qaraganda, psixotizm va nevrotizm xususiyatlari darajasi yuqori bo‘lgan bolalar va o‘smirlarda g‘ayritabiiylik, gormonal rivojlanishning nomutanosibligi, ayrim holatlarda aqliy rivojlanishning ortda qolishi holatlari ham kuzatiladi. Shuningdek, ularda nutqning betartibligi, so‘zlarni ifodalashdagi nuqsonlar, pala-partish so‘zamollik kabi sifatlar ham yorqin ifodalanganligi kuzatiladi.

Tadqiqotlarimizning ko‘rsatishicha, voyaga yetmaganlarning jinoiy xatti-harakatlarni amalga oshirishlariga ular shaxsidagi deformatsiyalanganlik holati, ya’ni dunyoqarash va tushunchalarning torligi, ijtimoiy aloqalar darajasining pastligi, faoliyatlar mazmuni va uning ko‘rinishlari oddiyligi hamda bo‘sh vaqtlarini unumsiz va mazmunsiz o‘tkazishlari holati sabab bo‘ladi.

Voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsidagi o‘ziga xos xususiyatlardan yana biri ulardagi axloqiy tushunchalar, huquqiy ong hamda ustanovkalarning deformatsiyalanganligidir. Bu ularda axloqiy, ma’naviy va huquqiy tushunchalarning shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va voyaga yetmaganlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Delinkvent xulqli voyaga yetmaganlarning emotsional irodaviy xususiyatlariga ko‘ra, ularda o‘zi tomonidan amalga oshirilgan qonunbuzarlikdan uyalish hissining yo‘qligi, boshqalarning aziyat chekishlariga nisbatan beparvolik, yolg‘onchilik, qizg‘anchiqlik va hatto qo‘pollik, o‘z-o‘ziga va o‘z xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qarashning yo‘qligi va shu kabilar kuzatildi. Shuningdek, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning emotsional irodaviy sifatlarini o‘rganish natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi irodasizlik holatiga emas, balki irodaviy sifatlarning salbiy yo‘naltirilganligiga bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Emotsional beqarorlik, qaysarlik, o‘zgalar azobi, g‘am-tashvishlariga nisbatan beparvolik va agressivlik xususiyatlari ham delinkvent xulqli bolalar va o‘smirlarga xos bo‘lgan xarakterli xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Shuningdek, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning deyarli ko‘pchiligida nevropatologik anomaliya xususiyatlari kuzatilganligining ham guvohi bo‘lamiz.

Tadqiqotimizda o‘rganilgan respondentlarda depressivlik xususiyati ham ancha yuqori darajani ko‘rsatdi (9,50%). Yosh davrlariga ko‘ra esa 12-13 yoshda bu xususiyat 8,74 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, 14 -15 yoshda 9,49 foiz, 16-17 yoshda esa bu ko‘rsatgich 10,06 foizni tashkil qiladi. Ushbulardan ko‘rinadiki, depressivlik xususiyati 14-15 yoshda boshqa yosh davrlariga qaraganda yuqori darajaga egadir. Buning sababi bizningcha, aynan ushbu yosh davrida pubertat, ya’ni jinsiy va psixofiziologik rivojlanishlar jarayonining jadal sur’atda kechishiga bog‘liq bo‘lsa kerak.

Umumiy faollik xususiyati tajriba guruhidagi sinaluvchilarda 4,41 foizni ko‘rsatgan bo‘lsa, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatgich ancha yuqori, ya’ni 13,20 foizni tashkil qiladi. Ushbu holatdan ma’lum bo‘ladiki, umumiy faollik darajasining pasayishi o‘smirda egotsentrizm, jur’atsizlik, tormozlanuvchanlik, sustlik, emotsional beqarorlik va qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlarining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bunday sifatlar kishida ruhiy zo‘riqishni, depressivlik hamda norozilik hissini keltirib

chiqaradi va o‘smirning ijtimoiy muhit tartib-qoidalariga, voqea-hodisalarga nisbatan dezadaptatsiyalashuviga olib keladi. Vijdonlilik, estetik taassurotchanlik xususiyatlarining sustligi ham ularda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. (vijdonlilik - 6,22% ni, estetik ta’sirchanlik - 2,10% ni tashkil qildi. Nazorat guruhida esa vijdonlilik 11,03 %, estetik taassurotchanlik 11,04 % ga teng bo‘ldi) (Umarov B., 2014).

Ushbu holatni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, bolalar va o‘smirlardagi vijdonlilik va estetik zavqlanish xislatlarining sust rivojlanganligi ularda mehr-oqibat, o‘zaro tushunish, tabiat manzaralaridan va voqea-hodisalardan zavqlanish, undan bahra olish hissining sust rivojlanishiga olib keladi (Клейберг Ю., 2011). Kishining ma’naviy, ruhiy yetukligi zavqlanish, xursand bo‘lish, bahra olish hissiyotini tarkib toptiradi. Ma’naviy-ruhiy qashshoqlik esa kishida zavqlanish, orom olish hissining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, aytish mumkinki, jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan biri, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, ruhiy va estetik xislatlarning sust rivojlanganligidir.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar shaxsiga xos bo‘lgan xususiyatlardan yana biri ularda nazokatlilik (feminizm) xususiyatlarining yorqin namoyon bo‘lmaganligidir (2,01 %). Nazorat guruhida esa bu xususiyat 10,20 % ga tengdir. Nazokatlilikning sust rivojlanishi bolalar va o‘smirlarda darg‘azablik, bemehrlik, mehr-oqibatsizlik, agressivlik, (tajovuzkorlik) va qo‘zg‘aluvchanlik sifatlarining shakllanishiga olib keladi. Bunday sifatlar bosqinchilik, talonchilik, zo‘ravonlik, odam o‘ldirish va unga urinish, nomusga tegish kabi jinoyat turlarini sodir etgan bolalar va o‘smirlarda yanada yorqin namoyon bo‘lganligi kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, nazokatlilik sifatlari o‘smirlarda mehribonlik, shirin so‘zlik, bag‘rikenglik, ko‘ngilchanlik kabi xislatlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Mehribon, shirin so‘z, bolajon o‘smir esa tajovuzkorlik, zo‘rlash, kishining qadr-qimmatini toptaydigan noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirishdan o‘zini tiya oladi.

Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar shaxsiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri introvertlik va ekstravertlik xususiyatlarining turlicha namoyon bo‘lishidir. Bu xususiyatni tahlil qiladigan bo‘lsak, xarakterning bu xislati yosh ortib borishi bilan pasayib borganligi kuzatildi. Bu shundan dalolat beradiki, yosh davrida delinkventlik xulqiga xos bo‘lgan xarakter xislatlari hali shakllanib ulgurmaganligi tufayli introversiya darajasi yuqori ko‘rsatgichni ko‘rsatmoqda. Yosh ortib borishi bilan esa delinkvent xulqqa xos bo‘lgan xarakter xususiyatlari yorqin namoyon bo‘la boshlaydi va introversiya darajasining pasayishiga sabab bo‘ladi. Oqibatda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishi ehtimolligi darajasi yuqori bo‘lgan ekstraversiya ko‘rsatkichi introversiya darajasiga nisbatan

yaqqol ifodalanganligining guvohi bo‘lamiz. Aynan shu xildagi qarashni tadqiqotchi F. Gobichiya tadqiqotlarida ham kuzatishimiz mumkin.

Introvertlik xususiyatlarini namoyon qilgan delinkvent xulqli bolalar va o‘smirlar ko‘pincha kamgap, tortinchoq, xotirjam va o‘z mustaqil fikriga ega emasliklari bilan boshqalardan ajralib turadilar. Shuning uchun ham introvert xususiyatli bolalar va o‘smirlar ko‘pchilik holatlarda jinoyatchilik ko‘chasiga boshqalarning qistovi, zo‘rlashi orqali kirib qolganliklari kuzatildi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, jinoyatchilik xulqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlarda ko‘pincha asotsiallik, psixik beqarorlik, depressiya, tobelik xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ularda psixotizm, nevrotizm xususiyatlari ham jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida ishtirok etishi kuzatildi. Ushbulardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik xulqining oldini olishda ularning shaxsiga xos bo‘lgan individual-psixologik xususiyatlarni inobatga olish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алемаскин М. А. (2009) О структуре личности несовершеннолетних правонарушителей // Вопросы изучения и предупреждения правонарушений несовершеннолетних. – Сб. науч. трудов. Часть 1. – Москва. – С. 92-94.
2. Васильев В. Л. (2000) Юридическая психология. Санкт-Петербург. «Питер». – 50 с.
3. Гобечия Ф. (2018) Девиантное поведение дети и подростков. 2-издание. – Москва: Издательство: «Гавдеамус». – 346 с.
4. Клейберг Ю. А. (2011) Психология девиантного поведения: Учеб. Пос. – Москва: ТЦ «Сфера», при участии «Юрайт - М». – С. 7-40.
5. Umarov B. M. (2014) O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoiyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent.
6. Ганишина И.С. (2006) Неблагополучная семья и девиантное поведение несовершеннолетних: Учебное пособие. – Москва: Издательство МПСИ.
7. Змановская Е.В. (2007) Девиантология (психология отклоняющегося поведения) – Москва. – 285 с.
8. Менделевич В.Д. (2008) Психология девиантного поведения. Учебное пособие для вузов. – Москва: Издательство «Речь». – 346 с.
9. Umarov B.M. (2001) O‘smirlarda jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // “Pedagogik ta’lim”. – Toshkent. № 2.
10. Умаров Б.М. (2006) Семейные факторы социального риска и отклонения поведения несовершеннолетних. // УзГМУЯ, сборник материалов научно-практической конференции. Молодой ученый. – Ташкент. – С. 193-197.

REFERENCES:

1. Alemaskin M. A. (2009) O strukture lichnosti nesovershennoletnix pravonarushiteley // Voprosi izucheniya i preduprejdeniya pravonarusheniy nesovershennoletnix. – Sb. nauch. trudov. Chast 1. – Moskva. – S. 92-94. (In Russian)
2. Vasilev V. L. (2000) Yuridicheskaya psixologiya. Sankt-Peterburg. «Piter». – 50 s. (In Russian)
3. Gobechiya F. (2018) Deviantnoe povedenie deti i podrostkov. 2-izdanie. – Moskva: Izdatelstvo: «Gavdeamus». – 346 s. (In Russian)
4. Kleyberg Yu. A. (2011) Psixologiya deviantnogo povedeniya: Ucheb. Pos. – Moskva: TS «Sfera», pri uchastii «Yurayt - M». – S. 7-40. (In Russian)
5. Umarov B. M. (2014) O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoiyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent. (In Uzbek)
6. Ganishina I.S. (2006) Neblagopoluchnaya semya i deviantnoe povedenie nesovershennoletnix: Uchebnoe posobie. – Moskva: Izdatelstvo MPSI. (In Russian)
7. Zmanovskaya E.V. (2007) Deviantologiya (psixologiya otklonyayushegosya povedeniya) – Moskva. – 285 s. (In Russian)
8. Mendelevich V.D. (2008) Psixologiya deviantnogo povedeniya. Uchebnoe posobie dlya vuzov. – Moskva: Izdatelstvo «Rech». – 346 s. (In Russian)
9. Umarov B.M. (2001) O‘smirlarda jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // “Pedagogik ta’lim”. – Toshkent. № 2. (In Uzbek)
10. Umarov B.M. (2006) Semeynie faktori sosialnogo riska i otkloneniya povedeniya nesovershennoletnix. // UzGMUYa, sbornik materialov nauchno-prakticheskoy konferensii. Molodoy ucheniy. – Tashkent. – S. 193-197. (In Russian)

IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYA HASAD HISSI SHAKLLANISHINING MEXANIZMI SIFATIDA

SOCIAL IDENTIFICATION AS A MECHANISM FOR THE FORMATION OF ENVY

СОЦИАЛЬНАЯ ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАК МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ ЗАВИСТИ

Baykunusova Gulmira Yuldibayevna
Oriental Universiteti
Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)
Tel.: +998 97 758-74-77
e-mail: g.n.baykunusova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shaxsda hasad hissi namoyon bo'lishi va rivojlanish dinamikasi haqidagi nazariy tahlillar yoritilgan. Hasad shaxs ijtimoiy hayotining ajralmas bir bo'lagi va shaxslararo munosabatlarning kuchli boshqaruvchisi hisoblanadi. Shunga qaramay, zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan hasad ijtimoiy-psixologik fenomenini diagnostika qilish biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Ijtimoiy identifikatsiya hasad paydo bo'lishining asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shaxs ijtimoiy tajriba maydoni kengaygani sari unda hasad qilish obyektlari ham ortishi isbotlangan. Maqolada ijtimoiy identifikatsiyaning hasad shakllanishidagi roli empirik asoslari keltirilgan. Tadqiqot mavzusi ijtimoiy psixologiyaning muammolaridan biri bo'lganligi sababli, bu psixologik hodisani sotsiologik jihatdan tahlilini amalga oshiramiz. Bizga ma'lumki, shaxs ijtimoiylashuv bosqichlarini bosib o'tgani sari, unda turli ijtimoiy guruhlarga mansublik tajribasi va odamlar bilan muloqot orqali munosabatlarga kirishish imkoniyati ortib boradi. Birinchidan, bu jarayonda shaxsda o'zini boshqalar bilan identifikatsiya qilish natijasida ijtimoiy taqqoslash hodisasi sodir bo'ladi. Bu hodisa ijtimoiy bilish obyekti (odamlar va odamlar guruhlari) orasida muntazam ravishda sodir bo'ladi. Shaxs o'zini o'zgalar bilan taqqoslash jarayoni turli bosqichda amalga oshirilishiga qarab shaxsda hasad darajasi ham sodir bo'ladi.

Kalit so'zlar: *Hasad, havas, emotsional reaksiyalar, dushmanlik, motivatsiya, ijtimoiylashish, oila, natsizm.*

Annotation. The article considers the theoretical analysis of the manifestation of feelings of envy in a person and the dynamics of its development. Envy is an integral part of human social life and a powerful regulator of interpersonal relationships. Nevertheless, the diagnosis of the socio-psychological phenomenon of envy,

widespread in modern society, presents some difficulties. Social identity is considered one of the main factors in the emergence of envy. It is proved that as the space of an individual's social experience expands, the objects of envy also increase in it. The article presents the empirical foundations of the role of social identity in the formation of envy. Since the subject of the study is one of the problems of social psychology, we will conduct a sociological analysis of this psychological phenomenon. It seems to us that as a particular person goes through the stages of socialization, his experience of belonging to various social groups and the opportunity to enter into relationships through communication with people increases. Firstly, in this process, an individual experiences the phenomenon of social comparison as a result of identifying himself with others. This phenomenon occurs systematically among the object of social cognition (people and groups of people). The level of envy also occurs in a person, depending on how the process of comparing oneself with others occurs at different stages.

Keywords: *black envy, white envy, emotional reactions, hostility, motivation, socialization, family, nazism.*

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические анализы проявления и динамики развития чувства зависти у личности. Зависть является неотъемлемой частью социальной жизни личности и сильным управляющим элементом межличностных отношений. Однако диагностика широко распространённого в современном обществе социально-психологического феномена зависти вызывает определенные трудности. Социальная идентификация признается одним из основных факторов возникновения зависти. Исследования показывают, что по мере расширения социальной сферы опыта у личности также увеличивается количество объектов зависти. В статье представлены эмпирические данные о роли социальной идентификации в формировании зависти. Поскольку исследуемая тема является одной из проблем социальной психологии, мы осуществим социологический анализ данного психологического явления. Известно, что по мере прохождения индивидуумом разных стадий социализации у него возрастает опыт принадлежности к различным социальным группам, а также возможность взаимодействия с людьми. В этом процессе происходит явление социальной сравнительной оценки, когда личность идентифицирует себя с другими. В зависимости от того, на каком этапе происходит процесс сравнения с другими, уровень зависти у личности тоже варьируется.

Ключевые слова: *Зависть, хвастовство, эмоциональные реакции, враждебность, мотивация, социализация, семья, нацисизм.*

KIRISH

Zamonaviy xorij psixologiyasida hasadning ijtimoiy-psixologik xususiyati haqida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. M. Silver, J. Sabini hasadni bizning o‘z-o‘zimizga nisbatan bahoyimizni boshqaruvchi mexanizm deb tushuntiradilar. D. Cooper esa hasadni ijtimoiy muhit bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, hasad ijtimoiy tajribani egallash jarayonida yuzaga keladi. Shaxsning adaptatsiya jarayoni qanchalik oson bo‘lsa, hasadning yorqin ko‘rinishi ham shunchalar sust bo‘ladi. P. Tittellman hasadni rashk bilan uzviy bog‘liqlikda tushuntirishga harakat qiladi. Bu ikki his shaxsdagi emotsional sohaning buzilishiga olib keladi. Subyektiv baxtsizlik “niyati buzuq hasad”ning rivojlanishiga asos bo‘ladi, degan fikrni aytib o‘tgan. A. Rosenblatt ta’kidlashicha, sog‘lom shaxs bo‘lish uchun insonga “psixologik avtonomlik” kerak bo‘ladi. Agar shaxs o‘zi va atrof- muhit bilan aniq chegarani belgilab olmasa, unda xavotirlik, hasad, shubhalanuvchanlik kuzatiladi. P. Salovey, J. Rodin, A. Rothman hasad va verbal agressiya o‘rtasida bog‘liqlikni ko‘ra bilishgan. W. Parrott fikricha, dushmanlik hasadning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. K. Tai, J. Narayanan, D. Mciallister hasadning ijobiy va salbiy ko‘rinishlarini ajratdilar. R. Smith, W. Parrott, E. Diener, R. Doyle, S. Kim fikricha, hasad o‘zining nomukammalligini og‘riqli darajada boshdan o‘tkazishga sabab bo‘luvchi ijtimoiy taqqoslashdan boshlanadi. Befoyda taqqoslash natijasida shaxsda hasad hissi bilan birga keluvchi qoniqmaslik hissini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

P. Slovey, J. Rodin hasadni uch turga bo‘lgan: 1) anglangan hasad, bunda subyekt atrofdagilarga nisbatan o‘zining quyi holatini baholaydi va anglaydi; 2) anglanmagan hasad – bunda ongsiz himoya mexanizmlari, komplekslar va arxetiplar sifatida namoyon bo‘ladi; 3) yashirin hasad – bunda inson o‘zgalarning unga nisbatan hasadi bor deb o‘ylaydi (Salovey P., Rodin J., 1989: 228).

N. Van de Ven, M. Zeelenberg hasadni shaxs uchun muhim bo‘lgan sohada o‘zganing muvaffaqiyatliroq bo‘lgan vaziyatda namoyon bo‘luvchi hissiyot, deya ta’riflagan. Shunga qaramay muallif hasadni konstruktiv xarakterga ega, deb hisoblaydi. Uning fikricha, hasad turli vaziyatlarga shaxsning moslashishi va munosabat bildirish usullarini o‘rganishiga yordam beradi (Ven N., Zeelenberg M., Pieters, R. 2009: 9).

R. Chambliss hasad va havasni o‘zgacha bir kechinma nomi bilan ta’riflashga uringan. Bu ko‘ra olmaslik va freydenfroyd tushunchalaridir. Uning fikricha, ichiqoralik – bu o‘zgalar baxtsizligi va uchragan omadsizligi ustidan quvonish hissi bo‘lib, ko‘proq hasadni eslatadi. Freydenfroyd esa, nemis tilidan olingan bo‘lib,

o‘zgalar baxti uchun quvona olish bo‘lib, bu tushuncha ko‘proq havasga tegishlidir (Smith R., 2008).

Xorij olimlarining tadqiqotlarida kuchli depressiyada bo‘lgan odamlar guruhida ichiqoralik va freydnfroyd jarayoni kechishi aniqlandi. Unga ko‘ra, depressiv tushkunlikda bo‘lgan shaxslarda birovning baxtsizligi ustidan quvonish holati ko‘proq uchrar ekan.

Shaxsda hasad va havas hissini kechish jarayoni, undagi emotsional holatga bog‘liq. Ya’ni shaxsdagi hayratlanish va norozilik kayfiyatiga bog‘liq hisoblanadi. Hayratlanish – havas hissiga yaqin bo‘lib, o‘zga shaxsning yuqorilab ketishidan xursand bo‘lishi hisoblanadi. Shaxsdagi norozilik holati esa, bu adolatsizlik muhitida o‘zganing yutug‘ini ko‘ra olmaslik hisoblanadi (Van de Ven N., Hoogland C., Smith R., Van Dijk W., Breugelmans S., Zeelenberg M., 2009).

J. Hamman ham shunga o‘xshash fikrni bildirib o‘tadi. Uning talqinicha, hasad bu biz xohlagan biron narsani o‘zgalar egallagan vaziyatda hosil bo‘luvchi g‘azab hissidir. Uning ishlarida hasad baxt kontekstida ifodalanadi. Ya’ni, o‘zganing baxtini ko‘rganimizda, bizda yetishmayotgan shaxsiy baxtimiz uchun kerakli narsa haqida o‘ylay boshlaymiz. Natijada hasad o‘z baxtimiz haqidagi og‘riqli xotira bilan kurash orqali yuzaga keladi.

Shaxsni ijtimoiylashtirish har bir shaxsning ijtimoiy tuzilishga kirish jarayoni bo‘lib, natijada jamiyatning tuzilishi va har bir shaxsning tuzilishida o‘zgarishlar yuz beradi. Bu har bir insonning ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq. Har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sosializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sosializatsiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta’sirini o‘tkaza olishi jarayonidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxs psixologiyasi ajoyib tuzilmaga ega. Shaxs qanday bo‘lmasin, o‘z shaxsini baholashda o‘zini boshqalar bilan taqqoslaydi. Bu jarayon ilmiy psixologiyada L. Festingerning “Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi” deb yuritiladi. Bu nazariyaga muvofiq agar shaxsda o‘zining shaxsiy sifatlarini baholashga obyektiv standartlarga ega bo‘lmasa, u o‘zini boshqalar bilan taqqoslash uchun o‘zga odamlarni qidira boshlaydi.

Taqqoslash jarayonining avvalida shaxs atrofida o‘zini taqqoslash obyektlarining ko‘pligi muammosiga duch keladi. Sababi, unda o‘zini kim bilan taqqoslash haqida tasavvur mavjud bo‘lmaydi. Bu jarayonda shaxs yana boshqa odamlarga qarab, “ular o‘zlarini kimlar bilan solishtiryaptilar”, degan fikrga tayanib ish ko‘radi. Misol uchun shaxs o‘zining tashqi ko‘rinishini taqqoslash jarayoni ham shu tartibda kechadi. Agar shaxsda obyektiv standartlar mavjud bo‘lmasa, unda atrofdigilarning bizning tashqi ko‘rinishimiz haqidagi fikrlariga tayanamiz. Demak, L. Festingerning nazariyasiga asosan shaxs o‘zini tashqi ko‘rinishi, qobiliyati, hislari haqida fikr yuritmoqchi bo‘lsa, albatta atrofdagi o‘zga odamlarning fikrlariga tayanadi. L. Festingerning “Ijtimoiy taqqoslash nazariyasi”ga, J. Vud katta baho beradi. U shaxsni ijtimoiy taqqoslashga undaydigan uchta motivni keltirgan.

1) O‘z-o‘zini baholashga bo‘lgan ehtiyoj;
2) O‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj;
3) O‘z-o‘ziga bahoni oshirishga bo‘lgan ehtiyoj.

J. Vudning fikricha, shaxs ijtimoiy taqqoslashining maqsadi o‘z-o‘ziga baho asosida bo‘lsa, unda u o‘zi haqida ko‘proq ma’lumot olishga urinadi. Agar taqqoslash obyekti sifatida o‘zimizning darajamizdagi insonni to‘g‘ri tanlab olsak, maqsad muvofiq bo‘ladi. Masalan, shaxs o‘zidagi matematik qobiliyatni obyektiv solishtirmoqchi bo‘lsa, bu sohada zo‘r yutuqlarga erishgan buyuk matematik bilan yoki hech nima bilmaydigan inson bilan solishtirmaydi. Aniqrog‘i, shaxs o‘zini o‘z qobiliyat darajasidan biroz yuqori bo‘lgan o‘zga shaxs bilan solishtiradi (Silver M., Sabini J., 1986).

Shaxs taqqoslash obyektini tanlash jarayonida, uning yutuqlarga yetisha olishiga ko‘zi yetadigan odamlarni tanlaydi. Keyin ulardagi o‘z darajaning ortishi taqqoslash standartining ham ortishiga olib keladi. Shaxs o‘zini o‘zga insonlar bilan taqqoslashni boshlaganda, o‘ziga muhim xususiyatlari bilan o‘xshash insonlarni namuna sifatida tanlab oladi. Bu xususiyatlardan biri jinsiy mansublik hisoblanadi.

Taqqoslashning ikkinchi maqsadi — o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘lsa, raqobat qilish xususiyati kuchli bo‘lgan shaxs o‘zini bir sohada rivojlantira olgan o‘zga insonlar bilan taqqoslashni ma’qul ko‘radi. Masalan, intellektual, sport va boshqalar. Boshqa sohalarda ularning darajalari bir xil bo‘lishi kerak. Bunday tushuncha, shaxsda o‘ziga o‘xshash boshqa inson muvaffaqiyatga erishdimi, demak men ham erisha olaman degan o‘ziga ishonch asosida ishlaydi.

J. Vudning klassifikatsiyasi bo‘yicha, ijtimoiy taqqoslashning uchinchi maqsadi – o‘z-o‘ziga bahoni oshirishga qaratilgan bo‘lsa, shaxs o‘zi haqidagi tasavvurdan ancha yaxshi ekanligini isbotlashga qaratilgan bo‘ladi. Bunday vaziyatda shaxs o‘zidan ancha past pog‘onadagi o‘zga insonni tanlaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, shaxs o‘zini undan quyi pog‘onada bo‘lgan inson bilan solishtiradi. Eng qiziq holat, agar

shaxs atrofida bunday insonlar bo‘lmasa, u o‘zining mavhum xulosalari bilan bunday insonlarni yaratib oladi.

L. Festingerning “ijtimoiy taqqoslash” nazariyasi ko‘pgina tadqiqotlarning gipotezasini ochib berishda xizmat qilgan. Xorijlik tadqiqotlarda bu nazariya orqali qiziqarli tadqiqotlar olib borilganligi aniqlandi (Wise K., Alhabash S., Park H., 2010).

Salovey va Rodinlarning tadqiqotlarida aniqlanishicha, shaxsning noadekvat taqqoslashi undagi shaxsiy farovonlikni kamayishiga va aksincha, adekvat taqqoslash esa uning ortishiga olib kelishi aniqlangan (Salovey P., Rodin J., 1989).

Xagertning tadqiqotlari ijtimoiy taqqoslash nazariyasini iqtisodiy sohalardagi muammolarni tadqiq etishda foydalanilgan. U jamiyatning maksimal daromadga ega odamlar guruhi va yuqori daromadga ega odamlar guruhini tadqiq etganida, yuqori daromadga ega odamlar kamroq pulga ega bo‘lganliklari uchun o‘zlarini baxtsiz his qilishlarini tajribalar orqali aniqlagan (Tai K., Narayanan J., McAllister D., 2012).

Tadqiqotimizda Toshkent davlat pedagogika universiteti professor-o‘qituvchilari, talabalari va magistrlari jalb etildi.

Psixologiya fanida shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlashda bir qancha metod va metodikalardan foydalaniladi. Shaxsning aqliy faoliyatini, hissiy-emotsional sohasini, xarakter xususiyatlarini, kasbiy qiziqish, layoqatlar va boshqa sifatlar turli xil ilmiy-amaliy metodikalar orqali tadqiq etiladi. Psixologik ilmiy tadqiqotlarni mana shunday metodikalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Psixologik ilmiy metodikalarni to‘g‘ri tanlay olish ilmiy tadqiqotni samarali o‘tkazishni kafolatlaydi.

Hasad shaxs ijtimoiy hayotining ajralmas bir bo‘lagi va shaxslararo munosabatlarning kuchli boshqaruvchisi hisoblanadi. Shunga qaramay, zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan hasad ijtimoiy-psixologik fenomenini diagnostika qilish biroz qiyinchiliklar tug‘diradi. Buni bir nechta sabablar bilan izohlash mumkin. Shularning asosiy uchtasi quyida berilgan:

Birinchidan, hasad ijtimoiy-psixologik fenomeniga yagona yondoshuvning yetishmasligi. Ba’zi tadqiqotchilar hasadning destruktiv xarakterini asosiy deb ta’kidlab, lekin uning konstruktiv jihatlarini ham aniqlashi (V. Gusova, S. Zubarev, A. Prokofyev, Y. Sokolova); Ba’zi tadqiqotchilar ishlarida, hasadning undovchi funksiyasi inkor etilib, uni nafaqat shaxs balki o‘zgalar hayotini buzuvchi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga xalaqit beruvchi to‘siq, deya izohlashi (Y. Zoltuxina-Abolits, V. Labunskaya, K. Muzdibayev, R. Shampionov) fikrimizga isbot bo‘la oladi;

Ikkinchidan, har bir shaxs umri davomida albatta hasad hissini tuyganlik ehtimoli yuqori bo‘lsa-da, buni o‘zlarida mavjud ekanligini tan olishga uyalish (odob-axloq me’yorlari nuqtai nazaridan hasadgo‘ylik yomon illat); Diniy ta’limot asoslarida ham hasadni salbiy oqibatlarga olib keluvchi gunoh deb qaralishi, insoniyat ongida buni

yoqimsiz his, deb qabul qilinishiga asos bo‘ladi. Bu shaxsda o‘z- o‘zidan hasad mavjudligini inkor etishga, yashirishga sabab bo‘ladi (Ильин Е., 2014).

Uchinchidan, hozirgi kunda shaxsning hasadga moyilligini aniqlashga xizmat qiluvchi metodik usullarning chegaralanganligi.

Tadqiqot davomida havas va hasadga moyillikni aniqlashga yordam beruvchi Y. Ilinning “Hasad so‘rovnomasi” dan foydalandik. Bu metodikaning hasadni aniqlovchi boshqa metodikalardan farqli jihati shundan iboratki, bunda respondentlar orasida faqatgina hasad hissining ko‘rsatkichini aniqlab beradi. Y. Ilin metodikani asl variantidan 24 savolga qisqargan shaklga olib kelgan. Tadqiqot davomida Y. Ilin tomonidan taklif etilgan variantdan foydalandik. Respondentlar savollarga “ha” yoki “yo‘q” ko‘rinishida javob beradilar. Respondentlar tomonidan yig‘ilgan ballar umumlashtirilib, hisoblanadi. 0-6 ballarni qo‘lga kiritgan respondentlarda hasadning quyi darajasi mavjud. 7-12 ballarni yig‘gan respondentlar o‘rta darajadagi hasadga moyillik ko‘rsatkichiga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. 13-18 ball to‘plagan respondentlar yuqori darajadagi hasad sohiblaridir. 19-24 ballni to‘plagan respondentlarda hasadning juda yuqori darajasi mavjud ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida bu metodikadan foydalanishdagi afzalliklarni e’tirof etish joiz. Sababi, metodika savollari qulay, tushunarli, aniq tuzilganligi respondentlar orasida uni belgilashda hech qanday qiyinchilik tug‘dirmadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hasad va havas yonma-yon yuruvchi, konstruktiv va destruktiv hislardan biri hisoblanadi. Bu his odamzodni azaldan o‘ylantirib kelgan. Buni muammo sifatida tadqiq etish zamonaviy psixologiyada ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Xorijlik tadqiqotchilarning izlanishlarida hasad muammosiga bag‘ishlangan ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Aslida ko‘pgina psixologik-diagnostik metodikalar ham aynan hasad hissini tadqiq etishga mo‘ljallangan. Bu hasad hissi havasdan ko‘ra, odamlarga og‘riqli va qiziqarlidir, degan xulosani beradi. Biz eksperimental tadqiqot davomida nafaqat hasad hissining ichki strukturasini ochib berishga harakat qildik, balki havas hissini ham sifat tahlilini amalga oshirdik.

Hasad hissini dinamik xususiyatga ega ekanligini ilgarigi tadqiqotlarimizda eksperimental yo‘l bilan aniqlaganmiz. Ilgarigi izlanishlarimizda o‘spirinlik, ilk o‘spirinlik va ilk yetuklik davrlari orasida hasad hissini namoyon bo‘lishidagi yosh farqlarini “Hasad so‘rovnomalari” metodikasi orqali aniqladik.

Bu tadqiqotimizda xuddi shu metodikani keyingi davrlarda namoyon bo‘lishini aniqlashni o‘z oldimizga vazifa etib belgiladik. Lekin guruhlarga ajratishda yosh nuqtai nazari bilan emas, aksincha ijtimoiylashuv davrlari yuzasidan belgiladik. Tadqiqot davomida respondentlarni ijtimoiylashuv davrlari yuzasidan talabalik davri

sinaluvchilari, magistrlik davri sinaluvchilari, yosh pedagoglar (10 yilgacha), tajribali pedagoglar (10 yildan ortiq) ishlagan shaxslar guruhiga ajratdik. Tadqiqot davomida ularda Y. Ilinning “Hasad so‘rovnomasi” metodikasini o‘tkazdik. Tadqiqotni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalari va professor-o‘qituvchilarida olib bordik.

1 -jadval

Turli ijtimoiylashuv davrlarida hasadning namoyon bo‘lishidagi tafovut ko‘rsatkichlari (student t-mezoni bo‘yicha)

Statistik Kórsatkichlar	Sinaluvchilar guruhlari					
	Talabalik davri sinaluvchilari (n = 360)	Magistrlik davri sinaluvchilari (n = 50)	Magistrlik davri sinaluvchilari (n = 50)	Yosh pedagoglar (10 yilgacha) (n = 65)	Yosh pedagoglar (10 yilgacha) (n = 65)	Tajribali pedagoglar (10 yildan ortiq) (n = 45)
M	5,3	5,7	5,7	8,02	8,02	8,5
t	2,22		-2,43		2,12	
p	0,05		0,05		0,05	

Tadqiqot jarayonida bizda ahamiyatli va ahamiyatsiz natijalar hosil bo‘ldi. Quyidagi jadvalda ularning natijalari berilgan. Tadqiqot mobaynida “Hasad” so‘rovnomasidan foydalandik. Olingan natijalarni yuqoridagi jadvalda umumlashtirildi. “Hasad” so‘rovnomasi bo‘yicha talabalarning o‘rta arifmetik qiymati 5,3 ga teng ekanligi ko‘rinib turibdi. Magistratura bosqichi talabalarida bu ko‘rsatkich 5,7 ga teng (t= 2,22; r≤0,05). 10 yilgacha ishlagan professor-o‘qituvchilarda esa, 8,02 ga teng (t= -2,43; (r≤0,05). 10 yildan ortiq ishlagan professor-o‘qituvchilarda esa, 8,05 ga teng (t= 2,12 (r≤0,05).

Quyidagi jadvalda ko‘rinib turganidek, hasad dinamik xususiyatga ega. Aslida, avvalgi tadqiqotlarimizda ham hasad hissining dinamik xususiyatini o‘smirlik davridan boshlab, to yetuklik davrigacha kechish jarayonini aniqlagan edik. Bu safargi tadqiqotimizda ana shu boshlagan ishimiz qolgan yosh davrlarida davom etib, hasadning dinamik xususiyati haqida umumiy xulosaga keldik. Tadqiqot davomida biz metodikani to‘rtta davr respondentlarida olib bordik. Ularning yosh xususiyatlaridagi

farqlari, bu davrda o‘ziga xos qadriyatlar tizimi, orzu va armon tushunchasiga yondoshuvning turliligi buning sababi bo‘ladi. Yoshning kattarishi va quvvatning kamayishi shaxsni atrofdagi orzu qilgan narsalarga yetishish istagi va imkoniyatni ham chegaralanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, respondentlarni guruhlarga ajratishda ularning ijtimoiylashuv davrlari yuzasidan ajratib oldik. Tadqiqot mavzuyimiz ijtimoiy psixologiyaning muammolaridan biri bo‘lganligi sababli, bu psixologik hodisani sotsiologik jihatdan tahlilini amalga oshiramiz. Bizga ma’lum shaxs ijtimoiylashuv bosqichlarini bosib o‘tgani sari, unda turli ijtimoiy guruhlarga mansublik tajribasi va odamlar bilan muloqot orqali munosabatlarga kirishish imkoniyati ortib boradi. Birinchidan, bu jarayonda shaxsda o‘zini boshqalar bilan identifikatsiya qilish natijasida ijtimoiy taqqoslash hodisasi sodir bo‘ladi. Bu hodisa ijtimoiy bilish obyekti (odamlar va odamlar guruhlari) orasida muntazam ravishda sodir bo‘ladi. Shaxs o‘zini o‘zgalar bilan taqqoslash jarayoni turli bosqichda amalga oshirilishiga qarab shaxsda hasad va havas darajasi ham sodir bo‘ladi. Ikkinchidan, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida qadriyatlar tizimidagi qayta tuzilish bosqichidagi o‘zgarishlar ham shaxsda hasadning ortishiga olib keladi.

Hasad odamzodga xos umuminsoniy kategoriya, faqat uni kimdir oshkora tan oladi, kimdir uni yashirishga harakat qiladi. Qadimda hasadgo‘ylik o‘lim jazosi tayinlanadigan yettita gunohning biri sifatida belgilangan. Diniy manbalarda, jumladan Qur’on va hadislarda, Sharq va G‘arb mutafakkirlari asarlarida hasad salbiy illat sifatida qoralangan, havas shaxs faoliyatini harakatga keltiruvchi kuch sifatida e’tirof etilgan. Shunday qilib, hasadni uch darajada namoyon bo‘ladigan fenomen sifatida ko‘rib chiqish mumkin: ong darajasida – o‘zining quyi holatdagi darajasini anglash, hissiy kechinma darajasida bunday holatdan darg‘azab bo‘lish va alam qilish, real xulq-atvor darajasida hasad predmetini yo‘qotish, buzishda namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hasad insoniyat paydo bo‘lgan davrlardan to hozirgi kungacha mavjud bo‘lgan illat hisoblanadi. Hasad hissini umrida bir marotaba his qilmagan inson yo‘q. Shuning uchun ham olimlar bu muammoni o‘rganishga doim qiziqish bildirgan. Biz tadqiqot yordamida hasadgo‘ylik xususiyatni milliy muhitda shakllanishini kuzatdik. Haqiqatda ham xorij olimlarining tadqiqotlarida farq qiluvchi natijalarni qabul qildik. Bizning tadqiqotimizda respondentlarimizda hasad-dushmanlik turidan hasad-ma’yuslik turi ko‘proq rivojlanganligini aniqladik. Bu mental xususiyatga, tarbiyaga bog‘liq degan xulosaga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ильин, Е. (2014) Психология зависти, враждебности и тщеславия. – СПб.: Питер.

2. Hamman, J. (2015) The Memory of Feeling: Envy and Happiness *// Pastoral Psychology.* № 64. - P. 437–452.

3. Salovey, P., Rodin, J. (1989) Envy and jealousy in close relationships *Review of Person-ally and Social Psychology*. V. 10. - P. 228-246.

4. Silver, M., Sabini, J. (1986) The social construction of envy // *Journal of the Theory of Social Behavior*. N. 8, - P. 45-59.

5. Smith, R. (2008) Envy: Theory and research. – New York: Oxford University Press.

6. Tai, K., Narayanan, J., McAllister, D. (2012) Envy as Pain: Rethinking the Nature of Envy and its Implications for Employees and Organizations. *// The Academy of Management Review (AMR),* - P. 114-123.

7. Ven N. van de. Zeelenberg M., Pieters, R. (2009) Leveling up and down: the experiences of benign and malicious envy Emotion. V. 9 (3).

8. Van de Ven N., Hoogland C.E., Smith R. H., Van Dijk W.W., Breugelmans S.M., Zeelenberg M. (2009) When envy leads to schadenfreude // *Cognition and Emotion.* № 29 (6). - P. 1007-1025.

9. Wise K., Alhabash S., Park H. (2010) Emotional responses during social information seeking on Facebook // Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking.

10. Jumabekov Ziyovuddin. (2024) Turli yoshdagi farzandlarda hasad hissi namoyon bo‘lishi: diniy va falsafiy qarashlar. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(11), 356–363.

REFERENCES:

1. Ilin, E. (2014) Psixologiya zavisti, vrajdebnosti i tsheslaviya. – SPb.: Piter. (In Russian)

2. Hamman, J. (2015) The Memory of Feeling: Envy and Happiness // Pastoral Psychology. № 64. - P. 437–452.

3. Salovey, P., Rodin, J. (1989) Envy and jealousy in close relationships Review of Person-ally and Social Psychology. V. 10. - R. 228-246.

4. Silver, M., Sabini, J. (1986) The social construction of envy // Journal of the Theory of Social Behavior. N. 8, - R. 45-59.

5. Smith, R. (2008) Envy: Theory and research. ¬– New York: Oxford University Press.

6. Tai, K., Narayanan, J., McAllister, D. (2012) Envy as Pain: Rethinking the Nature of Envy and its Implications for Employees and Organizations. // The Academy of Management Review (AMR), - R. 114-123.

7. Ven N. van de. Zeelenberg M., Pieters, R. (2009) Leveling up and down: the experiences of benign and malicious envy Emotion. V. 9 (3).

8. Van de Ven N., Hoogland C.E., Smith R. H., Van Dijk W.W., Breugelmans S.M., Zeelenberg M. (2009) When envy leads to schadenfreude // Cognition and Emotion. № 29 (6). - P. 1007-1025.

9. Wise K., Alhabash S., Park H. (2010) Emotional responses during social information seeking on Facebook // Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking.

10. Jumabekov Ziyovuddin. (2024) Turli yoshdagi farzandlarda hasad hissi namoyon bo‘lishi: diniy va falsafiy qarashlar. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 2(11), 356–363. (In Uzbek)

EKOTERAPIYA VA EKOPSIXOLOGIYANING INSON RUHIY SALOMATLIGIDAGI O‘RNI

THE ROLE OF ECOTHERAPY AND ECOPSYCHOLOGY IN HUMAN MENTAL HEALTH

РОЛЬ ЭКОТЕРАПИИ И ЭКОПСИХОЛОГИИ В ПСИХИЧЕСКОМ ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna
University of business and science universiteti
professori v.b., psixologiya fanlari nomzodi
Tel.: +998 97 714-06-38
e-mail: nigora_sh_n@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson ruhiy salomatligini ta’minlanishida tabiat va ekologiyaning ahamiyati, inson sog‘lom hayot tarzini shakllantirishda ekopsixologiya va ekoterapiyaning o‘rni xususidagi ilmiy to‘xtamlar va fikrlar bayon qilingan. Ekopsixologiya sohasi orqali inson ruhiyati bilan birgalikda ekologik ongini, ekologik madaniyatini ham shakllantirishdagi amaliy jihatlariga ham to‘xtalingan. So‘nggi yillardagi insonlarda kuzatiladigan turli bedavo dardlarni asosida ruhiy taranglik va tabiatdan oladigan quvvat, zavq va o‘zaro aloqadorlikni yo‘qolganligi ta’siri turganligi qayd etilmoqda. Aslida inson ham tabiatni eng faol bir bo‘lagi sifatida uni yashash tarzi, salomatligi, hayotiyligi, ijodkorligi tabiatdagi barcha ne’matlar bilan uyg‘unlashgan. Inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni buzilishi esa ichki norozilik kayfiyatini, o‘zidan qoniqmaslik va demotivatsiya holatini yuzaga keltiradi.

Kalit so‘zlar: *ekoterapiya, ekopsixologiya, inson, ruhiyat, salomatlik, ruhiy quvvat, terapiya.*

Annotation. This article describes the importance of nature and ecology in the provision of human mental health, the role of ecopsychology and ecotherapy in the formation of a healthy human lifestyle. Through the field of ecopsychology, the practical aspects of forming ecological consciousness and ecological culture together with the human psyche were also discussed. It is noted that on the basis of various unnecessary pains observed in people in recent years, there is an effect of mental tension and the loss of energy, pleasure and reciprocity from nature. In fact, man, as the most active part of nature, combines his lifestyle, health, vitality, and creativity with all the blessings of nature. Disturbance of the balance between man and nature creates a mood of internal dissatisfaction, self-satisfaction and demotivation.

Keywords: *ecotherapy, ecopsychology, human, psyche, health, mental strength, therapy.*

Аннотация. В данной статье описано значение природы и экологии в обеспечении психического здоровья человека, роль экопсихологии и экотерапии в формировании здорового образа жизни человека. В рамках экопсихологии обсуждались и практические аспекты формирования экологического сознания и экологической культуры вместе с психикой человека. Отмечается, что на почве различных ненужных болей, наблюдаемых у людей в последние годы, возникает эффект психического напряжения и потери энергии, удовольствия и взаимности со стороны природы. В действительности человек, как наиболее активная часть природы, сочетает свой образ жизни, здоровье, жизненную силу и творчество со всеми благами природы. Нарушение баланса между человеком и природой создает настроение внутренней неудовлетворенности, недовольства собой и демотивации.

Ключевые слова: *экотерапия, экопсихология, человек, психика, здоровье, душевные силы, терапия.*

KIRISH

Inson va tabiat o‘zaro uyg‘unligi, bir-birini to‘ldirishi va rivojlanishidagi aloqadorlikni uzluksiz ravishda kuzatish mumkin. Insondagi ruhiy quvvat, salomatlik, yaratuvchanlik tabiatdagi barcha ne’matlardan olinadi. Shu bois inson psixikasidagi muammolar, kasalliklar ham tabiat orqali hal etiladi. Bu muammo ilmiy izlanishlar, tahliliy o‘rganishlar va tajribaviy kuzatishlarda o‘z isbotini topgan.

Ekoterapiya "eko" (tabiat) va "terapiya" (davo) so‘zlaridan olingan bo‘lib, tabiatning mental, emotsional va biologik ta’sirini ta’minlashga qaratilgan terapevtik yondashuvni ifodalaydi. Ekoterapiyaning maqsadi insonning tabiat bilan yaxshi munosabatda bo‘lishini ta’minlash, mental va emotsional stressni kamaytirish va umumiy xotirjamlikni ta’minlash. Ekopsixologiya o‘z qamroviga - ekoterapiya va salomatlik ekologiyasini mujassamlashtirgan bo‘lib, bu - aqliy rivojlanish jarayonini, hayotning turli bosqichlarida shaxsning tuzilishi va dinamikasini, terapiya maqsadlarini, mezonlarini tushunishga oid uslubiy xarakterdagi fundamental tushunchalar, bilimlarni ifodalaydi. So‘nggi yillarda psixologik va psixoterapevtik adabiyotlarda aqliy me’yorlar, insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarining tabiati va shakllari, terapevtik munosabatlar va terapevtik muhitni yaratish masalalari faolroq muhokama qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2023-yildagi PQ-196-sonli “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, ruhiy holat buzilishlarini erta aniqlash, ularga tashxis qo‘yish, ruhiy holati buzilgan shaxslarni davolash sifatini oshirish, sohada samarali

boshqaruv tizimini joriy etish, ilm-fanni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish masalalari ustuvor vazifalar sifatida keltirilgan.

Dunyo bo‘yicha insoniyat ruhiy salomatligini saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda bu muammoni o‘rganishga qaratilgan O‘zbekistonda aholi salomatligi xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha 2024−2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasini ishlab chiqilishi fikrimiz dalilidir. Bu haqda joriy yilning 18−19-sentyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan siyosiy muloqot vaqtida aytib o‘tildi. Rejani Xalqaro sog‘liqni saqlash qoidalarini bajarishga mas’ul barcha vazirlik va idoralarning koordinatorlaridan tuzilgan ishchi guruh ishlab chiqqan. Mazkur loyihaga Texnik yordam Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan, moliyaviy yordam esa AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) tomonidan amalga oshirildi. Demak, so‘nggi yillarda bu masalaga dunyo hamjamiyati doirasida e’tibor qaratilayotgani xalqaro miqyosda o‘rganilishini, amaliy yechimlarini kutayotgan muammolar sifatida ahamiyat kasb etishini anglatadi. Salomatlikni tiklash jarayonining avvalida esa uni ruhiy salomatligi, barqarorligi va uni himoyalash masalalari turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimi V.A. Yasvinning ta’kidlashicha ekopsixologiya va zamonaviy psixologiya, falsafa va antropologiyaning boshqa ba’zi yo‘nalishlari antropotsentrik ekologik ong modelini to‘ldiradigan ekotsentrik ekologik ong modelini qurish asosida inson munosabatlarini tabiiy dunyo bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradigan muqobil aqliy faoliyat tushunchalarini taklif qiladi. (Ясвин В., 2000: 86).

A. Braunning fikricha, “Ekopsixologiyaning rivojlanishi ruhiy salomatlik haqidagi g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi, bu esa insonning tabiiy muhit bilan aloqasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib chiqadi. Ruhiy salomatlik konsepsiyasini uning ekologik kontekstidan ajratilgan holda ko‘rib chiqishning davom etayotgan amaliyoti insoniyatning o‘ziga xos o‘zini o‘zi yo‘q qiladigan ko‘rligini aks ettiradi". Ontogenez jarayonida tabiat bilan munosabatlarning roli ba’zi rus va xorijiy olimlar asarlarida to‘liq ko‘rib chiqilgan (Brown A., 2014: 14).

Ushbu mualliflar tabiat kategoriyasi va subyektning tabiiy dunyo bilan munosabati tabiatga munosabatga ahamiyatsiz rol o‘ynaydigan ko‘pgina an’anaviy psixologik tushunchalardan farqli o‘laroq, shaxs tushunchalarida markaziy o‘rinlardan birini egallashi kerakligini tan oladilar. Insonning tabiiy dunyo bilan ijobiy hissiy aloqalari tabiatga bo‘lgan munosabatning qiymat-semantik va xulq-atvor komponentlari ekopsixologlar tomonidan aqliy va jismoniy salomatlikning eng muhim sharti sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ruhiy buzilishning eng keng tarqalgan ko‘rinishi stressdir. Amerikalik fiziolog Valter Kannon stressni universal omon qolish reaksiyasi deb ta’riflagan, olimning fikricha stress har doim ham inson uchun yomon va zararli emas.

Stressning uch bosqichi mavjud: mobilizatsiya, qarama-qarshilik va charchoq. Odatda, birinchi ikki bosqich odamga jiddiy muammolarni keltirib chiqarmaydi, lekin uchinchisi nafaqat psixikada, balki somatikada ham xavfli buzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Psixologiya fanlari nomzodi R. Ismailovaning ta’kidlashicha ruhiy salomatlik bu psixologik va ijtimoiy farovonlik holati bo‘lib, unda inson o‘z imkoniyatlarini anglab etadi, hayotdagi qiyinchiliklar va stresslarga samarali qarshi turadi, samarali, ongli faoliyat olib boradi va jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Insonlardagi yuzaga keladigan kasalliklarning ***ekobiopsixosotsiogenezi*** yoki shaxsning psixologik muammolari konsepsiyasiga ko‘ra, bu patogenez va salomatlikni saqlashda uchta asosiy omillar guruhini - ekologik, biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi. Bunda psixologiyaning klassik metodlaridan ijtimoiy so‘rovnomalar, suhbat metodi orqali kasalliklarning ruhiy muammolar bilan aloqadorligi aniqlanib psixoterapiya dasturlari, ijtimoiy psixologik treninglar jarayonida yechim topiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekopsixologiya insonning tabiat bilan munosabatlari tizimining eng muhim elementlaridan biri deb biladi. Bu munosabatlar, boshqa muhim munosabatlar bilan bir qatorda, insonni aqliy rivojlanishning turli bosqichlarida tavsiflaydi va uning o‘ziga xos imijiga, o‘ziga bo‘lgan munosabatiga sezilarli ta’sir qiladi.

Ekoterapiya amaliy psixologiyaning yangi usullaridan biridir. Bu usul psixologiya, ekologiya, geoekologiya va ekopsixologiya chorrahasida tug‘ilgan. Bularning barchasi inson, tabiat va ularning o‘zaro ta’siri haqidagi fanlardir. Ekoterapiyada tabiat tanani bo‘shashtiradi, ko‘proq ochiq muloqotni rag‘batlantiradi, tashvishlarni kamaytiradi, qon aylanishidan gormonal tizimga qadar tanadagi ko‘plab jarayonlarni yaxshilaydi. Bu muolajada idrokning barcha darajalari ishtirok etadi.

Ekoterapiya ma’naviy va biologik sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda tabiat bilan bog‘liqlikning pozitiv ta’sirini his qilish va qabul qilishdir. Ekoterapiyaning ta’sir qiladigan usullari tabiat bilan birgalikda uyg‘unlashish, munosabatni yaratish va tabiatning kuchini his qilish bilan bog‘liq. Bu usullar yoshlar, kattalar, yoki guruhlar bilan amaliy tajriba va suhbatlar orqali ishlanadi.

Ekoterapiyaning ba’zi aspektlari:

Tabiatda harakatlanuvchi samaradorlik: tabiatda harakatlanuvchi faoliyatlar o‘tkazish orqali jismoniy sog‘lomlashishga olib keladi (Tojiboyeva S., 2018).

Tabiatdan loyihalar yaratish: tabiat obyektlaridan, uning imkoniyatlaridan bahramand bo‘lgan holda aqliy rivojlanishni oshirish va yangi g‘oyalarga ega bo‘lish.

Tabiatda ishlash va meditatsiya: Tabiatda ishlash, toza havoning sofligi va tabiat manzaralari orasida meditatsiya va ruhiy quvvatlanish.

Tabiatning sifatli mahsulotlari bilan ishlash: oilada sog‘lom ovqatlanish va tabiat ne’matlaridan bahramand bo‘lish (Tojiboyeva S., 2018).

Tabiat bilan yashovchanlikni tarbiyalash: tabiatdagi muloqot va birgalikdagi faoliyatlar orqali yashovchanlikni tarbiyalash va motivatsion faollikni oshirish.

Atrof-muhit psixologiyasi - bu bir qancha psixologiya maktablarining yondashuvlariga asoslangan va atrof-muhitning psixologik xususiyatlarini, uning inson xatti-harakati va idrokiga ta’sirini, inson va tabiat muhitining sayyoramizning ekologik holatiga ta’sirini o‘rganadigan fan bo‘lib, unda tabiiy muhitning shaxsning ekologik ongiga ta’siri tushuntiriladi. Atrof-muhit psixologiyasi ijtimoiy fanlardan ko‘ra ko‘proq tabiiy fan hisoblanadi. Ushbu yondashuv dunyoning barqaror rivojlanish konsepsiyasini yaratishga qaratilgan.

Ekoterapiya - bu tabiat yordamida psixoterapiya yoki tabiat terapiyasi. Klassik terapiyadan farqli o‘laroq, bunday ish qoida tariqasida, ochiq havoda amalga oshiriladi: o‘rmonda, tog‘larda, dalalarda yoki ko‘llar va daryolar qirg‘og‘ida bu erda odam hayratlanarli manzara va ko‘plab tabiiy imkoniyatlar orqali ruhiy energiyani qo‘lga kiritadi. Bu tabiatga tematik sayohatlar ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin: psixolog bilan individual yoki guruhda birgalikda. Masalan, "O‘z kuchingizni izlashda" - yurishning vazifasi mazmunini topish va ichki kuchingiz tajribasi bilan bog‘lanish terapiyasi shular jumlasidandir.

Psixolog tabiatning yordami bilan mijozga har qanday qiyin hayotiy muammo yoki vazifani hal qilishda yordam berishi mumkin. Bunday holda, odam ramziy ma’noda "o‘rmondan va tabiat kuchlaridan yordam so‘rashi" mumkin - daraxtlarning shovqini va suvning chayqalishini, qushlarning qo‘shiqlarini tinglashi va shu tovushlarda o‘z savoliga javob olishi mumkin.

Bunda tasavvuf yo‘q, shunchaki tabiat bilan aloqa o‘zimiz bilan, ruhiyatimiz va ruhimizning chuqur darajalari bilan bog‘lanishimizga va natijada bizni qiziqtirgan savolga javob topishga yordam beradi.

Ekoterapiyaning imkoniyatlari haqiqatan ham juda katta. U og‘ir hayot sharoitida sog‘lom odamlarga ham, turli xil psixiatrik va tibbiy tashxislarga ega bo‘lgan odamlarga ham yordam berishi mumkin. Yevropa va Amerikada ekoterapiya oddiy psixologik markazlarda ham, ixtisoslashtirilgan tibbiyot muassasalarida ham ellik

yildan ortiq vaqt davomida faol qo‘llanilmoqda, chunki tabiat juda kuchli, u har qanday odamga yordam bera oladi.

Ekoterapiya samaradorligining siri shundaki, u tanaga o‘zining tabiiy ritmini tiklashga va miyaga hissiy stressdan xalos bo‘lishga imkon beradi; toza havoda atigi besh daqiqa va miyamiz faktlarni xotirada va o‘zini o‘zi boshqarishda yaxshiroq saqlay boshlashi ortadi. Natijada, psixo-emotsional soha tiklanadi, shaxslararo muloqot va ijobiy kayfiyat kuchayadi.

Psixologik tomondan, ekoterapiya quyidagi maktablarga asoslanadi: Yung tahlili, art terapiya, ertak terapiyasi, protsessual va transpersonal psixologiya. Bundan tashqari, ekoterapiya Gestalt va psixodramaga yaqin. Bundan tashqari, ekoterapiya ko‘pincha urf-odatlar, metaforalar va jarayonlarni zamonaviy insonga qaraganda tabiatga yaqinroq bo‘lgan mahalliy xalqlardan oladi.

Ekoterapiya usullari:

- bog‘ terapiyasi - tabiat bilan o‘zaro ta’sir qilish orqali terapiya (yovvoyi terapiya, landshaft terapiyasi, bog‘dorchilik ekoterapiyasi - o‘simliklar, yer, o‘sadigan materiallar);

- hayvonlar terapiyasi - hayvonlar bilan o‘zaro terapiya (kanistoterapiya - reabilitatsiya va itlar bilan davolash; ippoterapiya - otlar ishtirokida; delfin terapiyasi - delfinlar ishtirokida; mushuk terapiyasi - mushuklardan foydalanish; ornitoterapiya - qushlardan foydalanish); baliq va boshqa hayvonlardan foydalanish);

- tabiiy izoterapiya - tabiiy obyektlardan foydalangan holda vizual faoliyat;

- moddiy terapiya - turli xil tabiiy materiallardan foydalanish (qum, loy, somon, yog‘och va boshqalar - qayta ishlash, modellashtirish, to‘qish, qurish, tabiiy materiallardan ishlab chiqarish).

Ekoterapiya darslari seanslari quyidagi holatlarda samarali yordam beradi:

- depressiyani boshdan kechirish;
- stressni kamaytirish;
- charchoqni yengish va dam olishni o‘rganish;
- aqliy muvozanatni tiklash;
- hayotda o‘z o‘rningizni toping va uning ranglarini qaytaring;
- tabiiy muhitga murojaat qilish va tabiiy energiyani rag‘batlantirish orqali kuchli tomonlaringiz haqida ko‘proq bilib oling;
- tabiiy faoliyat va hayotingiz o‘rtasidagi munosabatni aks ettirgan holda, o‘zingizga, boshqalarga va hayotingizga munosabatingizni tushunishingizni chuqurlashtirish;
- tinch, xavfsiz va hurmatli muhitda fikr almashish orqali yangi tushuncha va ko‘nikmalarni o‘rganish;
- yangi tajriba va resurslarni kundalik hayotda mavjud bo‘lishi uchun ulang.

Ekoterapiyaga tez-tez murojaat qilib turadigan ruhiy muammolar:

- xavotirni kamaytirish;
- yolg‘izlikni kamaytirish;
- kayfiyatni yaxshilash;
- hayotiylik darajasini oshirish;
- asabiylashishga qarshi kurashda yordam berish;
- o‘ziga, boshqa odamlarga va tabiatga ishonch, ishonch va hurmatni rivojlantirish; mustaqillik va ijodkorlik; muloqot qobiliyatlarini takomillashtirish; psixologik, axloqiy va ma’naviy salomatlik.

Ekoterapiya quyidagi odamlar uchun javob beradi:

- ochiq havoda bo‘lishni yaxshi ko‘radi;
- tabiatga qiziqish;
- o‘zini yanada xotirjam, ishonchli va aniq his qilishni o‘rganishni xohlaydi;
- o‘ziga yoki boshqalarga ishonch va ishonchni rivojlantirish kerak;
- o‘zining tabiiy intuitsiyasini rivojlantirishni, qalbini va instinktlarini tinglashni xohlaydi;
- amalda o‘rganishni afzal ko‘radi;
- atrof-muhit masalalariga qiziqish.

Tabiat haqida mulohaza yuritish, tabiat, landshaft, o‘simlik va hayvonot dunyosiga intilish muhim ahamiyatga ega. Yurish paytida odam o‘zini tabiatga butunlay "ko‘mishi", kundalik muammolardan mahrum bo‘lishi va o‘z his-tuyg‘ulariga e’tiborini qaratishi, o‘rmonning go‘zalligi va kuchini ko‘rishi, qushlarning qo‘shiqlarini eshitishi, qarag‘ay ignalari yoki chirigan barglarning hididan chuqur nafas olishi, qo‘llarini tegizishi kerak. Shunda u tabiat energiyasi bilan ruhiyatini to‘ldiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, ekoterapiya amaliy psixologiyaning eng yosh va rivojlanayotgan usullaridan biridir. Bu usul psixologiya, ekologiya, geoekologiya va ekopsixologiyaning kesishgan joyida tug‘ilgan. Bularning barchasi inson, tabiat va ularning o‘zaro ta’siri haqidagi fanlardir. Shu bilan birgalikda insonlarni dard va og‘riqlardan, ruhiy azoblanish, hayotiy maqsadlarni, yashovchanlikni yo‘qotib qo‘yish, o‘z-o‘zini tinglay olmaslik kabi ruhiy-ijtimoiy muammolardan samarali xalos qiluvchi eng kuchli muolaja, davo qiluvchi vositadir. Uni qo‘llay olishda ilm, tajriba o‘z hayotini o‘zgartirish xohishini muntazam rivojlantirib borilishi, ekologik ong, tafakkurni rivojlantirish muhim sanaladi. Ruhiy salomatlikka erishish uchun ratsional fikrlang va hayotingizni psixologik tartibga solish texnologiyalarini o‘zlashtiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2023-yil PQ-196-sonli qarori.

2. Abu Ali ibn Sino. (1996) Tib qonunlari. I jildlik saylanma. / Tuzuvchilar: U. Karimov, X. Xikmatullayev. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. – 542 b.

3. Brown A. (2014) Art and ecology now. – London: Thames & Hudson.

4. Tojiboyeva S. X. (2018) Biologiya darslarida Abu Ali ibn Sinoning tabiat va inson salomatligiga oid qarashlaridan foydalanish usullari // Zamonaviy ta’lim, 12. – B. 42-47.

5. Ясвин В.А. (2000) Психология отношения к природе. – Москва: Смысл.

6. Kristina Ševčuk. (2017) Nature therapy as health improving technology in the educational process of primary school. Studia Gdańskie. Wizje i rzeczywistość, t. XIV (ISSN 1731-8440, e-ISSN 2544-1426)

7. Jordan, M. (2019). Ecotherapy: Healing with nature in mind. – New York: Grove Press.

8. Buzzell, L., & Chalquist, C. (Eds.). (2009). Ecotherapy: Healing ourselves, healing the planet. – San Francisco: Sierra Club Books.

9. Roszak, T., Gomes, M. E., & Kanner, A. D. (1995). Ecopsychology: Restoring the earth, healing the mind. – San Francisco: Sierra Club Books.

10. Myers, N. (2011). The nature principle: Reconnecting with life in a virtual age. – New York: Theseus Press.

REFERENCES:

1. “Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2023-yil PQ-196-sonli qarori. (In Uzbek)

2. Abu Ali ibn Sino. (1996) Tib qonunlari. I jildlik saylanma. / Tuzuvchilar: U. Karimov, X. Xikmatullayev. – Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. – 542 b. (In Uzbek)

3. Brown A. (2014) Art and ecology now. – London: Thames & Hudson.

4. Tojiboyeva S. X. (2018) Biologiya darslarida Abu Ali ibn Sinoning tabiat va inson salomatligiga oid qarashlaridan foydalanish usullari // Zamonaviy ta’lim, 12. – B. 42-47. (In Uzbek)

5. Yasvin V.A. (2000) Psixologiya otnosheniya k prirode. – Moskva: Smisl. (In Uzbek)

6. Kristina Ševčuk. (2017) Nature therapy as health improving technology in the educational process of primary school. Studia Gdańskie. Wizje i rzeczywistość, t. XIV (ISSN 1731-8440, e-ISSN 2544-1426)

7. Jordan, M. (2019). Ecotherapy: Healing with nature in mind. – New York: Grove Press.

8. Buzzell, L., & Chalquist, C. (Eds.). (2009). Ecotherapy: Healing ourselves, healing the planet. – San Francisco: Sierra Club Books.

9. Roszak, T., Gomes, M. E., & Kanner, A. D. (1995). Ecopsychology: Restoring the earth, healing the mind. – San Francisco: Sierra Club Books.

10. Myers, N. (2011). The nature principle: Reconnecting with life in a virtual age. – New York: Theseus Press.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARI O‘QUV-BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING LEARNING AND COGNITIVE ACTIVITIES OF FUTURE PRIMARY TEACHERS

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ УЧЕБНО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Mamadiyorov Jamol Baxodirovich
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Tel.: +998 93 005-80-99
e-mail: jamol0058099@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi. Oliy ta’lim tizimida o‘qituvchining intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi samarali ijodiy muloqotni ta’minlash zarurligi muhokama etiladi. Maqolada, o‘quv-bilish faoliyatining tushunchalari, uning pedagogik-pedagogik-psixologik xususiyatlari, shuningdek, faoliyatni rivojlantirishda samarali metodik yondashuvlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘quv-bilish faoliyati, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, intellektual rivojlanish, ijodiy muloqot, shaxsiy-refleksiv yondashuv, shaxsiy-motivatsion yondashuv, o‘qituvchilarning tayyorgarligi.*

Annotation. This scientific article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of the development of educational and cognitive activity of future primary school teachers. The need to form the intellectual and creative abilities of a teacher in the higher education system, to ensure effective creative communication between a student and a teacher is discussed. The article presents the concepts of educational and cognitive activity, its pedagogical-pedagogical-psychological characteristics, as well as effective methodological approaches to the development of activity.

Keywords: *educational and cognitive activity, pedagogical characteristics, psychological characteristics, intellectual development, creative communication, personal-reflexive approach, personal-motivational approach, teacher training.*

Аннотация. В данной научной статье анализируются педагогико-психологические особенности развития учебной деятельности будущих учителей начальной школы. Обсуждается необходимость формирования интеллектуальных и творческих способностей преподавателя в системе высшего образования, обеспечения эффективного творческого общения студента и преподавателя. В статье представлены понятия учебной деятельности, ее педагогико-педагогические особенности, а также эффективные методические подходы к развитию деятельности.

Ключевые слова: *учебно-познавательная деятельность, педагогические особенности, психологические особенности, интеллектуальное развитие, творческое общение, личностно-рефлексивный подход, личностно-мотивационный подход, подготовка педагога.*

KIRISH

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quv-bilish faoliyatini yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘qituvchi bilan o‘quvchining ijodiy muloqoti natijadorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi empirik va nazariy shart-sharoitlarning iyerarxik darajasini didaktik komponentlar bilan reproduktiv integratsiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ularning o‘quv-bilish faoliyatining rivojlantirishda pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olib o‘qituvchi bilan o‘quvchining ijodiy muloqoti natijadorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlar asosida o‘qitish jarayonlarini tashkil qilish muhim hisoblanadi.

Shu munosabat bilan «bilish faoliyati», «faoliyat», «o‘quv-bilish faoliyati» kabi tushunchalarni va ularning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ko‘rib chiqish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘rganish metodologiyasi bo‘yicha ushbu tadqiqotda turli xil pedagogik va psixologik metodlar qo‘llanilgan. Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun so‘rovnomalar o‘tkazildi. Shuningdek, nazariy tahlil usuli orqali mavjud adabiyotlar va pedagogik tajribalar o‘rganilib, o‘qituvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning o‘quv jarayoniga ta’siri baholandi. Eksperiment metodidan foydalanib, o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan innovatsion pedagogik usullar sinovdan o‘tkazildi. Natijalar statistik tahlil usullari yordamida analiz qilindi va o‘qituvchilarning ilg‘or tajribalari ko‘rib chiqildi. Bu jarayonlar orqali o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning samarali strategiyalari ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bilish faoliyat muammosi falsafaning fundamental ilmiy abstraksiyalaridan biridir. Bu inson va jamiyat haqidagi barcha fanlarning o‘rganish predmetidir. Bu insonning rivojlanishi, uning shaxs sifatida shakllanishi uchun eng muhim asosdir.

Bilish faoliyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot olish hamda undan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rganish va ularga o‘rgatish motivlarini, ya’ni intellektual faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lib, ular produktiv o‘quv-bilish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini belgilaydi. Faoliyatning samaradorligi ijobiy his-tuyg‘ularga olib keladi va shu bilan o‘quv-bilish qiziqishlarni saqlab qolish hamda mustahkamlashga yordam beradi, keyingi o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantiradi.

Reproduktiv va imitatsion faoliyat ideal va subyektiv harakatlarning ijodiy muloqoti natijadorligi davomida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni ularni olish yo‘llarini tushunishga yo‘naltirishni nazarda tutadi (Kuranova M., 2021).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual rivojlanishi o‘quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini ikki yo‘nalishini shartli ravishda faol, o‘quv ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yo‘nalganlik trayektoriyasi imkoniyatlarini shakllantirishga ajratish mumkin. O‘quv-bilish faoliyati, bir tomondan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini anglash shakli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining o‘quv faoliyatini tashkil etish va ularni o‘quvchi bilan ijodiy muloqoti natijadorligi sifatida shakllanishidagi reproduktiv integratsiyalash asosida takomillashtirilganligidir (Normurodova N., 2019).

Oliy ta’limda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish mexanizmi tajriba to‘plash, o‘z xatti-harakatlarini obyektiv baholash, o‘zini o‘zi anglash, xulq-atvor shakllarini tahlil qilish, aloqa taktikasidan mohirona foydalanish, kommunikativ vaziyatlarda, muhitda, ijtimoiy guruhlardagi rolini baholash, og‘zaki va yozma tanlovlarni tanlashga qaratilgan vositalardan iborat.

Pedagogik amaliyotda o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning o‘zaro ta’sir subyektlari munosabatlarning konseptual jihatlariga ustuvorlik berish asosida, ular orasida asosiylari o‘qitishning xilma-xil shakllari, usullari, vositalari bo‘lib, ularning kombinatsiyalarini tanlash, yuzaga kelgan vaziyatlarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchining faolligi va mustaqilligini rag‘batlantiradi.

Darsdagi ijodiy muloqoti natijadorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi empirik va nazariy shart-sharoitlari o‘z fikrini himoya qilishi; bahs va munozaralarda ishtiroki; savol berishi; javoblarni ko‘rib chiqish; natijalarni baholash; topshiriqlar bilan shug‘ullanish; o‘quv vazifalarga yechishda boshqa yo‘llarini qidirish; o‘z o‘zini tekshirish, bilim va

harakatlarni tahlil qilish; o‘quv-bilish vazifalarni natijalarni bilgan holda o‘z-o‘zini baholay olish vaziyatlar orqali beriladi.

B.S. Abdullayeva ilmiy ishlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yuqori irodaviy fazilatlari, maqsadga erishishda qat’iyatlilik, keng va qat’iy o‘quv-bilish qiziqishlari namoyon bo‘ladi. Bu faollik darajasi yuqori darajadagi tafakkurining shakllanishi orqali ta’minlanadi, bilish faoliyati avvalo ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning mustaqil ishlash shartidir deb hisoblaydi. Shuningdek, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yuqori irodaviy fazilatlari, maqsadga erishishda qat’iyatlilik, keng va qat’iy o‘quv-bilish qiziqishlarning namoyon bo‘ladi. Bu faollik darajasi u bilgan, tajribasida avvaldan ma’lum va yangi axborot, yangi hodisa o‘rtasidagi yuqori darajadagi nomuvofiqlikning qo‘zg‘alishi orqali ta’minlanadi deb ta’kidlab o‘tgan (Абдуллаева Б., 2018: 6).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatida qidiruv, analitik, refleksiv, funksional bo‘lib, ta’lim va tarbiya tushunchalari o‘zaro ta’sir subyektlari munosabatlarning konseptual jihatlariga ustuvor hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, har bir faoliyatni rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlari ta’siri ostida didaktik komponentlar funksional yo‘nalishini o‘zgartiradi, ya’ni umumiy tuzilishda, shuning uchun faoliyatni o‘rganishda asosiy masalalardan biri uning didaktik komponentlarining o‘zaro va xususiyatlarga bog‘liq. O‘quv-bilish faoliyatining tartib jihatdan tubdan farq qiladigan xususiyati shundaki, u yangi g‘oyalarga olib keladi, turli funksional yo‘nalishlarga ega.

Shuningdek, o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishni operatsiyalari ko‘nikmalarida bilishga qiziqishni rivojlantirish uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi shaxsining shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion harakati o‘quv-bilish faoliyatiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

O. Dirivyankina o‘quv-bilish faoliyatni rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri faqat unga xos bo‘lgan maqsadli intellektual faoliyat bo‘lib, uning yordamida atrofdagi voqelik obyektlari bilan faol aloqada bo‘ladi. Ular o‘z harakatlarini shakllangan sabab va maqsadlar ta’siri ostida rejalashtiradilar, qaror qabul qiladilar va rejalarni intellektual faoliyat qoida va me’yorlarga rioya qilgan holda real harakatlarga aylantiradilar deb ta’kidlaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini ta’minlashda muhim bosqichlar ularning umumiy va bilish faoliyati bilan birga, pedagogik ko‘nikmalar bilan qurollantirish metodlari, ijodkorona uyushtirilgan mashg‘ulotlarda nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘unligi, ularda o‘quv-bilish faoliyatini yaratuvchi mezonlar aniqlashtirishga imkon beradi (Диривянкина О., 2016).

Buning uchun ushbu o‘quv-bilish faoliyati komponentlari pedagogning shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yo‘nalganlik trayektoriyasini ta’lim maqsadlarining vektorli funksiyalariga integrativ muvofiqlashtirish asosida matematikani o‘qitishda evristik yondashuv yordamida ijodiy muloqotni muvaffaqiyatli shakllanishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar asosiy malakalarni - mustaqil faoliyat va shaxsiy javobgarlik bilimlari, ko‘nikmalari va tajribalarining universal yaxlit tizimi rivojlantiradi.

Yuqorida adabiyotlar tahliliga ko‘ra bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual rivojlanishi o‘quv-bilish faoliyat sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘quvchilarni axborot almashinish faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1-bosqich tayyorgarlik bosqichi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati ehtiyojlarini oshirishga, boshlang‘ich taranglikni yengishga qaratilgan protsessual faoliyat.

2-bosqich: g‘oyaning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar uchun o‘zini o‘zi anglashning axborot qidiruv xarakterini egallashi bilan tavsiflanadi.

3-bosqich dars va darsdan tashqari ishlar doirasida axborotlarni tahlil qila olish, diagnostika texnikasini tahlil qilish, o‘z o‘zini nazorat qilish va tarbiyalash ishlarini davom etish (Maxmudova D., 2018: 6).

Shunday qilib, o‘quv-bilish faoliyatini zamonaviy tushunish tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular ko‘p aspektli o‘rganish, modellashtirish obyekti bo‘lib, ta’lim-tarbiya tushunchasining zamonaviy faoliyati ustuvor hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, har bir faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari ta’siri ostida ayrim tarkibiy qismlar funksional yo‘nalishini biroz o‘zgartiradi. Shuning uchun faoliyatni o‘rganishda asosiy masalalardan biri uning tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi va xususiyatlaridir.

XULOSA

Ushbu ilmiy maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Maqolada, o‘quv-bilish faoliyatining samarali tashkil etilishida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijodiy muloqotning ahamiyati va uni ta’minlashda metodik yondashuvlarning o‘rni alohida ta’kidlandi. Shuningdek, shaxsiy-refleksiv va shaxsiy-motivatsion yondashuvlar orqali o‘qituvchilarning intellektual rivojlanishini rag‘batlantirish, mustaqil fikrlash va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishning zaruriyati ko‘rsatildi.

Maqolada ta’kidlanganidek, o‘quv-bilish faoliyatining rivojlanishida pedagogik tayyorgarlik, o‘zini-o‘zi anglash va o‘z faoliyatini tahlil qilish kabi psixologik ko‘nikmalar katta rol o‘ynaydi. Bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun

o‘qituvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ta’lim jarayonida samarali kommunikatsiya va motivatsiyani oshirish zarur.

O‘qituvchilarning yuqori malakali pedagogik tayyorgarligi va intellektual rivojlanishini ta’minlash, o‘quvchilar bilan ijodiy va samarali o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan ilmiy va amaliy tavsiyalar maqolaning asosiy xulosasini tashkil etadi. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatining sifatini yaxshilash va zamonaviy ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kuranova M.M. (2021) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi.

2. Normurodova N.A. (2019) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining savod o‘rgatishga kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish.

3. Абдуллаева Б.С. (2018) Формирование информационной компетентности школьника. Formation of information competence of students // Eastern European Scientific Journal. AURIS Communications - und Verlagsgesellschaft mbH Dusseldorf. Germany: Ausgabe 3. – P. 183-187.

4. Maxmudova D.M. (2018) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda mustaqil o‘quv-bilish faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Dis. ... ped. fan. falsafa dokt. – Toshkent. – 154 b.

5. Дириванкина О.В. (2016) Психологические характеристики и педагогические условия реализации эвристически организованной учебно-познавательной деятельности // Современные проблемы науки и образования. – № 5.

6. Abdullayeva B.S. (2002) Akademik lisey bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida). Dis....ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU. – 146 b.

7. Виноградова, И. В. (2020). Психология образования: теории и практики. – Москва: Просвещение.

8. Гусев, А. П. (2019). Педагогика: от теории к практике. – Санкт-Петербург: РЖД.

9. Dewey, J. (1938). Experience and education. – New York: Kappa Delta Pi.

10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

REFERENCES:

1. Kuranova M.M. (2021) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. (In Uzbek)

2. Normurodova N.A. (2019) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining savod o‘rgatishga kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirish. (In Uzbek)

3. Abdullaeva B.S. (2018) Formirovanie informasionnoy kompetentnosti shkolnika. Formation of information competence of students // Eastern European Scientific Journal. AURIS Communications - und Verlagsgesellschaft mbH Dusseldorf. Germany: Ausgabe 3. – P. 183-187. (In Russian)

4. Maxmudova D.M. (2018) Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarda mustaqil o‘quv-bilish faoliyatni rivojlantirish jarayonlarida muammoli masalalardan foydalanish. Dis. ... ped. fan. falsafa dokt. – Toshkent. – 154 b. (In Uzbek)

5. Dirivyankina O.V. (2016) Psixologicheskie xarakteristiki i pedagogicheskie usloviya realizasii evristicheski organizovannoy uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti // Sovremennie problemi nauki i obrazovaniya. – № 5. (In Russian)

6. Abdullayeva B.S. (2002) Akademik lisey bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida). Dis....ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU. – 146 b. (In Uzbek)

7. Vinogradova, I. V. (2020). Psixologiya obrazovaniya: teorii i praktiki. – Moskva: Prosveshenie. (In Russian)

8. Gusev, A. P. (2019). Pedagogika: ot teorii k praktike. – Sankt-Peterburg: RJD. (In Russian)

9. Dewey, J. (1938). Experience and education. – New York: Kappa Delta Pi.

10. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press.

INTELLEKT VA KREATIVLIKNING O‘ZARO ALOQASI

THE RELATIONSHIP BETWEEN INTELLECT AND CREATIVITY

ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНТЕЛЛЕКТОМ И ТВОРЧЕСТВОМ

Nishanova Zamira Taskarayevna
TDPU professori, psixologiya fanlari doktori
Tel.: +998 90 997-33-61
E-mail: nishanovaz23x@gmail.com

Nishanbekov Talg‘at O‘rinboy o‘g‘li
TDPU mustaqil tadqiqotchisi
Tel.: +998 33 022-22-20
E-mail: nshonbekovt@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqa va farqlarni tahlil etadi. Avvalambor, intellekt va kreativlikning bir-biriga bog‘liq emasligini ta’kidlaydigan tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada konvergent tafakkur intellektning asosini tashkil etishi, divergent tafakkur esa kreativlikning poydevorini belgilashi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, kreativlikning asosiy komponentlari va intellekt turlari, ularning yanada chuqurroq o‘rganilishi taqdim etiladi. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun bir qator tavsiyalar berilib, bu jarayonda ta’lim muhitining va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati ta’kidlangan. Ushbu nazariyalar va tavsiyalar kreativ tafakkurni rag‘batlantirish va qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *intellekt, kreativlik, aql, emotsional intellekt, umumiy intellekt, komponent.*

Annotation. This article analyzes the connection and differences between intelligence and creativity. First, studies that show that intelligence and creativity are not related are reviewed. The article provides important information about how convergent thinking is the foundation of intelligence, and divergent thinking is the foundation of creativity. Also, the main components of creativity and types of intelligence, their deeper study are presented. A number of recommendations are given for the development of creativity in students, and the importance of the educational environment and pedagogical approaches in this process is emphasized. These theories and recommendations serve to stimulate creative thinking and develop skills.

Keywords: *intelligence, creativity, mind, emotional intelligence, general intelligence, component.*

Аннотация. В данной статье анализируются связь и различия интеллекта и креативности. Во-первых, рассматриваются исследования, которые показывают,

что интеллект и креативность не связаны между собой. В статье представлена важная информация о том, что конвергентное мышление является основой интеллекта, а дивергентное мышление — основой творчества. Также представлены основные составляющие креативности и виды интеллекта, их более глубокое изучение. Дан ряд рекомендаций по развитию творческих способностей учащихся, подчеркнута важность образовательной среды и педагогических подходов в этом процессе. Эти теории и рекомендации служат стимулированию творческого мышления и развитию навыков.

KIRISH

Psixologiyada intellekt va kreativlikning aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjud. D. Veksler, G. Ayzenk, L. Termen, R. Stenberg va boshqalar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb bilishadi. Intellekt kreativlikning yuqori bosqichidir. Bu degani nafaqat ular birlikda, balki ijodkorlik intellektning hosilasidir. Yuqori darajadagi inttellekt - yuqori darajadagi qobiliyatning asosi hisoblanadi. Quyi intellekt - quyi darajadagi intellektni yuzaga keltiradi. Gans Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o‘ziga xos ko‘rinishi deb hisoblagan (Айзенк Г., 2009). Kreativlik intellektning yuqori bo‘lishi bilan belgilangan.

Intellekt bu inson va hayvonlarning yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V. Shterni, J. Piaje, D. Veksler va boshqalar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o‘z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o‘quvchilarini “longitude” metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida, dastlab ularni IQ (intellekt koeffitsiyenti) aniqlab olindi. O‘quvchilarni IQ koeffitsiyentiga qarab guruhlarga ajratildi va 30, 40, 50, 60 yil oralig‘ida kuzatishgan. Yillar davomida intellekt koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatishgan. IQ koeffitsiyenti pastroq bo‘lgan sinaluvchilar ulardan farqli o‘laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan.

Lekin intellekt va kreativlikning bir-biriga bog‘liq emasligini boshqa tadqiqotlarda tadqiq etilgan. Kreativlik - bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o‘zgartirishidir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya’ni uni atrof-olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaragan nazariyalar ham mavjud. Ba’zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg‘izlanish deya ta’rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo‘lgan, moslasha olmagan inson o‘zidagi yolg‘izlikni yengib o‘tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. A. Adlerning fikricha, insondagi kreativlik o‘zida mavjud bo‘lgan noto‘liqlik kompleksini to‘ldirish vositasi deb bilgan (Адлер А., 2017). Empirik tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, ijodkor qobiliyatli bolalar

shaxsiy va emotsional sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bunday bolalarning maktabda erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past chiqqanini kuzatishimiz mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo‘ygan olimlardan yana biri J. Gilford bo‘lib, u o‘z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida quradi. Ya’ni konvergent va divergent tafakkur. Konvergent tafakkur masalani yechishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur - masalani yechishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turidir. Divergent tafakkur - kreativlik asosida quriladi.

Demak, intellekt va kreativlik umumiy ko‘rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo‘lib, ularni ma’lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog‘lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma’lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Intellekt esa o‘sha ma’lumotni real amaliyotda qo‘llashga va atrof muhitga moslashishga javob beradi.

Uchinchi nuqtai nazar egalari intellekt va kreativlik o‘zaro uzviy bog‘langan ikki xil omil deb qarashadi. Shaxsni orientirlashtirgan bu psixologiya vakillari A. Maslou va boshqalar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba’zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi (Маслоу А., 2019). Lekin bu faollikning namoyon bo‘lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo‘lishi kerak. Ularning fikricha, quyi intellektga ega bo‘lgan kishi hech qanday kreativlikka ega bo‘lmaydi. O‘rta intellekt sohiblari o‘rtacha kreativlik, IQ koeffitsiyenti 120 dan ortiq bo‘lgan kishilar a’lo darajadagi kreativlikka ega bo‘lishishadi.

Evolyutsiya nuqtai nazaridan intellekt va kreativlikning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib ko‘raylik.

Intellektni go‘yo qolipga solingan, buyuk kashfiyotlarni yaratmaydigan moslashuvchi qobiliyat sifatida ko‘ramiz. Intellektga faqat qaytarish xosdir. psixologlarning fikricha bu g‘oya noto‘g‘ridir. Sababi evolyutsion rivojlanish nazariyasida insoniyatning antropogenez rivojlanishning asosiy omili intellektning rivojlanishidadir, deb ta’kidlangan. Olovni o‘zlashtirish va qurollar yasash bunga misol bo‘la oladi.

Intellektni kreativlikdan yiroq qilish, shaxsdagi yaratuvchanlik, originallik kabi sifatlarni kreativlikka moslab qo‘ymoqda. Kim birinchi bo‘lib buyuk kashfiyotni, o‘q-yoylarni yaratgan, kim olovni o‘zlashtirish mumkinligini o‘ylab ko‘rgan? Intellektmi? yoki Kreativlikmi? Agar kreativlik bo‘lsa, unda intellekt qayerga ketdi. Demak,

bunday mulohazalar intellektni insoniyatning texnik va ilmiy muvaffaqiyatlarini yaratishdagi o‘rnini pasaytirmoqda.

Ma’lumki, ba’zi insonlar aniq fanlar yuzasidan, ba’zi insonlar gumanitar fanlar yuzasidan qobiliyatga ega bo‘lishadi. Yana yuqori darajadagi talantga ega bo‘lgan rassomning oddiy matematik misollar oldida esankirab qolishini va ajoyib matematikni ozroq badiiy qobiliyatga ega bo‘lishini kuzatganmiz. Bunday insonlarni aqlli deb aytishimiz mumkinmi?

Spirmenning fikricha, insonlarda umumiy intellekt mavjud. Uning fikricha insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi o‘ziga xos qobiliyatlari bor. Spirmen faktorli analiz, statistik metodlarni ishlab chiqdi[1]. U bog‘liq elementlarning muvaqqat bog‘lanishlarini tushuntirib bergan. Spirmenning fikricha malakaning umumiy yig‘indisi, bizning aqliy xulq-atvorimizga bog‘liqdir deb tushuntirgan. Shu kungacha Spirmenning umumiy intellekt nazariyasi, ya’ni intellektni bir taraflama baholash nazariyasi ko‘plab noroziliklarga sabab bo‘lgan. Spirmendan farqli o‘laroq Terstoun aqliy qobiliyatlarning 56 xil testlar, 7 ta klaster orqali baholashni joriy etdi[2]. Terstoun insonlarni yagona shkala orqali baholamadi. U agar shaxs 7ta klasterdagi barcha masalani muvaffaqiyatli yechsa, u qolgan barcha sohalarda ham xuddi shunday muvaffaqiyatga erishadi deb bilgan. Ular aqliy qobiliyatni jismoniy qobiliyat bilan taqqoslashgan. Uning fikricha, shtanga ko‘tarish bo‘yicha jahon chempioni yaxshigina figuristik sport turi bilan ham shug‘ullanishi mumkin. Chunki undagi jismoniy tayyorgarlik shunga imkon beradi.

Satosi Kanadzava (2004) umumiy intellektni intellektning bir turi sifatida ko‘radi. Umumiy intellekt bizga kundalik hayotda mavjud muammolarni hal qilishda yordam beradi (Kanazawa, S., 2004).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1980-yillarga kelib Spirmenning yagona intellekt nazariyasini va Terstounning akedemik qobiliyatlar nazariyalarini taqqoslash jarayoni kuzatilgan. Ularning fikricha, shaxs biror kognitiv sohada muvaffaqiyatga erishayotgan bo‘lsa, demak u boshqa sohalarda ham xuddi shunday zafarlarga erishadi. Hayotga moslashishning asosiy omili shaxsdagi umumiy intellekt emas, balki vaqt o‘tib, qobiliyatlar bir-biriga ta’sir eta boshlaydi. H. Gardner intellektni bir necha qobiliyatlar yig‘indisi deb qaragan. U o‘z tadqiqotlarini past qobiliyatli odamlarda o‘tkazgan. Miyaning shikastlanishi bir qobiliyatni so‘ndirishi mumkin, lekin qolgan qobiliyatlarni qoldirishi mumkin deb hisoblagan.

[1] https://vikent.ru/enc/2109/
[2] https://studwood.net/2149474/psihologiya/model_intellekta_terstouna

Gardner o‘z tadqiqotini bosh miyasi ba’zi qismlari fiziologik jihatdan shikastlangan sinaluvchilarda o‘tkazgan. Ular ko‘pincha intellekt testlaridan quyi ballarni egallashgan. Bu sindrom vakillarining ba’zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo‘shib ayirishni xuddi elektron hisoblagichday tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo‘lishgan. Ba’zilari, biror tarixiy kun bilan bog‘liq sanalarni yoddan bilishgan. Bunday sindrom egalari hattoki badiiy ijodda ham muvaffaqiyatlarga erisha olishgan. Yuqoridagi faktlardan foydalanib, Gardner shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikrga kelgan. Umuman olganda shaxsda 8 xil ko‘rinishdagi qobiliyat borligini aytib o‘tadi. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erishsa, demak u qolgan sohalarda ham yaxshi natijalarga erishadi deb aytib o‘tgan[3].

R. Stenbegr, R. Vagner Gardnerning g‘oyasiga qo‘shilishgan. Lekin shaxsda aqlni 3 xil faktori mavjudligini tahlil qilishgan. Masalani yechishda akademik malakaning mavjudligi aqliy testlardagi yagona to‘g‘ri javobni belgilash bilan baholanadi.

Amaliy intellekt kundalik hayotda atrof muhitga moslashish uchun muammolarning ko‘plab yechimidan qulayini tanlashga yordam beradi.

Ijodiy aql. Bu tip vakillari notanish vaziyatlarda o‘zining reaksiyasini ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Stenberg va Gardnerlarning fikricha bir necha qobiliyat shaxsni omadli bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Intellektual testlar shaxsdan konvergent tafakkurni talab qiladi. Kreativ testlar esa divergent tafakkurni talab etadi. Kreativlik - bu bir vaqtning o‘zida yangi va qadrli g‘oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir (Стенберг Р., 2015).

Sternberg va uning kasbdoshlari kreativlikning 5 komponentini ishlab chiqishgan.

1. Shaxsdagi bilimning ko‘p qirraligi. Qo‘lga kiritgan bilimlarimiz g‘oyalarimizning ko‘p bo‘lishining asosi hisoblandi. Dunyoviy bilimlarimiz qanchalik ko‘p bo‘lsa, psixikamizdagi bloklar ham shunchalik ko‘p bo‘ladi. Hayotda muammolarni hal qilishda bilimlarimiz qanchalik ko‘p bo‘lsa, uni hal qilish shunchalik oson bo‘ladi.

2. Tasavvuriy tafakkur narsa va hodisalarini yangidan ko‘rishga, ularni qayta yaratishga va bog‘lashga imkon beradi. Muammoning asosiy elementini tasavvur qilib uni o‘zlashtiramiz va uni yangi bosqichga olib o‘tamiz.

3. Tavakkalchilik - yangi taassurotlarni qidirish. Buni ikki ma’noda ko‘rish mumkin. Ya’ni birinchisi tavakkal va muammoni yengib o‘tishdagi qat’iylikda deb ko‘rish mumkin. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan shaxslar orqaga qaytishdan ko‘ra, yangi tajribaga ega bo‘lishni afzal deb bilishadi.

[3] https://studfile.net/preview/2493976/page:3/

4. Ichki motivatsiya majburlikdan ko‘ra shaxsda murakkab masalani yechishda qiziqish va qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Ijodkor shaxs masalaning muddatini, uning keltiruvchi daromadini va talabgorlari haqida o‘ylamaydi. Butun e’tibori maslani yechishdagi qoniqish hissi va stimuliga qaratadi. Isaak Nyutondan “Siz bunday murakkab masalalarni qanday qilib hal qilgansiz?” - deb so‘rashganda, u shunday javob bergan “Men bu muammo haqida tun-u kun o‘ylab yurganman” deb javob bergan (Стенберг Р., 2015).

5. Ijodiy muhit shaxsdagi ijodiy g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Hamkasblar bilan ijobiy munosabat va ularni ko‘magi shaxsdagi g‘oyalarni kamol topishiga turtki bo‘ladi. Lekin shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ba’zi tadqiqotlarda ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta’siri holati ham kuzatilgan. Masalan, amerikalik talabalarga insho yozish topshirig‘i berilgan. Ular yozgan inshoni uning kursdoshlari tomonidan tekshirilishi oldindan ogohlantirilgan. Boshqa guruhga esa faqatgina insho yozishni aytishgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ogohlantirilgan guruhning insholari yomon yozilgani ma’lum bo‘lgan. Bu holatda biz ijtimoiy muhitning ijodkorlikka salbiy ta’sirini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Nensi Kantor, Djon Kilgpstrom fanga akademik intellektdan tashqari ijtimoiy intellekt tushunchasini kiritishdi. Ijtimoiy intellekt - bu ma’lum ijtimoiy vaziyatlarni tushunib yetish va uni yengib o‘tish deganidir. S. Epstayn, P. Mayerlar ham bu fikrga qo‘shilgan. Nima uchun akademik qobiliyatli shaxslar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, oilaviy baxtga erishishga, biror bir yutuqqa erishishda muvaffaqiyatsizliklarga duch keladi? S. Epstayn, P. Mayerlarnnig fikricha, ijtimoiy intellektning muhim bo‘lagin-bu emotsional intellektdir. Ya’ni, o‘z emotsiyasini qabul qilish, ifodalash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Ongli, emotsional yetuk shaxslar o‘z-o‘zini yaxshi anglagan shaxslar hisoblanishadi. Bunday odamlar yengib bo‘lmaydigan depressiya, hissiyotlarini boshqara oladigan insonlar hisoblanishadi.

Emotsional intellektni E. Torndayk, Golgpman va boshqa olimlar ham tadqiq etgan. J. Mayer, P. Solovey, D. Krauzo qobiliyat sirasiga kiruvchi emotsional intellektning 4 komponentini tadqiq etuvchi testlarni ishlab chiqishdi. Bular quyidagilar:

- Emotsiyani qabul qilish (inson yuzidan uni aniqlash);
- Emotsiyani tushunish (ularni o‘zgarishini aytib berish);
- Emotsiyani boshqarish (qaysi vaziyatda qaysi bir emotsiyadan foydalanishni bila olish);
- Emotsiyani moslashuvchan va ijodkor tafakkurda qo‘llay olish.

Agar shaxs yuqori intellekt koeffitsiyentiga ega bo‘lsa, ammo bosh miyasining biror joyidan jarohat olsa, uning emotsional intellekti pasayib ketar ekan. Nevrolog Antonio Damasio o‘z tajribasida miya saratoni mavjud Elliot ismli bemorni misol qilib

keltirgan. U o‘z bemoridagi o‘smani jarrohlik yo‘li bilan olib tashlagan. U bemor sog‘aygandan keyin u bilan bo‘lgan soatlab suhbatda uning yuzida emotsiyaning hech qanday ko‘rinishini payqashmagan. Elliotga turli xil vahshiyona va turli tabiiy ofatlar orqali insonlarda yuz bergan talafotlar aks etgan rasmlarni ko‘rsatishgan. Elliot o‘zida hech qanday his yo‘qligini bilgan va uni ifodalay olmagan. U endilikda hech nima his eta olmayotganini yaxshi bilgan. Natijada Elliot o‘z ishi va oilasini yo‘qotdi. Uning qayta turmushi ham o‘xshamagan. Elliot jamiyatda o‘z o‘rnini yo‘qotib, muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Lekin ba’zi olimlarning fikricha, emotsional intellekt – intellektdan yiroq tushuncha. Lekin shuni ham aytib o‘tish kerakki, emotsional intellekt bizdagi bor xohish va qiziqishni faollashtiradi. Muammoning ma’nosini kamroq o‘ylashga majbur qiladi. Bu jarayon kreativlik uchun muhim hisoblanadi.

Intellektning yuqori bo‘lishi miya yarim sharlariga bog‘liqmi? Bu masalani tadqiq etishganda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Bayron, Betxovenlar miyasining og‘irligi normal odamning miyasidan anchagina og‘irligini aniqlashgan. Miyasi og‘ir bo‘lgan shaxslar yuqori intellektga ega bo‘lishadi degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan. Lekin afsus ba’zi bir olim daholarning miyasi normal insonlarnikidan ancha pastligini ham aniqlashgan. Aksincha, ba’zi bir jinoyatchilar miyasining og‘irligi xuddi Bayroninkiday ekanligi aniqlangan. Baribir keyinchalik MRT asab bilan miyani tahlil qilishda intellekt bilan miyani bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Intellektning yuqori bo‘lishi nafaqat uning og‘irligiga, balki miyaning frontal va parietal manglay bo‘lagidagi aktivlik jarayoniga bog‘liqligini aniqlashgan.

Eynshteyn bilan bir kanadalikning miyasi tadqiq etilganda ularning og‘irligi o‘rtasida deyarli hech qanday farq yo‘qligini aniqlashgan. Lekin Eynshteyn miyasining quyi qismi kanadalikning miyasidan 15 foizga kattaligi namoyon bo‘lgan. Aynan miyaning quyi qismi matematik va fazoviy ma’lumotlarga javob beradi. Aksincha, Eynshteyn miyasining faollikka javob beruvchi qismlari pastroq joylashganini aniqlashgan. Shuning uchun ham Eynshteyn va boshqa fiziklarning gapirish va o‘rganishida sekinlikni ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida munosabatlar o‘zgarishi, bilim oluvchi esa ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirilishi lozim. Buni tatbiq etishning psixologik shartlari, omillari va mezonlari mavjud bo‘lib, ularga:

- ta’lim beruvchi kattalar talabani qanday bo‘lsa, shundayligicha iqtidorli, layoqatli deb tasavvur qilishga, tan olishga o‘rganmoqlari kerak;

- maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda differensial yondashuvni amalga oshirish zarur, kerak bo‘lsa, ta’lim oluvchining layoqati, qobiliyati, yo‘nalishini hisobga olgan holda bilim, ko‘nikma va malakalariga binoan talablar ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

- yangi ta’lim maskanlarida yangi o‘quv texnologiyasi joriy etilishi maqsadga muvofiq, bunda o‘quvchilarga hurmat, ularning fikri va yuksalishiga e’tibor bilan qarash zarur;

- guruh faoliyatini mazmunli tashkil etish, ya’ni munozara, dialog, o‘yin, trening metodlaridan keng va o‘rinli foydalanish o‘quvchilarga ko‘proq ijodiy fikrlarni vujudga keltirish uchun sharoitni yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Айзенк Г. (2009) Парадоксы психологии. – Москва: Эксмо.
2. Адлер А. (2017) Индивидуальная психология. – Санкт-Петербург.
3. Маслоу А. (2019) Мотивация и личность. – Москва.
4. Kanazawa, Satoshi. (2012) The Intelligence Paradox. – New Jersey: Hoboken.
5. Стенберг Р. (2015) Интеллект успеха. – Минск.
6. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1995). Defining and measuring creativity. The Journal of Creative Behavior, 29(3), 135-143.
7. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The creativity renaissance. Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, 6(4), 268-281. https://doi.org/10.1037/a0029716
8. Chan, D. W. (2010). Creativity and academic achievement: An exploratory study of the relationship between creativity, intelligence, and academic performance. International Journal of Educational Research, 49(3), 159-172. https://doi.org/10.1016/j.ijer.2010.02.002
9. Plucker, J. A., & Stock, K. (2011). Intelligence and creativity: A study of the relationship between intelligence and creativity among students. Journal of Creative Behavior, 45(4), 264-277. https://doi.org/10.1002/jocb.37
10. https://vikent.ru/enc/2109/
11. https://studwood.net/2149474/psihologiya/model_intellekta_terstouna
12. https://studfile.net/preview/2493976/page:3/

REFERENCES:

1. Ayzenk G. (2009) Paradoksi psixologii. – Moskva: Eksmo. (In Russian)
2. Adler A. (2017) Individualnaya psixologiya. – Sankt-Peterburg. (In Russian)
3. Maslou A. (2019) Motivasiya i lichnost. – Moskva. (In Russian)
4. Kanazawa, Satoshi. (2012) The Intelligence Paradox. – New Jersey: Hoboken.
5. Stenberg R. (2015) Intellekt uspexa. – Minsk. (In Russian)

6. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1995). Defining and measuring creativity. The Journal of Creative Behavior, 29(3), 135-143.

7. Runco, M. A., & Jaeger, G. J. (2012). The creativity renaissance. Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts, 6(4), 268-281. https://doi.org/10.1037/a0029716

8. Chan, D. W. (2010). Creativity and academic achievement: An exploratory study of the relationship between creativity, intelligence, and academic performance. International Journal of Educational Research, 49(3), 159-172. https://doi.org/10.1016/j.ijer.2010.02.002

9. Plucker, J. A., & Stock, K. (2011). Intelligence and creativity: A study of the relationship between intelligence and creativity among students. Journal of Creative Behavior, 45(4), 264-277. https://doi.org/10.1002/jocb.37

10. https://vikent.ru/enc/2109/

11. https://studwood.net/2149474/psihologiya/model_intellekta_terstouna

12. https://studfile.net/preview/2493976/page:3/

INSON PSIXOLOGIYASIDA DINLARNING O‘RNI

THE ROLE OF RELIGIONS IN HUMAN PSYCHOLOGY

РОЛЬ РЕЛИГИЙ В ПСИХОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА

Nishonova Dildora Komiljanovna
Oriental Universiteti dotsenti v.b., t.f.f.d. (PhD)
Tel.: +998 99 001-48-87
E-mail: dnishanova@yahoo.com

Mansurova Mohinur Dilmurod qizi
Oriental Universiteti,
Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich, 301-guruh talabasi
Tel.: +998 94 641-33-66
e-mail: mohinurmansurova9@gmail.com

Annotatsiya. Dinshunoslik fanini o‘qitishda psixologiyaning din psixologiyasi yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishga birinchi marta Shaylermaxerning "Psixologiya" (1862) asarida uchratilgan tushuncha bo‘lib, unda boshqa dinga o‘tish jarayonidagi ichki hissiyotlar va hayajonlar tahlil etilgan. Ushbu psixologiya yo‘nalishida tavba-tazarru, gunohni his qilish, diniy kitob amrlariga bo‘ysunish kabi jarayonlar o‘rganiladi. Din, ko‘pincha, ijtimoiy o‘zgarishlar va inqiroziy vaziyatlarda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lganda, diniy his-tuyg‘ular keskincha kuchayishi mumkin. Shuningdek, din psixologiyasi nisbatan kuchli emotsional holatlar bo‘lmasa ham, o‘zini namoyon qilishi mumkin. Ushbu psixologiyaning asosiy negizi katarsis - poklanish tushunchasidir. Poklanish jarayonining birinchi bosqichi ruhiy inqiroz, hayotdan qoniqmaslik va axloqiy yoki dunyoqarashga doir chuqur izlanishlarni o‘z ichiga oladi. Din psixologiyasi shaxsning ruhiy holatini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi va uning jamiyatdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *din, psixologiya, inson, ichki holat, ruhiyat, omil, ruhiy poklanish*

Annotation. The field of religious studies places significant importance on the psychology of religion in its teaching. This direction was first encountered in Shaylermaxer's work "Psychology" (1862), where the internal emotions and feelings during the process of conversion to another faith are analyzed. In this psychological discipline, processes such as repentance, the feeling of sin, and obedience to the commandments of religious texts are studied. Religion often has a significant impact during social changes and crisis situations. For example, during periods of sharp change, religious sentiments may intensify. Additionally, the psychology of religion

can manifest even in the absence of strong emotional states. The key foundation of this psychology is the concept of catharsis—purification. The first stage of the purification process encompasses psychological crises, dissatisfaction with life, and deep explorations related to moral or philosophical views. The psychology of religion plays a crucial role in understanding an individual's mental state and reveals its significance in society.

Keywords: *religion, psychology, person, internal state, psyche, factor, spiritual purification.*

Аннотация. В обучении религиоведения направление психологии, а именно психология религии, имеет важное значение. Это направление было впервые обозначено в произведении Шайлермахера "Психология" (1862), в котором анализируются внутренние ощущения и волнения, связанные с переходом к другой религии. В рамках данной психологической дисциплины изучаются процессы покаяния, осознания греха и подчинения предписаниям религиозных текстов. Религия часто оказывает значительное влияние на социальные изменения и кризисные ситуации. Например, в периоды резких перемен религиозные чувства могут значительно усиливаться. Кроме того, психология религии может проявляться и в ситуациях, когда отсутствуют сильные эмоциональные состояния. Основой этой психологии является понятие катарсиса — очищения. Первый этап процесса очищения включает в себя психический кризис, недовольство жизнью и глубокие поиски моральных или мировоззренческих оснований. Психология религии играет важную роль в изучении психического состояния личности и раскрывает её значение в обществе.

Ключевые слова: *религия, психология, человек, внутреннее состояние, психика, фактор, духовное очищение.*

KIRISH

Din bu muayyan dunyoqarash, ya’ni his-tuyg‘u va marosimlar orqali odamlar, ularning uyushmalari, xalqlar va millatlarining yaqinlashuvi, ma’naviy-axloqiy hayotdagi hamfikrlilik demakdir. Din qaysidir ma’noda “axloq yo‘lidir”. Diniy imon va e’tiqod ana shu qo‘lning to‘g‘riligi, haqligiga ishonchdan iborat ma’naviy-ruhiy holatdir. Dindor o‘z tasavvurida o‘zining toat-ibodatga oid harakatlari orqali ilohiy kuch bilan aloqa, bevosita bog‘lanish o‘rnatadi. Talabalarga dinning elementlari (unsurlari) haqida to‘liq va aniq ma’lumot berish maqsadga muvofiqdir. Din diniy ong, diniy faoliyat va diniy tashkilotlar faoliyati orqali namoyon bo‘lganligi uchun ular dinning elementlari deb ataladi. Dinning tarkibiy qismlari orasida diniy ong yetakchi o‘rin egallaydi. Diniy ong bir-biri bilan bog‘liq, bir-biriga nisbatan muayyan darajada

mustaqil bo‘lgan diniy mafkura va diniy ruhiyatdan iborat (Zaripov O., 2016). Ruhiyat – insonni ezgulikka yetaklovchi omil, u insonni shaytoniy hissiyotlardan xalos qiladi, Tangri kalomiga itoat etishga, undan yuz o‘girmaslikka da’vat qiladi. Qadimdan insonlar ruhiy olamidagi tasavvurlari orqali totemism, animism, fetishizm, shomonizm diniy e’tiqod turlari paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik Tangri tomonidan yuborilgan payg‘ambarlar orqali diniy e’tiqod shakllari ko‘payib borgan. Jumladan, dinshunoslikda qadimgi diniy tasavvurlar, milliy dinlar hamda jahon dinlari uslubida darslarni tashkil etishdan murod ham talabalarda insonlarning turmush tarzini va ularning ruhiy olamini to‘g‘ri talqin qilishni shakllantirishda din psixologiyasi orqali kirib borishdan iborat.

Din psixologiyasi diniy urf-odatlarning xilma-xil mazmuniga, shuningdek, dindor va dinsiz shaxslarga psixologik usullar va talqin asoslarini qo‘llashdan iborat. Tabiiy-ilmiy va insoniy-ilmiy yondashuvlar o‘rtasidagi klassik farqqa ko‘ra turli xil usullar va shakllarni umumlashtirish mumkin. Birinchi klaster o‘rganilayotgan obyektlar orasidagi sabab-oqibat aloqalari haqidagi farazlarni tekshirish uchun obyektiv, miqdoriy va afzalroq eksperimental protseduralarni tashkil etadi. Bundan farqli o‘laroq, insoniy-ilmiy yondashuv sifat, fenomenologik va sharhlovchi usullardan foydalangan holda inson tajribasi dunyosiga kiradi. Ushbu yondashuv tushunishga intilayotgan hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishni emas, balki mazmunli aloqalarni aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda din psixologiyasi sohasida bir nechta taniqli olim va tadqiqotchilar faoliyat olib borganlar. Ushbu olimlar dinning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi roli, diniy hissiyotlarning psixologik jihatlari, insonning ruhiy holati va diniy qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanatni o‘rganish bilan shug‘ullangan. Ular quyidagilar:

1. «Abdurauf Fitrat» - O‘zbekistonning taniqli faylasufi va olimi bo‘lib, uning asarlarida din, millat va inson ruhiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishmoqda. U diniy tushunchalarni o‘zbek milliy madaniyati orqali yoritishga harakat qilgan.

2. «Ismoil ibn Qutayba» - Sharq va Islom psixologiyasini o‘rganish uchun muhim ishlarni amalga oshirgan. U dinning psixologik jihatlarini, xususan, axloqiy va ruhiy qiyinchiliklarni o‘z ichiga olgan ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazgan.

3. «Alisher Navoiy» - Navoiy shaxsiy va ijtimoiy psixologiya masalalarini o‘rgangan. Uning asarlarida diniy hissiyotlar va inson ruhiyatining din bilan bog‘liqligi haqida g‘oyalar mavjud.

4. «Abu Ali ibn Sino» - Ushbu mashhur faylasuf, uning psixologiya va din haqidagi g‘oyalari hozirgi zamon psixologiyasi uchun ham ahamiyatlidir. Ibn Sino dinning inson psixikasiga ta’siri bo‘yicha qiziqarli fikrlar bilan tanilgan.

5. «Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf» - Zamonaviy O‘zbekistonda din psixologiyasi sohasida tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri. U diniy hissiyotlar va ularning inson ongiga ta’siri haqida qiziqarli tadqiqotlar o‘tkazgan.

Ushbu olimlar din psixologiyasi sohasida O‘zbekistonda muhim g‘oyalarni rivojlantirgan va diniy hayotning inson ruhiyatidagi o‘rnini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. O‘zbekistonning diniy va madaniy kontekstida psixologiyaga oid yangi g‘oyalar yaratish va bu sohadagi mutaxassislarning bilimini oshirishda ularning hissasi katta. Shuningdek, din psixologiyasi doirasida g‘arb olimlaridan J. Pratt, G. Hall, D. Volf, D. Mayers, U. Jeyms, Z. Freyd o‘z asarlarida din psixologiyasining nazariy jihatlari bilan bir qatorda din va psixologiyaning bolalar tarbiyasi va axloqida tutgan o‘rnini tadqiq qilganlar. Rus olimlaridan E. Arinin, V. Davidov, A. Safronov asarlarida dinning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rnini tadqiq etgan. Yurtimiz olimlaridan esa N. Boymurodov, F. Abdurahmanov, Z. Abdurahmanova, S. Kamilov o‘z tadqiqotlarida inson ruhiyatida dinning omili va din psixologiyasining ahamiyatiga to‘xtalib o‘tganlar (Nazarova M., 2021: 352). O‘zbek tadqiqotchilari din psixologiyasini o‘rganishda zamonaviy metodlardan foydalanib, dinning ijtimoiy va madaniy hayotdagi ahamiyatini, shuningdek, inson psixologiyasiga ta’sirini tahlil qilishga intilmoqdalar. Ushbu asarlar din psixologiyasini yanada rivojlantirish va o‘zbek tadqiqotchilarining ilmiy nazariyalarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilm-fan rivojlanib borgan sari, differensiatsiya jarayoni kuchayib, yangidan yangi fan sohalari vujudga kela boshlaydi. Shu bilan birga ilm-fanning rivojlanib borishi barobarida, paradoksga o‘xshash jarayon - fanlararo integratsiya ham kuchayib boradi. Masalan, ikki va undan ortiq fanlar hamkorlikda o‘rganadigan “qo‘shaloq” fanlar, ya’ni ikki fanning obyekti sifatida - sotsial psixologiya, pedagogik psixologiya, psixofiziologiya, neyropsixologiya, etnopsixologiya, muhandislik psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, sport psixologiyasi kabi yangi fan sohalari vujudga keldi. Din psixologiyasi ham shu jarayonning mahsuli hisoblanib, dinshunoslik va psixologik bilimlar zaminida vujudga kelgan bo‘lsa-da, o‘zining mustaqil maqsad va vazifalari, obyekt va predmetiga ega fan sifatida shakllanib, rivojlanib bormoqda (Kasimova Z., 2022: 35).

Din psixologiyasi metodologiyasi – bu dinshunoslik va psixologiyadagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish usullarini o‘z ichiga oluvchi bilim sohasidir. Din psixologiyasining nazariy va amaliy jihatlari bir qator metodologik yondashuvlardan foydalanishni talab qiladi. Eng asosiy metodologik usullar quyidagilar:

1. «Empirik tadqiqotlar»: Din psixologiyasi doirasida psixologik hodisalarni o‘rganish uchun so‘rovnomalar, intervyular, eksperimentlar va kuzatishlar kabi empirik metodlardan foydalaniladi. Bu usullar yordamida diniy e’tiqodlar, shaxsiy tajribalar va ruhiy holatlar haqidagi ma’lumotlar to‘planadi.

2. «Teoretik tahlil»: Din psixologiyasining o‘ziga xos nazariy asoslarini yaratish uchun, mavjud nazariyalar va psixologik konseptlarni tahlil qilish muhimdir. Bu yondashuv diniy his-tuyg‘ular, e’tiqod va rituallar kabi tushunchalarni yanada chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

3. «Fenomenologik metod»: Din psixologiyasida shaxsiy tajribalarni, his-tuyg‘ularni, va e’tiqodlarni o‘rganish uchun fenomenologik yondashuvlar qo‘llaniladi. Bu usul insonlarning diniy tajribasini qanday qabul qilishlari va unga munosabatlarini tushunishga imkon beradi.

4. «Psixoanalitik usul»: Din psixologiyasida freydizm va uning rivojlanishlari yordamida diniy his-tuyg‘ular, e’tiqod va xulq-atvorni tahlil qilish mumkin. Bu usul inson psixikasidagi ichki dasturlar va motivatsiyalarni ochishga yordam beradi.

5. «Kulturalist yondashuv»: Din psixologiyasi ko‘plab kulturalar va ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq. Shu bois, diniy masalalarni kultural kontekstda o‘rganish va taqqoslash usullari juda foydalidir.

6. «Interdisipliner yondashuv»: Din psixologiyasi iqtisodiyot, sotsiologiya, antropologiya va madaniyatshunoslik kabi boshqa sohalardan metodlarni olishi va ularning integratsiyalashuvi orqali yanada kengroq tushunchalar va natijalarga erishish mumkin.

Ushbu metodologik yondashuvlar o‘rtasida muvofiqlik va integratsiya din psixologiyasi tadqiqotlarining sifatini oshiradi va bu sohada yangi bilimlar va tushunchalar yaratish imkonini beradi. Diniy his-tuyg‘ular va e’tiqodlar psixologiyasini o‘rganish inson hayotining ko‘plab jihatlarini, shu jumladan ruhiy sog‘liq va shaxsiy rivojlanish masalalarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda yurtimizda turli millat va elat vakillari yonma-yon istiqomat qilib kelmoqda. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligida diniy bag‘rikenglik va tolerantlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yilishida albatta inson psixologiyasidagi diniy omillarni tartibga solishda din psixologiyasi yordamga keladi. Din psixologiyasida inson ruhiyati, diniy e’tiqod, hissiyotlar va amallar bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganadi. Ushbu soha, dinning individ va jamiyatdagi psixologik ta’sirlarini, shuningdek, diniy tajribalarni chuqur tahlil qilishni maqsad qiladi. Inson ruhiyati din psixologiyasi nuqtai nazaridan bir qancha asosiy jihatlar bilan ifodalanadi (Угринович Д., 2002):

1. «Diniy e’tiqodning ta’siri»: Diniy e’tiqodlar insonlarning ongiga, hissiyotlariga va harakatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Diniy e’tiqodlar shaxsning axloqiy qarashlariga, ruhiy tabiati va shaxsiy muammolarni hal qilish usullariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. «Ruhiy poklanish (katarsis)»: Din psixologiyasi katarsis tushunchasiga asoslanadi, ya’ni ruhiy tozalanish jarayoni. Bu jarayon, insonlarning ruhiy inqirozlari va qiyinchiliklaridan qutulishlarini, hayotdagi ma’noni topishlarini ta’minlaydi.

3. «Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash»: Diniy guruhlar ko‘pincha a’zolariga ruhiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi. Ushbu jamiyatlar, o‘zaro yordam va hamdardlik muhitini yaratib, insonlar orasida sog‘lom ruhiy muhitni shakllantiradi.

4. «Insonning maqsadlari»: Diniy e’tiqodlar ko‘pincha insonlarga hayotning ma’nosi va maqsadini aniqlashda yordam beradi. Diniy fikrlar, insonning o‘zini qanday darajada tushunishi va o‘z o‘rnini topishidagi muhim omildir.

5. «Stress va ruhiy muammolar»: Diniy e’tiqodlar ba’zan stress va ruhiy muammolarni yengillashtirishda yordam berishi mumkin. E’tiqod orqali insonlar qiyinchiliklarga duch kelganda imon tiklashadi va umidlarini saqlaydilar.

6. «Transsendent tajribalar»: Din ko‘pincha insonlarga transsendent tajribalarni, ya’ni o‘z ligidan yuqoriga ko‘tarilish va ruhiy holatni boshdan kechirish imkoniyatini beradi. Bu tajribalar insonning o‘z-o‘zini tadqiq qilishini, ichki tinchlikka erishishni va hayotga yangi nazardan qarashini ta’minlaydi.

Din psixologiyasi, insonlarning diniy e’tiqodlari, hissiyotlari va xulq-atvorini o‘rganadigan psixologiya sohasi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishga oid tadqiqotlar, din amaliyoti va diniy tajribalar inson psixikasi va hissiyotlaridagi chuqur o‘zgarishlarni qanday keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Din, insonning ichki hissiyotlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, tavba, yuksalish, va diniy marosimlar holatlari shaxsning ruhiy holatini o‘zgartirishi, ularni tinchlantirishi yoki aksincha, g‘ayratlantirishi mumkin. Din psixologiyasi psixikaning turli jihatlarini, xususan, motivatsiya, katarsis va ruhiy poklanish jarayonlarini tadqiq qiladi. Din psixologiyasi ishiga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar, xususan, ruhiy inqiroz, axloqiy masalalar va diniy qadriyatlarning ta’siri haqida muhim xulosalar chiqaradi. O‘zaro munosabatlar, jinslararo farqlar, oilaviy kontekstlar va ijtimoiy o‘zgarishlar ham din psixologiyasining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Natijada mazkur fan yo‘nalishi dinning kishilar ruhiy holatiga ta’sirini va insonlardagi diniy tajribalarning qanday qilib ruhiy o‘zgarishlarga olib kelishini ochib beradi. Bu soha, tashkilotlar, diniy birlashmalar va ijtimoiy xizmatlar uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki diniy masalalar individual va kolleksion hissiyotlarni shakllantiradi. O‘zbekiston kontekstida, bu tadqiqotlar milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish uchun yangi yo‘nalishlar ochadi. Din psixologiyasi nafaqat shaxsning ruhiy o‘sishi va

poklanish jarayonini o‘rganadi, balki uni ijtimoiy barqarorlik va birlashishga olib keluvchi kuch sifatida ko‘rsatadi. Din orqali insonlar o‘zlarini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va o‘zlarining ichki muammolarini hal qilish imkoniga ega bo‘lishadi.

Natijada, din psixologiyasi dinning insoniyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini va ruhiy salomatlikni saqlashda qanday katta rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Shunday qilib, ushbu soha ichki va tashqi ruhiy holatlarni yaxshilashda yangi nazariyalar va amaliyotlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Din psixologiyasi inson ruhiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Diniy e’tiqodlar va amallar shaxsning ichki hissiyotlari, qaror qabul qilish jarayonlari va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Dinning ruhiy e’tiqodni yuksaltirish, umid berish va ruhiy tinchlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashi ko‘plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Diniy tajribalar, masalan, ibodat, tavba va diniy marosimlar shaxsning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi, stressni kamaytiradi va kerakli qiymatlarni shakllantiradi. Biroq, din psixologiyasining murakkabligi va shaxslararo farqlarni inobatga olish zarur, chunki turli dinlar va e’tiqodlar turlicha ruhiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Yakunda quyidagi takliflar maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. «Tadqiqotlarni kengaytirish»: Din psixologiyasi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar raqobatbardosh bo‘lishi uchun, rus tili, ingliz tili va boshqa tillarda mavjud bo‘lgan ilmiy ishlanmalarni o‘rganish va ularni o‘zbek kontekstida tatbiq etish zarur.

2. «Interdisiplinar yondashuv»: Din psixologiyasi, sotsiologiya va antropologiya kabi sohalar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni kuchaytirish, bu esa turli xil muammolarni, jumladan, diniy intoleransiya va konformizmni o‘rganishda yanada samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

3. «Amaliy dasturlarni yaratish»: Shaxsiy ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun diniy tashkilotlar va psixologlar bilan hamkorlikda amaliy dasturlarni ishlab chiqish, bu orqali insonlarni diniy e’tiqodlaridan foydalangan holda ruhiy ko‘mak berishga undash.

4. «Trening va seminarlar»: Din psixologiyasining asosiy tushunchalarini omma orasida kengaytirish uchun treninglar va seminarlar o‘tkazish, bu nafaqat shaxslar, balki butun jamiyatni ruhiy rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. «O‘zaro tadqiqotlar»: Turli dinlar va e’tiqodlar o‘rtasida o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish, bu turli guruhlar o‘rtasida tushunishni va bag‘rikenglikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu takliflar, din psixologiyasining inson ruhiyatiga ta’sirini yanada chuqurroq tushunishga va uni yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D. (2017) Dinshunoslik. Qomusiy lug‘at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti. – 480 b.

2. Kasimova Zebo Xamidovna. (2022) Din psixologiyasi bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda fanlararo integratsiyaning ahamiyati // Scientific-Theoretical and Practical Issues of Psychology of Religion in Uzbekistan. – Toshkent.

3. Абдуғаниева, Д. (2021). Копинг-стратегияларни амалга оширишда дин омилининг намоён бўлиш хусусиятлари. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 2), 150-156.

4. Raxmonov N. (2004) Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent.

5. Wulff, D. (2010). Psychology of Religion. In D. A. Leeming, K. Madden, & S. Marian (Eds.), *Encyclopedia of Psychology and Religion* (pp. 732–735). New York; London: Springer.

6. Smith, W. C. (1963). *The Meaning and End of Religion: A New Approach to the Religious Traditions of Mankind.* New York: Macmillan.

7. Allport, G. W., & Ross, J. M. (1967). Personal religious orientation and prejudice. Journal of Personality and Social Psychology, 5(4), 432–443. https://doi.org/10.1037/h0021212

8. Hamer, D. (2004). The God gene: How faith is hardwired into our genes. New York: Doubleday.

9. Koenig, H. G., McCullough, M. E., & Larson, D. B. (2001). Handbook of religion and health. New York: Oxford University Press.

10. Paloutzian, R. F., & Park, C. L. (2005). Handbook of the psychology of religion and spirituality. New York: Guilford Press.

11. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/01/NamDU-ARM-12568-Dinshunoslik.pdf

REFERENCES:

1. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D. (2017) Dinshunoslik. Qomusiy lug‘at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti. – 480 b. (In Uzbek)

2. Kasimova Zebo Xamidovna. (2022) Din psixologiyasi bo‘yicha mutaxassis kadrlarni tayyorlashda fanlararo integratsiyaning ahamiyati // Scientific-Theoretical and Practical Issues of Psychology of Religion in Uzbekistan. – Toshkent. (In Uzbek)

3. Abdug‘anieva, D. (2021). Koping-strategiyalarni amalga oshirishda din omilining namoyon bo‘lish xususiyatlari. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 2), 150-156. (In Uzbek)

4. Raxmonov N. (2004) Ruhiyatdagi nur murodi. – Toshkent. (In Uzbek)

5. Wulff, D. (2010). Psychology of Religion. In D. A. Leeming, K. Madden, & S. Marian (Eds.), Encyclopedia of Psychology and Religion (pp. 732–735). New York; London: Springer.

6. Smith, W. C. (1963). The Meaning and End of Religion: A New Approach to the Religious Traditions of Mankind. New York: Macmillan.

7. Allport, G. W., & Ross, J. M. (1967). Personal religious orientation and prejudice. Journal of Personality and Social Psychology, 5(4), 432–443. https://doi.org/10.1037/h0021212

8. Hamer, D. (2004). The God gene: How faith is hardwired into our genes. New York: Doubleday.

9. Koenig, H. G., McCullough, M. E., & Larson, D. B. (2001). Handbook of religion and health. New York: Oxford University Press.

10. Paloutzian, R. F., & Park, C. L. (2005). Handbook of the psychology of religion and spirituality. New York: Guilford Press.

11. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/01/NamDU-ARM-12568-Dinshunoslik.pdf

TALABA-YOSHLAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING THE CREATIVE ABILITY OF YOUTH STUDENTS

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЁЖИ

Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna
Oriental universiteti
Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi katta o'qituvchisi
Tel.: +998 90 968-68-78
e-mail: mirsagatov.92@mail.ru

Erkinxo'jayeva Mohinaxon Baxtiyor qizi
Oriental universiteti talabasi
Tel.: +998 99 834-16-08
e-mail: Hanimefendim27@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola talaba-yoshlarni ijodkor, faol va zamonaviy mutaxassislar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. U, birinchi navbatda, talabalarda kasbiy ko'nikmalar va malakalar tizimini shakllantirishga e'tibor beradi. Maqolada ijodiy fikrlashning ahamiyati, talabalarning ma'naviy e'tiqodlarini, dunyoqarashlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik uslublari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashlari, innovatsion g'oyalar ishlab chiqishlari va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlarida muhim metodik tavsiyalar keltirilgan. Tomoshabinlarning ijodiy fikr yuritish qobiliyatini oshirish, ularni faol ishtirokchiga aylantirish va har bir talabaning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam berish maqsadida ijtimoiy, madaniy va ilmiy fundamental asoslar o'rganilgan. Maqola talaba-yoshlar tarbiyasida pedagogik yondashuvlarning yangi usullarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Barkamol shaxs, ijod, ta'lim, tarbiya, qobiliyat, maqsad, talaba, pedagog, yaratish.*

Annotation. This article is focused on educating students as creative, active, and modern specialists. Primarily, it emphasizes the development of a system of professional skills and competencies among students. The article analyzes the importance of creative thinking and explores pedagogical methods for enhancing students' spiritual beliefs, worldview, and creative abilities. Additionally, it provides essential methodological recommendations aimed at fostering independent thinking,

generating innovative ideas, and developing problem-solving skills during the educational process. To enhance the students' creative thinking abilities, transform them into active participants, and help reveal each student's inner potential, the article examines the social, cultural, and scientific foundational aspects. Furthermore, it is dedicated to testing new methods of pedagogical approaches in the upbringing of students.

Keywords: *Perfect personality, creativity, education, upbringing, abilities, goal, student, teacher, creativity.*

Аннотация. Данная статья направлена на воспитание творческих, активных и современных специалистов среди студентов. Прежде всего, она уделяет внимание формированию системы профессиональных навыков и умений у студентов. В статье подробно анализируется важность креативного мышления, а также развитие духовных убеждений, мировоззрения и творческих способностей студентов с использованием педагогических методик. Кроме того, в ней приведены важные методические рекомендации по развитию независимого мышления студентов, генерации инновационных идей и решению проблем в образовательном процессе. В целях повышения уровня творческого мышления, вовлечения студентов в активное участие и раскрытия внутреннего потенциала каждого из них исследуются социальные, культурные и научные фундаментальные основы. Статья направлена на проверку новых подходов в педагогическом процессе воспитания студентов.

Ключевые слова: *Совершенная личность, творчество, образование, воспитание, способности, цель, ученик, учитель, креативность.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardosh va umumjahon talablariga mos qilib tayyorlash lozimligi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Demak, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunda ustozlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Jamiyatning yuksalib rivojlanishi ilmli, bilimli insonlarning ilmiy salohiyatiga bog‘liqligi hech birimizga sir emas. Shuni ta’kidlash joizki, eng avvalo, ijodkor, qobiliyatli talabalarni aniqlay olishimiz kerak. Buning uchun, har bir ilmiy xodim uchun, iqtidorli talaba uchun, qobiliyatini, mahoratini maksimum darajada namoyon etuvchi sharoitni yaratish lozim bo‘ladi.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazish ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni insonning ijtimoiy intizomi va uning ixtisosligi bo‘yicha mehnat faoliyatining ajralmas va tabiiy

belgilariga, xususiyatlariga aylantirishdan iborat bo‘lib, bo‘lajak mutaxassisning insonparvarlik sifat va fazilatlarining ustuvor bo‘lishini ta’minlashga qaratiladi. Tarbiyaviy ishlar, rejalar va boshqa barcha o‘qitiladigan fanlarni insonparvarlik xususiyatlaridan ham ta’lim-tarbiya jarayonlarida unumli va samarali foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish bilan birga, tarbiyaviy tamoyillariga, insonning ma’naviy-axloqiy, ruhiy jihatdan takomillashtirish imkoniyatlariga alohida ahamiyat va e’tibor qaratishni, ularning insonparvarlik xususiyatlarini kengroq ochib, tahlil etib ko‘rsatib berishni, talaba yoshlarni o‘qitish orqali ma’naviy-ruhiy jihatdan ham tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yadi. O‘quv dasturlarining, darslik va qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratishda, ta’limning texnik vositalaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda, ular uchun maxsus o‘quv dasturlari tayyorlashda ta’limni gumanitarlashtirishning mana shu tomonlariga, ya’ni yosh mutaxassislarning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs sifatida takomillashuvida har bir fanning ishtirokini eng yuqori darajada ta’minlashga katta e’tibor berilishi zarur (Ziyomuxammadov B., 2006).

Barkamol shaxsni tarbiyalash ta’lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkamlanishida, ularning ijtimoiy faolligining o‘sishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishida va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi (Ziyomuxammadov B., 2006).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Talaba-yoshlarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish oliy ta’lim jarayonidagi dolzarb masala sanaladi. Talaba-yoshlarni kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olishga, kasbiy va kundalik masalalarni hal qilishga tayyorlash oliy ta’lim jarayonidagi asosiy vazifalardan biridir. Talaba-yoshlarda pedagogik vaziyatlarda eng maqbul usulni tanlay olish ko‘nikmasini shakllantirish orqali uning ijodiy rivojlanishiga erishiladi. “Ijodkorlik” va “Ijodiy qobiliyat” tushunchalari o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qator olimlar izlanish olib borgan. Qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Avgustin ijodiylik tushunchasini tadqiq etgan. Shuningdek, J. Bruno, B. Spinoza, I. Kant, S. Rubinshteyn, G. Uolles va boshqalarning asarlarida ham o‘z aksini topgan. Turli davrlarning vakillari ijodkorlikni falsafiy kategoriya sifatida ifodalagan. P. Engelmeer “ijod nazariyasi”, N. Berdyaev “erkinlik falsafasi” va “yaratilish ma’nosi”, A. Libier “ijod falsafasi” va boshqalar. D. Elkoninning ta’kidlashicha, ijod o‘zaro bog‘liq qobiliyatlarning bir butun tizimi elementlarni: tasavvur, assotsiativlik, fantaziya, xayolparastlikni o‘zida mujassamlashtirgan qobiliyatdir. O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy - intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. A. Matyushkin, I. Averina, G. Chistyakovalar o‘quvchi

shaxsining ijodiy faoliyatini tashkil qilish masalalari ustida izlanish olib borib, ularning har bir rivojlanish bosqichi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda qaralishi lozimligini uqtiradilar. R. Ibragimov, O. Roziqov, V. Karimova, E. G‘oziev, G‘. Shoumarov, Z. Nishonova, B. Qodirovlar ham shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirishni uning aqliy qobiliyati, bilish faoliyati, mustaqil fikr yuritish muammolariga bog‘lab talqin etadilar. Jumladan, V. Karimova shaxsning faolligi, faoliyat turlari va ularni boshqarishda ijtimoiy-xulq motivatsiyasi ustida ilmiy izlanish olib borgan. Talaba-yoshlarning ijodiy faoliyati esa aynan uning faoliyati jarayonida: o‘z-o‘zini rivojlantirish;o‘quv faoliyatining ilg‘or texnologiyalar asosida qurilishi; o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning qaror topishi; o‘quv faoliyatining talabalar ichki motivga asoslangan holda izlanuvchanlik yo‘nalishini kasb etishi orqali o‘z ifodasini topadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ijodiy faoliyatda muammoli vaziyatlar yaratish bu muammoli vaziyatlarni yechishga talaba-yoshlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Talaba shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: 1. Talaba-yoshlar shaxsini rivojlantirish, uning qobiliyati, o‘qishga qiziqishi, xohish va istagini shakllantirishi; 2. Axloqiy va estetik hissiyotini tarbiyalash, o‘zi va o‘z atrofini o‘rab olgan olamga hissiy munosabatni shakllantirish. 3. Bilimlar tizimini, malaka va ko‘nikmalar, faoliyatning turli shakllarini egallab olish. 4. Bolalarning jismoniy va psixik salomatligini muhofaza qilish. 5. Bola shaxsining individualligini himoya qilish. Zero, ta’lim faol, ijodiy, mahsuldor, intellektual faoliyatni o‘zaro aloqadorlikda amalga oshiradi. Ijodkorlik boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi faoliyatining asosiy turi bo‘lishi zarur.

Pedagogik o‘yinlar, ayniqsa, talabalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Aynan shunday o‘yinlar yordamida kattalar va kichiklar o‘rtasida muloqot o‘rnatiladi. Bu muloqotlar, shaxsiy yondashuv asosida qurilishi kerak. O‘qituvchi talabani faqat o‘quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o‘ziga xos inson deb yondashuvi lozim. O‘yinlarda bolaning shaxsiy sifatlari boyib, o‘quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi hamda talabalarning xulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug‘iladi, psixologik to‘siqlar bartaraf etiladi. Ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashuv, dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko‘tarilgan shakli hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga yangicha yondashuv, hayotdagi turli xil hodisalarni bir qolipdan turib baholash emas, balki ularni o‘zaro aloqadorlikda kompleks holda yondashishga yo‘naltiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir barkamol shaxs, ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan pedagoglar ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkillashtirish uchun unga qo‘yiladigan talablarga amal qilishlari lozim bo‘ladi. Masalan: Haqiqatdan ham, ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligi ushbu jarayonda tarbiya tamoyillari hamda ta’lim metodlarining uyg‘unligini ta’minlash asosida kechadi (Hamidova M., 2006).

Jumladan, o‘yinli texnologiyalar, muammoli o‘qitish texnologiyalari, talabalar guruhlari yoki ayrim bir talaba uchun mo‘ljallangan differensial o‘qitishning farqli, ijodiy topshiriqlar tizimini yaratish va ulardan ta’lim jarayonlarida foydalanish, ta’limning «dumaloq stol», «matbuot anjumani», «ish o‘yinlari», referat himoyasi, bahs-munozaralar, yetakchi olimlar va mashhur kishilar bilan uchrashuv, muloqot uyushtirish kabi shakllarini keng qo‘llashdan iborat. Ta’lim jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga asos bo‘ladi. Bu esa biz intilgan barkamol avlod tarbiyasini bir jihati hisoblanadi. Talaba-yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarining ta’lim muhitini insonparvarlashtirish bilan chambarchas bog‘liqligi va aloqadorligi masalasi o‘quv jarayonining butun mazmuni va mohiyatini belgilaydigan muhim vazifadir. Ta’limda tarbiyaviy ta’sirning muhim xususiyati uning umuminsoniy madaniyatning asosiy tamoyillari va qadriyatlari bilan aloqadorligidadir.

Talaba-yoshlarning ma’naviy madaniyatini tarkib toptirish uchun barcha ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish, tarbiyaviy soatlarni o‘tkazishni ommalashtirish, darsdan tashqari o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni ko‘proq tashkil etish maqsadga muvofiqdir (Hamidova M., 2006).

Albatta, tarbiyada ustoz-o‘qituvchilarning roli beqiyosdir. Agar ustoz shaxsiy ibrat ko‘rsatsagina, tarbiyada yaxshi natijaga erishish mumkin bo‘ladi. «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan xalq naqli bekorga aytilmagan. Talaba-yoshlar 4-8 soat vaqtini ta’lim muassasasida o‘tkazsa, qolgan 20-16 soat vaqtini o‘z oilasida yoki talabalar uyida o‘tkazadi. Agar ta’lim muassasalarida rahbariyat va ota-ona, guruh murabbiylari o‘rtasidagi munosabatlar, ichki intizom nazorati, davomat, tarbiyaviy ishlar, darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, ishyoqmaslik bekorga vaqt o‘tkazishlar bo‘lmasa, bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish boshqarilsagina tarbiya yaxshi natijalar beradi va ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan barkamol shaxs tarbiyalanadi. Abdulla Avloniyning ta’kidlashicha: “Tarbiya –bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”. Bu fikrlarning ahamiyati hozirgacha e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlantirish, meros, urf-odat va qadriyatlarni fan texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishni rivojlantirish, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarning mohiyatini tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi (Salaxutdinova M., 2010).

Qadimiy boy merosimizning qimmatli manbalarini yuzaga olib chiqish, uni hozirgi zamon ilmiy-pedagogik tafakkuri iste'moliga kiritishdan maqsad ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, tarbiyasi, insoniyat tafakkuri tarixi, uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanishida tutgan o'rni va mavqeyini bilib olish hamda yangi davr sharoitida barkamol shaxsni shakllantirishda foydalanishdan iborat.

Bunda talabalarga rioya etish nazarda tutiladi:

- talabalarning milliy-ma'rifiy qadriyatlarni o'rganishda tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- ta'lim-tarbiyadagi izchillikka rioya etish;
- uning ilmiyligi va milliyligiga erishish;
- milliy-ma'rifiy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlikda o'rganishga e'tiborni qaratish;
- milliy-ma'rifiy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish va boshqalar.

Har bir o'qituvchi, talabalarga beriladigan umumiy bilimlar bilan bir qatorda san'at sirlari, muammo yechish mahorati kabilar bilan tanishtirib borishi muhimdir.

Talabalarga zehnni tarbiyalash, bilimlarni mustahkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini rivojlantirishga ham katta e'tibor berish zarur. Bu maqsadda chiston (topishmoq)larni yechish, adabiy asarni sharhlash va izohlash kabilardan foydalanish kabi usullar talabani rag'batlantiradi, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi (Salaxutdinova M., 2010).

O'tmishda muallim va mudarrislar ko'proq muhokama, munozaralar uyushtirib, mavzuni yoki ma'lum bir matnni sharhli-izohli o'rganishga e'tibor berganlar. Muhokamada, avval ma'lum bo'lgan voqea-hodisalardan hukm chiqarib, so'ngra, ma'lum voqea va hodisalarni muhokama etish nazarda tutilgan. Muhokamada talabalarga to'g'ri ma'lumotlar berilib, keyin to'g'ri voqea va hodisalarni noto'g'rilardan ajratib olish qobiliyatini tarkib toptirganlar.

IX-X asrlarda madrasalarda dars berish uchun yirik olimlarni taklif etish an'anasi bo'lgan. Bunday tajribadan foydalanish o'quvchilarning to'liq va mustahkam bilim olishlariga zamin yaratadi, har bir talabaning qobiliyati aniq namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda ham bunday usullar ba'zi yangi maktab turlari-litseylar, gimnaziyalar, kollejlarda qo'llanilmoqda. Lekin, umumiy ta'lim maktablarida o'qitishga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirishga to'g'ri keladi. Shuningdek, dasturlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirgan talabani sinfdan-sinfga, kursdan-kursga

muddatidan oldin ko‘chirish kabi tashkiliy masalalarni hal etish ham talabalarni rag‘batlantiradi.

Ma’rifiy tajribalar respublikamizda jahon taraqqiyoti darajasiga qodir bilimdon, ham aqliy, ham axloqiy jihatdan barkamol, sog‘lom insonni shakllantirish muammosini hal etishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta’lim-tarbiya tarixidan ma’lum bo‘ldiki, har bir shaxsning aqliy tarbiyasida fikr tarbiyasi, tafakkurini rivojlantirish, zehnni tarbiyalashga katta e’tibor berilgan. Zukkolik, fahm tezligi, zehn o‘tkirligi, bilimni tez egallash qobiliyati, muammolarni tez anglab olish, yodlash qobiliyatini rivojlantirishga, xotirani mustahkamlashga oid metod va usullari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Buning uchun, o‘qitishga mos uslublar ham tanlangan. Ilmiy munozara, sharhli o‘rganish, muammolarni hal etish, sinov-tajriba kabi uslublar qo‘llanilib, ta’lim uslublari har bir talabaning qobiliyatini namoyon etishga, zehnini o‘tkir qilishga, tafakkurini rivojlantirishga yordam bergan. Natijada, a’lo, yaxshi, o‘rtacha darajada o‘zlashtiruvchilar ajralib, ular bilan mashg‘ulotlar ham o‘ziga xos, individual xususiyatlarini hisobga olgan tarzda olib borilgan. Guruhlarda iqtidorli bolalarga beriladigan bilim hajmi orttirilib, ular ma’lum sinovdan o‘tgach, maktab yoki madrasani, hatto muddatidan oldin bitirish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Barkamol shaxsga xos ikkinchi mezon yuksak axloqiylik sanalgan. Axloqiylikning asosiy belgilari saxovat, muruvvat, qanoat, kamtarlik, ehson, sabr, afv, saodat, yordam, oliyjanoblik, himmatlardan iborat bo‘lib, havoyi nafsdan saqlanish, kibr va havoga berilmaslik, badgumonlik, xiyonat, bo‘hton, chaqimchilik, badfe’llik, yolg‘onchilik, josuslik, g‘iybat, zino, g‘azab, hasad kabilardan o‘zini tozalash targ‘ib etilgan.

Ma’rifiy merosimizda insonda ijtimoiy hayotda, mehnatda, turmushda go‘zallikni his etishni tarkib toptirish ham yuksak axloqiy xislat hisoblangan.

Ta’limiy-axloqiy asarlarning barchasida axloqiy xislatlarga ta’rif berilgan, uni tarkib toptirish yo‘llari, usullari ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz hozirgi davrda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish andozasi (modeli)ni ishlab chiqdik. Zero, komil inson tarbiyasi respublikamizni jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari darajasida ko‘rsatishga xizmat qiluvchi salohiyati, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat’iy qaror toptirish, nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga to‘g‘ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashini, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimondalik,

tashabbussizlik, mutelik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash, yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg‘un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo‘lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Bu vazifalar, o‘z navbatida, nafaqat iqtisodiy, siyosiy sohalarda, balki, shu bilan birgalikda, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham, xususan, uning tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimida ham chuqur islohotlar o‘tkazilishini taqozo etmoqda.

Har bir o‘quvchi, o‘qishda o‘z imkoniyatlarini aniqlash va o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan materialni o‘rganish darajalariga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini rejalashtirish tamoyilini qo‘llash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Talabalarni topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishga o‘rgatish ularni mas’uliyat bilan o‘rganishga o‘rgatish demakdir. Rejalashtirish g‘oyasi o‘qitish maqsadlari miqyosida va modulli dasturlar, modullar va o‘quv elementlarini o‘quv materiali mazmuni darajasida amalga oshiriladi. Har bir o‘quv kursi har bir o‘quv dasturida mavjud bo‘lgan, nazariy o‘quv materiali mazmunining modullari – bloklar va o‘quv malakalari va ko‘nikmalari algoritmik ko‘rsatmalari bloklaridan iborat o‘quv modullari (mavzulari)ni o‘z ichiga oladi.

Demak, talabalar ijodini, mahoratini oshirishda ularga qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratib berishimiz lozim. Kredit-modul ta’lim texnologiyasida talabalar mustaqil ta’lim jarayonida ko‘proq o‘z ustlarida ishlaydi va ijodkorligini oshirishda yanada faol ishtirokchiga aylanadi, deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi 637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020 yildagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-5953-sonli farmoni;

3. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi-mualliflar: Komiljon Hoshimov, Safo Ochil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. - 480 b.

4. Ziyomuxammadov B. (2006) Komillikka eltuvchi kitob. – Toshkent: “Turon-iqbol nashriyoti”. – B. 189-262.

5. Hamidova M. (2006) Monografiya. ToshDPU.

6. Salaxutdinova M. (2010) Ijod psixologiyasi. – Samarqand.

7. Brennan, R. T. (2014). The artist's guide to creating and publishing a children's book. Watson-Guptill Publications.

8. Gravett, P. (2013). Drawing from observation: A complete guide to drawing from life. Laurence King Publishing.

9. Lloyd, J. (2011). Graphic novel writing for dummies. John Wiley & Sons.

10. McCloud, S. (1993). Understanding comics: The invisible art. Harper Perennial.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi 637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz. (In Uzbek)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.03.2020 yildagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" gi PF-5953-sonli farmoni; (In Uzbek)

3. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi-mualliflar: Komiljon Hoshimov, Safo Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. - 480 b. (In Uzbek)

4. Ziyomuxammadov B. (2006) Komillikka eltuvchi kitob. – Toshkent: "Turon-iqbol nashriyoti". – B. 189-262. (In Uzbek)

5. Hamidova M. (2006) Monografiya. ToshDPU. (In Uzbek)

6. Salaxutdinova M. (2010) Ijod psixologiyasi. – Samarqand. (In Uzbek)

7. Brennan, R. T. (2014). The artist's guide to creating and publishing a children's book. Watson-Guptill Publications.

8. Gravett, P. (2013). Drawing from observation: A complete guide to drawing from life. Laurence King Publishing.

9. Lloyd, J. (2011). Graphic novel writing for dummies. John Wiley & Sons.

10. McCloud, S. (1993). Understanding comics: The invisible art. Harper Perennial.

BOSHLANG‘ICH ONA TILI DARSLARIDA SO‘Z BIRIKMALARI USTIDA ISHLASH

WORKING ON WORD COMPOUNDS IN PRIMARY NATIVE LANGUAGE LESSONS

РАБОТА НАД СЛОВОСЛОЖЕНИЯМИ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti v.b.
Tel.: +998 94 842-40-20
e-mail: muqaddasfarangiz91@gmail.com

Jabborova Farida Abdujabborovna
Oriental universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Tel.: +998 91 165-89-09

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ona tili darslarida imlo savodxonligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. O‘qituvchi o‘quvchilar qaysi mavzuni o‘rganmasin, nazariy bilimlarini qo‘llashga ko‘proq e’tibor qaratishi kerak. Dastur hajmida har bir sof mavzuni o‘rgatib, unga ko‘niktirib, o‘sha ishlar yordamida ishonchini shakllantirib, ongini rivojlantiramiz. Bolaga berilgan grammatik tushuncha asosan mavhum bo‘lgani uchun darsning ko‘rgazmali bo‘lishi shart hisoblanadi. Jumladan, dars maqsadiga muvofiq texnik qurollar, rasmlar, jadvallar, kartotekalardan foydalanish darsning samarali o‘tishining asosiy shartlaridan biridir.

Kalit so‘zlari: *so‘z birikmalari, imlo, sifat, fe’l, fonetik, morfologik, orfografik, boshlang‘ich sinf, ko‘nikma, leksik-grammatik, gap.*

Annotation. This article develops proposals and recommendations for improving spelling literacy in native language lessons for future primary school teachers. The teacher should pay more attention to the application of theoretical knowledge, regardless of the topic that students study. We teach each pure topic in the program, accustom them to it, and with the help of those works, we form their confidence and develop their minds. Since the grammatical concept given to the child is mainly abstract, it is necessary that the lesson be demonstrative. In particular, the use of technical tools, pictures, tables, and card files in accordance with the purpose of the lesson is one of the main conditions for the effective conduct of the lesson.

Keywords: *word combinations, spelling, adjective, verb, phonetic, morphological, orthographic, primary school, skill, lexical-grammatical, sentence.*

Аннотация. В данной статье разработаны предложения и рекомендации по повышению орфографической грамотности на уроках родного языка будущих учителей начальных классов. Преподавателю следует уделять больше внимания применению теоретических знаний по любому предмету, который изучают ученики. В рамках программы мы обучаем каждому чистому предмету, привыкаем к нему, укрепляем уверенность и развиваем сознание с помощью этих занятий. Поскольку грамматическое понятие, данное ребенку, по большей части абстрактно, то урок должен быть демонстративным. В частности, использование технических средств, рисунков, таблиц, карточек в соответствии с целью урока является одним из главных условий эффективного прохождения урока.

Ключевые слова: *словосочетания, орфография, прилагательное, глагол, фонетический, морфологический, орфографический, начальная школа, навыки, лексико-грамматический, предложение.*

KIRISH

Dunyodagi rivojlangan davlatlarning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o‘quv yurtlarida ta’limning rivojlanishida yaxshi natija berayotgan xalqaro dasturlarni mahalliy amaliyotga tatbiq qilish iqtisodiy hamkorlik HTT (Iqtisodiy sheriklik va rivojlanish tashkiloti) talablariga mos umumiy o‘rta ta’lim jarayonida til o‘qitish metodikasiga bog‘liq bo‘lgan talablar yuzasidan bo‘lajak boshlang‘ich o‘qituvchilar va o‘quvchilar savodxonligi bo‘yicha yangi innovatsion metodlarni tatbiq qilish orqali ularning muloqot (speaking) va imlo (yozuv – writing) bo‘yicha savodxonligini takomillashtirish katta ahamiyatga ega (Mirziyoyev Sh., 2017). Ona tili darslarida integrativ munosabat asosida xalqaro miqyosida savodlilikni ta’minlash bo‘yicha fundamental amaliy tadqiqotlar tizimiga ham katta mas’uliyat yuklaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

So‘nggi yillarda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ona tili o‘qitish metodikasi xususan, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, imlo savodxonligi bo‘yicha bir qancha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, respublikamizda boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha T. G‘afforova, A. Umarov, R. Joldasov, S. Jarsonov, H. Baqieva, E. Berdimuratov, N. Urumbaev, N. Bekniyazova, A. Nauruzbaeva, S. Tajbenova, A. Sultanova, M. Asqarova A. Najimovalarning ilmiy ishlarida hamda rivojlangan chet davlatlarning tilshunoslikka, til o‘qitish metodikasiga oid ilg‘or tajribalari aks etgan fan va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tayanch

va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari dolzarb muammo sifatida tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishda pedagogik kuzatuv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, savolnoma, suhbat, umumlashtirish, tajriba-sinov, matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fonetik, morfologik, stilistik, punktuatsion va husnixatga oid grammatik tushunchalar, ijodiy mashqlar yordamida imloviy savodxonlikni rivojlantirish metodikasi ona tili ta’limi jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilarning ishida, ularni boshqarishda qiyin vaziyatlar ham uchraydi. Shuning uchun o‘qituvchi har bir mavzuni o‘tish jarayonida o‘quvchiga mos vaziyatni o‘ylab topishi kerak. So‘z birikmalari ustida ishlash qiyinligini yodda tutgan holda, u savod o‘rgatish davridagi faoliyatiga to‘xtalib, boshlang‘ich sinfning birinchi sinfida ham so‘z birikmasi ustida ishlashni davom ettiradi. So‘zlarga savol qo‘yish orqali so‘z turlari bilan ishlaydi. Bu amaliy jihatdan keyingi ish jarayoni bilan bog‘liq. Ana shunday amaliy tayyorgarlikdan so‘ng, predmet nomini, shaklini, harakatini ifodalovchi so‘zlar ustida ishlash, so‘zlarni dastlabki tasniflash ustida ishlaydi. Bu so‘z birikmalari ustida ishlashning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi (Nuriyeva F., 2023).

Asosiy vazifalardan biri to‘g‘ri va savodli yozishni o‘rgatishdir. Bolalar imlo ko‘nikmalariga ega bo‘lmaguncha, to‘g‘ri yozishni o‘rgana olmaydi. Agar bolalar har bir orfogrammani ongli ravishda qabul qilib, ikkilanmasdan to‘g‘ri ishlata olsalar, bu imlo ko‘nikmasiga ega bo‘lish deyiladi. Bolalar matn yozish topshiriqlarini bor ishtiyoq bilan bajarsalar, to‘g‘ri yozishni o‘rganadilar.

Qoidaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bolalar yozma matnni qabul qilishlari va har bir orfogrammani yaxshi eslab qolishga harakat qilishlari kerak. Shuning uchun ham bolalarni to‘g‘ri yozishga o‘rgatishda o‘qituvchi birinchi navbatda ularni topshiriqni bajarishga (o‘qituvchi aytmasdan), masalan, diktant yozishga, o‘qilayotgan matnni diqqat bilan tinglashga, tushunishga yo‘naltirishi yoki yozsa ham tushunib yozishga ko‘niktirib borishi kerak (Nuriyeva F., 2023). Qoida bilan imlo ko‘nikmalarini o‘rganish uchun bolalar o‘qituvchi rahbarligida til hodisalarini, imlo qoidalarini kuzatish, tahlil qilish, ularni bir-biri bilan solishtirish, mulohaza yuritish, o‘z yozma ishlarida tasvirlashlari lozim. Shundagina ular to‘g‘ri yozishga o‘rganadilar.

Mavzuni yoritishda ushbu fan atamalarining ma’nosi tavsif beradi. Biroq, so‘z shaklidagi o‘zgarishlar, ularning paydo bo‘lish sabablari va qoidalari aytilmagan. Lekin so‘zlarning ma’nosi, grammatik shakli, grammatik shakldagi o‘zgarishlar faqat ona tili darslarida o‘rgatiladi. Masalan, so‘zni undagi harflarni qoldirmasdan yoki

almashtirmasdan to‘g‘ri talaffuz qilish yozish mahoratini shakllantirish va so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishda katta ahamiyatga ega.

Shu sababli ona tili darslarida so‘z tovush nuqtai nazaridan tahlil qilinmagani uchun so‘z tarkibidagi tovushlar soni aniqlanib, uni yozish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

1-sinfdan boshlab nutq tovushlarining ikki katta guruhini to‘g‘ri talaffuz qilish va imlo qilish mashqlari takomillashtiriladi. Bir necha darslar davomida undosh va unli tovushlarning turli jihatlari ochib beriladi:

- so‘zning tovushli jihati bilan yozma shakl o‘rtasidagi yaqinlik va moslik;
- so‘zning ma’noviy jihati bilan tovushli jihati o‘rtasidagi bog‘liqlik;
- mos so‘zlarning imlosini tekshirishni bilish zarurati.

So‘zning tovush-harf tarkibiga bunday yondashuv unli va undosh tovushlarning talaffuzi va imlosini o‘zlashtirish imkoniyati bilan birga o‘quvchilarning intellektual qobiliyatini oshiradi (Nuriyeva F., 2023).

Xususan, bolalar kuzatilgan hodisaning bir qancha belgilarini solishtirish va umumlashtirishni o‘rganadilar.

O‘quvchilar so‘zning talaffuzi va yozilishidagi farq imlo xatolariga yo‘l qo‘yishlariga sabab bo‘lganligini tushunib oladilar. Masalan, ularda imloning ilmiy tajribasini shakllantirish uchun ular quyidagilarni bilishlari kerak:

Bitta undosh harf yozuvda ikkita undosh tovushni anglatishi mumkin (masalan, maktab so‘zidagi *b* harfi *p* tovushini, maktabim so‘zidagi p harfi esa b tovushini bildiradi). Bu holatlar bo‘yicha ko‘nikma va ilmiy tajribaga ega bo‘lmasa-da, o‘quvchilarda savodli nutqni shakllantirib bo‘lmaydi.

O‘quvchilar egallagan o‘xshash bilimlar asosida talaffuz va yozilishida farq qiladigan so‘zlar:

a va *o*, *u* va *i* kabi unli so‘zlarning talaffuzi va yozilishi;

so‘z oxirida kelgan *b* va *d* undoshlarining undosh jufti eshitilsa ham *b* va *d* harfining yozilishi;

d va *t* undoshlari bilan tugagan turli so‘zlarning talaffuzda yo‘qolib, yozuvda saqlanib qolishi;

tovushi bir xil bo‘lgan ikki so‘zning talaffuzi va yozilishini o‘rganadilar.

Xuddi shu jarayonda o‘qituvchi *x* va *h* undoshlarining imlosini quyidagi misollar bilan tushuntirishni maqsad qilib qo‘yadi.

1. Quyidagi *x* va *h* undoshlari bo‘lgan so‘zlar doskaga alohida bosh harf shaklida yoziladi.

har - xar xam - ham

xol - hol hom - xom

2. Quyidagi vazifalar asosida tahlil yakunlandi:

1. So‘zlarni o‘qing. Ularning talaffuzidagi farqni ayting.

2. So‘zlarning ma’nosini misollar asosida ta’riflang.

Har xil mollar - har xil pishgan shaftolilar

Yuzingdagi qora xol – hol-ahvolini so‘rash.

Xush kelibsiz - qush boshidan uchdi

3. O‘ylab ko‘ring, *x* va *h* undoshlari so‘zlarda qanday o‘zgarishlarga olib keladi?

O‘zbek (qoraqalpoq) tilidagi *x* va h harflari qanday tovushlarni anglatadi?

5. *X* va *h* tovushlarini qanday o‘ziga xos jihatlarini kuzatgansiz? So‘zlarni yozishda ularni farqlay olasizmi? Fikringizni misollar bilan tasdiqlang.

O‘qituvchi x tovushi tomoqda hosil bo‘lishini, *x* tovushi og‘izning orqa qismida ezilganda hosil bo‘lishini ko‘rsatadi va bu tovushlarning talaffuzini mustahkamlaydi.

Sifatlarning yasalishi mavzusida imlo savodxonlik bo‘yicha belgilarni bildiruvchi so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan tovush o‘zgarishlari nuqtai nazaridan qo‘llaniladi.

Baxtli, shodlik Vatanda,
Qanday qiziq, yoshlik chog‘lari,
Qaraganda ko‘zni tortgan,
Rang-barang suluv bog‘lari.

(Xolmurot Saparov)

Narsalarning belgisini kuchaytiruvchi yoki kamaytiruvchi sifatlarning orfografiyasida ham o‘quvchilar chiziqcha qo‘ymasdan imloviy xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday xatoni to‘g‘irlashda belgilar quyidagi tartibda doskaga juft qilib yoziladi:

Katta bola – juda katta bola.

Yashil terak – yap-yashil terak.

Oq ko‘ylak – oppoq ko‘ylak.

Tiniq suv – tip-tiniq suv.

Qizil buyum – qip-qizil buyum.

Berilgan misollar ustida quyidagi vazifalar asosida ishlanadi:

- Birikmalarni o‘qing. Sifatlarni aniqlang. Birinchi ustundagi sifatlar ikkinchi ustundagi sifatlardan qanday farq qilishiga e’tibor bering.

- Ikkinchi ustundagi sifatlar narsalarning belgilarini qanday aks ettiradi?

- Ularning yozilishidagi farqini ayting.

O‘quvchilar xolis fikrlash nuqtai nazaridan juft belgilar imlosini aniqlaydilar va matn tahlili asosida mustahkamlaydilar.

O‘quvchilar kamaytiruvchi va kuchaytiruvchi sifatlarning imlosini ham matnni shunday sifatlar qatnashgan matnlarni tahlil qilish asosida mustahkamlaydilar:

1. Matnni o‘qing. Savollar yordamida sifatlarni toping va tegishli so‘zdan ko‘chiring. Sifatlar imlosini tushuntiring. Masalan: Qora-ko‘k bargli tol yonida

yotardi. Uning ma’yus ko‘zlari uxlayotganga o‘xshardi. Qoratosh yaqinida yaralangan. Juda kuchli va chiroyli oyoqlari biroz oriq edi.

Ertagim ertaga bo‘ladi. Ertagim erta bo‘ldi. Qulog‘i kalta bo‘ldi. Bor ekan-da, yo‘q ekan, Och ekan-da, to‘q ekan. Ola qarg‘a azonchi ekan, Qora qarg‘a qozonchi ekan. Qora kuchuk qovunchi ekan, sariq mushuk sovunchi ekan (Qoraqalpoq folklori).

2. Topishmoqlarni o‘qing. Javobni toping. Sifatlarni aniqlab, yozilishini ta’riflang.

1. Dum-dumaloq kichik oy,
Tishlab yesang, g‘ij-g‘ij moy.
2. Yashil gumbaz ichida
Qip-qizil xona,
Bir xil libos, teng bo‘yli,
Ming bir tengdosh.

3. Berilgan sifatlarning imlosini ta’riflang.

Suluv diydoringiz bahor tongiday,
Jo‘shqin yuragingiz yongan olovdek.
Onamiz Amudaryo to‘lqinlariday,
Qanotli qo‘shiq va kuysiz, ustozlar

(Tolibay Qabulov)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshqa sifat so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida imlo savodxonligiga erishish bu mashq turlarini uzluksiz shakllantirishni taqozo etadi. Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘qitish qiyin va mas’uliyatli, chunki bolalarning bunday til faktlarini o‘zlashtirish qobiliyati yo‘q, ularning o‘rganish darajasi, moslashish darajasi yetarli emas, bunday til faktlari ustida hech qachon ishlamagan. Shu bilan burga, so‘z turkumlarini o‘rganish va uning toifalarini bilish kelajakdagi ish uchun muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi // Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent, 1998. – № 6. – B. 12-18.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. (Ona tili. O‘qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik (1-4-sinflar)). – Toshkent: RTM, 2017. – 252 b.
3. Umumiy o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 74 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – “ICTWEEK Uzbekistan – 2016” Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligi // Xalq so‘zi, 2016-yil 20-sentabr.

5. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947- sonli Farmonı // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. – 92 b.

6. Nuriyeva F. (2023) Boshlang‘ich sinflarda so‘z birikmalari ustida ishlash // Scholar, V. 1.

7. Mansurov, I. (2020). Ona tili va adabiyot darslarida so‘z birikmalari. – Toshkent: O‘qituvchi.

8. Karimova, N. (2019). O‘zbek tilida so‘z birikmalari va ularning o‘rni. – Samarqand.

9. Boshlang‘ich ona tilida o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2021.

10. Abduvalieva, M. (2022). O‘zbekcha so‘z birikmalari va ularni o‘rganish usullari. – Buxoro.

REFERENCES:

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi // Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent, 1998. – № 6. – B. 12-18. (In Uzbek)

2. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. (Ona tili. O‘qish. Matematika. Atrofimizdagi olam. Tabiatshunoslik (1-4-sinflar)). – Toshkent: RTM, 2017. – 252 b. (In Uzbek)

3. Umumiy o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. – Toshkent, 2017. – 74 b. (In Uzbek)

4. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – “ICTWEEK Uzbekistan – 2016” Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligi // Xalq so‘zi, 2016-yil 20-sentabr. (In Uzbek)

5. Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 4947- sonli Farmonı // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2017. – 92 b. (In Uzbek)

6. Nuriyeva F. (2023) Boshlang‘ich sinflarda so‘z birikmalari ustida ishlash // Scholar, V. 1. (In Uzbek)

7. Mansurov, I. (2020). Ona tili va adabiyot darslarida so‘z birikmalari. – Toshkent: O‘qituvchi. (In Uzbek)

8. Karimova, N. (2019). O‘zbek tilida so‘z birikmalari va ularning o‘rni. – Samarqand. (In Uzbek)

9. Boshlang‘ich ona tilida o‘qitish metodikasi. Darslik. – Toshkent, 2021. (In Uzbek)

10. Abduvalieva, M. (2022). O‘zbekcha so‘z birikmalari va ularni o‘rganish usullari. – Buxoro. (In Uzbek)

OILA PSIXOLOGIYASI VA PSIXOTERAPIYASI FANINI O‘QITISHDA TALABALARGA OILA FUNKSIYALARI HAQIDA BILIM BERISH USULLARI

METHODS OF EDUCATING STUDENTS ABOUT FAMILY FUNCTIONS IN TEACHING FAMILY PSYCHOLOGY AND PSYCHOTHERAPY

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФУНКЦИЯМ СЕМЬИ В ПРЕПОДАВАНИИ СЕМЕЙНОЙ ПСИХОЛОГИИ И ПСИХОТЕРАПИИ

Kurbanova Zilola Alisher qizi
Oriental Universiteti,
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 88 111-29-96
e-mail: Zilolakhan.kurbanova@.com

Annotatsiya. XXI asr fan va texnikaning yangi bir yuksalish pallasiga kirganligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishga mo‘ljallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko‘lami kengayib borishi uning mas’uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi. Xuddi shu bois psixolog mutaxassislarga nisbatan ijtimoiy buyurtmaning ko‘payishi ularni hozirgi zamon talabiga javob beradigan darajada tayyorlashni taqozo qilmoqda. Shu ma’noda psixologiya fanining oldida turgan vazifalar ko‘lami va salmog‘i kattadir. Biz jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan barcha o‘zgarishlarning psixologik mohiyatini psixologiyaning bugungi holati va istiqboli nuqtai nazaridan tahlil qilish orqali bu fanning jamiyatdagi o‘rni va imkoniyatlariga baho berishimiz mumkin. Oila va oilaviy munosabatlar haqida gap ketganida, oilaning funksiyalari masalasi eng dolzarb muammo sifatida gavdalanadi. Oila funksiyalari haqida bilim berish orqali biz yoshlarda oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan muammolarni sezilarli kamaytirishga erishamiz. Ushbu funksiyalarni o‘zlashtirish orqali psixolog mutaxassisligi talabalari kelgusi oilalarga psixologik yordam berishda ijobiy natijalarga erishishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: *Oila, nikoh, shaxsiy hayot, qarindoshlik aloqalari, nikoh ittifoqi, uy xo‘jaligi.*

Annotation. The 21st century is of special significance as it has entered a new period of advancement of science and technology. It is known that psychology is one of the sciences aimed at researching the relationship between society and nature. The expansion of the scope of the application of psychological knowledge in all aspects of social life indicates that its responsibility and influence are increasing. For the same

reason, the increase in the social order for psychologists requires their preparation to the level that meets the requirements of the present time. In this sense, the scope and importance of the tasks facing the science of psychology are great. By analyzing the psychological nature of all the changes taking place in the life of our society, we can assess the role and potential of this science in society by analyzing the current state and perspective of psychology. When it comes to family and family relations, the issue of family functions is embodied as the most urgent problem. By providing knowledge about family functions, we can significantly reduce the problems that arise in family relationships in young people. By mastering these functions, students of the specialty of psychology can achieve positive results in providing psychological support to future families.

Keywords: *family, marriage, private life, kinship, unmarried union, household.*

Аннотация. XXI век имеет особое значение, поскольку вступил в новый период развития науки и техники. Известно, что психология является одной из наук, направленных на исследование взаимоотношений общества и природы. Расширение сферы применения психологических знаний во всех сферах общественной жизни свидетельствует о возрастании их ответственности и влияния. По этой же причине повышение социального заказа психологов требует их подготовки до уровня, отвечающего требованиям современности. В этом смысле масштаб и важность задач, стоящих перед психологической наукой, велики. Анализируя психологическую природу всех изменений, происходящих в жизни нашего общества, мы можем оценить роль и потенциал этой науки в обществе, анализируя современное состояние и перспективы психологии. Когда речь идет о семье и семейных отношениях, вопрос о функциях семьи воплощается как наиболее актуальная проблема. Давая знания о функциях семьи, мы можем существенно уменьшить проблемы, возникающие в семейных отношениях у молодых людей. Овладев этими функциями, студенты специальности психология могут добиться положительных результатов в оказании психологической поддержки будущим семьям.

Ключевые слова: *Семья, брак, частная жизнь, родство, внебрачный союз, домашнее хозяйство.*

KIRISH

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi psixologik bilimlarning nisbatan yosh tarmog‘i bo‘lib, u oilaviy psixoterapiyaning boy amaliyotiga, oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish va oilaviy maslahat bo‘yicha tajribaga, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish masalalari bo‘yicha psixologik maslahati amaliyotiga asoslanadi. Oila psixologiyasining ilmiy fan sifatida o‘ziga xos xususiyati uning

psixologik amaliyot bilan uzviy bog‘liqligidir. Aynan oila hayotini optimallashtirish, nikoh va bola-ota-ona munosabatlari samaradorligini oshirish, oilada bolalarni tarbiyalash muammolarini hal qilish bo‘yicha ijtimoiy talab ushbu ilmiy fanning rivojlanishini tezlashtirdi. Oila psixologiyasining nazariy asosini ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya va klinik psixologiya sohasidagi tadqiqotlar tashkil etadi. Ijtimoiy psixologiya oilaning kichik guruh sifatidagi g‘oyasiga asoslanib, oilaning roli tuzilishi va oilada yetakchilik masalalarini, oilaning guruh sifatida rivojlanish bosqichlarini, turmush o‘rtog‘ini tanlash muammolarini o‘rganadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oila psixologiyasi va psixoterapiyasi fanini o‘qitishda talabalarni oila funksiyalari haqida bilim berish usullari bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu sohada mashhur bo‘lgan ba’zi olimlar va ularning yondashuvlari quyidagilardir:

1. **Murray Bowen** - Oila tizimlari nazariyasining asoschisi bo‘lib, u oila dinamikasini o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. U oiladagi aloqalar va oila funksiyalari haqida chuqur bilimlar beradigan yondashuvlarni ishlab chiqqan.
2. **Salvador Minuchin** - Oila terapiyasi sohasida ishlagan va uning oila strukturasiga e’tiborini qaratgan. Uning ishlari oila funksiyalarini tushunishga va terapiya jarayonida oilani qanday ishlatishni ko‘rsatishga yordam bergan.
3. **Virginia Satir** - Oila terapevti sifatida oilaviy aloqalar va kommunikatsiyalarni yaxshilash uchun innovatsion yondashuvlar ishlab chiqdi. Uning "oilaviy funksiyalar" va oila haqidagi bilishning ahamiyatini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan.
4. **John Gottman** - Oila psixologiyasida o‘ziga xos uslublar ishlab chiqqan, u oilaviy munosabatlarni va oila funksiyalarini o‘rganish uchun eksperimental tadqiqlardan foydalangan.
5. **Carl Whitaker** - U oila terapiyasida "ruhiy boshqaruv" yondashuvini ishlab chiqdi va oilani o‘z-o‘zini anglash va rivojlanishga undash uchun qiziqarli metodlarni taklif qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oila kichik ijtimoiy guruh bo‘lib, shaxsiy hayotni tashkil etishning eng muhim shakli bo‘lib, nikoh ittifoqi va oilaviy aloqalarga asoslangan, ya’ni, er va xotin, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar birgalikda yashaydigan va birgalikda uy xo‘jaligini yuritish. Oilaviy aloqalar uch xil bo‘lishi mumkin: qarindoshlik (aka-uka va opa-singillar), nasl (ota-ona-bolalar), nikoh munosabatlari (er-xotin, turmush o‘rtoqlar). Oila shakllanishining asosi nikohdir. Nikoh bu alohida ijtimoiy institut, erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning tarixan belgilangan, ijtimoiy tartibga

solinadigan shakli, ularning bir-biriga va bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilaydi (Эйдемиллер Э., Юстицкис В., 2001).

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaning ikkita xususiyati bor:

1) oilani kichik ijtimoiy guruh sifatida tushunish uning faoliyati samaradorligini guruh ichidagi muloqot muammolarini hal qilishga bog‘liq qiladi, ya’ni, oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot, hokimiyat va yetakchilikni taqsimlash, nizolarni hal qilish, ijtimoiy muhit - bobo va buvilar bilan munosabatlarni o‘rnatish kabi guruhlararo o‘zaro ta’sir va boshqalar. Ushbu muammolarni hal etish oilani ijtimoiy tizim sifatida o‘rganishning ijtimoiy-psixologik jihati;

2) oilaning kichik ijtimoiy guruh sifatida o‘ziga xos xususiyati oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarning yuqori ta’sirchan intensivligi va hissiy "to‘yinganligi" bilan bog‘liq bo‘lib, bu yerda bir qutbda - sevgi, qabul qilish va mehr munosabatlari, ikkinchisida – munosabatlar: nafrat, rad etish, qaramlik, negativizm.

Oilaviy funksiyalar:

1) **iqtisodiy** (moddiy va ishlab chiqarish), xo‘jalik va uy xo‘jaligi uning a’zolarining daromadlarini birlashtirish va bu daromadlarni har bir oila a’zosining ehtiyojlariga muvofiq iste’molga taqsimlash bilan belgilanadi. Iqtisodiy-maishiy funksiya oila hayotini va uning har bir a’zosining shaxsiy hayotini tashkil etish shaklida amalga oshiriladi;

2) **reproduktiv** (tug‘ilish va aholining ko‘payishi);

3) **bolalarni tarbiyalash**. Oila bolaning birlamchi ijtimoiylashuvi instituti bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining uzluksizligini ta’minlaydi;

4) **jinsiy munosabat**. Faqatgina doimiy sherik bilan tanlab, barqaror jinsiy aloqalar, o‘ziga xos va takrorlanmaydigan shaxs sifatida harakat qilish, sheriklarning eng to‘liq jinsiy uyg‘unligiga erishish uchun sharoit yaratadi;

5) **ma’naviy muloqot**. Bu oila a’zolarining ma’naviy o‘zaro boyitilishini o‘z ichiga oladi; axborot almashinuvi; ijtimoiy-siyosiy, kasbiy va ijtimoiy hayotdagi shaxs uchun eng muhim muammolarni muhokama qilish; adabiy-badiiy san'at, musiqani idrok etish kontekstida muloqot qilish; oila a’zolarining shaxsiy va intellektual o‘sishi uchun sharoit yaratish;

6) **hissiy qo‘llab-quvvatlash va qabul qilish -** xavfsizlik va guruhga mansublik hissi, hissiy tushunish va hamdardlik yoki psixoterapevtik funksiyani ta’minlaydi. Zamonaviy oilada bu funksiyaning yana bir jihati - shaxsning o‘zini namoyon qilish va o‘zini o‘zi amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish;

7) **rekreatsion** (tiklash) - oila a’zolarining neyro-ruhiy salomatligi va ruhiy barqarorligini tiklash uchun shart-sharoitlarni ta’minlash funksiyasi;

8) voyaga etmaganlar va mehnatga layoqatsiz oila a’zolariga nisbatan ijtimoiy tartibga solish, nazorat va homiylik (Эйдемиллер Э., Юстицкис В., 2001);

9) **tabriklash** - insonning baxtga bo‘lgan ehtiyojini qondirish funksiyasi (lotincha felicio - baxt). Oila insonning hissiy farovonligining muhim omili bo‘lib, uning dunyoqarashining ta’sirchan ohangini belgilaydi. Sevgi va nikoh insonning baxt va hayotdan qoniqish tajribasini qat'iy belgilaydi. M. Argylening fikricha, nikohdan qoniqish umumiy hayotdan qoniqish va baxtni belgilaydi.

Funksiyalar iyerarxiyasi oilaning ijtimoiy-madaniy institut sifatidagi tarixi va ma’lum bir oilaning tarixi bilan belgilanadi. U tarixiy davr, ijtimoiy-madaniy muhit va oilaviy hayot siklining bosqichiga qarab o‘zgaradi. Har bir turmush o‘rtoqning oilaning funksional tuzilishi iyerarxiyasini idrok etishi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bu turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishning buzilishi va oiladagi nizolarga sabab bo‘ladi (Эйдемиллер Э., Юстицкис В., 2001).

Ushbu funksiyalardan kelib chiqib zamonaviy oilaning o‘ziga xos xususiyatlari 4 xususiyat bilan belgilanadi:

1) ota-onalarning alohida roli. 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab. Ota-ona va bola munosabatlarida hissiy va ma’naviy yaqinlik, hamdardlik alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ota-ona mehri oilaviy hayotning ustuvor qadriyatiga aylanadi. Ta’lim muloqotning ikkala subyekti teng huquqlarga ega bo‘lgan dialogik jarayonga aylanadi (Петровская Л., Спиваковская А., 1983). Bolalik davri uzaymoqda, ota-onalarga farzandlarini tarbiyalash va o‘qitish mas'uliyati yuklanmoqda;

2) nikoh ittifoqining asosi - sevgi, hissiy qabul va qo‘llab-quvvatlash;

3) oila tizimi ancha ochiq, chunki turmush o‘rtoqlar o‘zlarining ustuvor qadriyatlar tizimidan kelib chiqib, o‘z oilasining kelajakdagi taqdirini erkin belgilash huquqiga ega (Петровская Л., Спиваковская А., 1983);

4) katta oiladan yadro oilasiga (ota-onalar va bolalar) o‘tish sodir bo‘ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘nggi o‘n yilliklarda oila rivojlanishining bir qator tendensiyalari mavjud:

– an'anaviy (patriarxal) tipdagi ko‘p yadroli keng oilalardan yadroli oilalarga o‘tish;

– tug‘ilish darajasining pasayishi;

– erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘rtacha umr ko‘rishning nomutanosibligi;

– ajralishlar sonining ko‘payishi;

– oilasiz yoki ota-onalar va yaqin kattalar bilan muloqot qilishdan mahrum bo‘lgan bolalar sonining ko‘payishi (yetimlar, maktab-internatlar, tun-u kun bolalar bog‘chalari o‘quvchilari, uysiz bolalar va boshqalar);

– oiladagi munosabatlarni demokratlashtirish, rollarni qat'iy belgilashdan

turmush o‘rtoqlarning o‘zaro almashinishiga, sheriklik, yordam va o‘zaro yordamga o‘tish;

– voyaga yetmagan ota-onalar sonining ko‘payishi;

– oilaviy va maishiy sabablarga ko‘ra jinoyatlar sonining ko‘payishi;

– "Farzandsiz oila" maqomi turmush o‘rtoqlarning ongli ravishda tanlanishi bo‘lgan farzandsiz oilalar sonining ko‘payishi;

– "ikki martaba" deb ataladigan oilalarning paydo bo‘lishi, ya’ni, har ikkala turmush o‘rtog‘i o‘zlariga kasbiy martaba, o‘sish va o‘zini o‘zi anglash maqsadlarini qo‘ygan oilalar. Bunday oilalarda oilada rol va hokimiyat taqsimotining tabiati, yetakchilik masalasi, demokratiya va o‘zaro almashinish, oilaviy va shaxsiy qadriyatlarning umumiyligi, bolalarni tarbiyalashda oilani qo‘llab-quvvatlash uchun resurslarning mavjudligi, oilaning maishiy vazifalari va boshqalar alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vasilyeva O.S., Xmaruk I.N. (1999) Oila ijtimoiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida // Amaliy psixologiya. No 2. – B. 59-65.

2. Вайтекер К. (1998) Полуночные размышления семейного психотерапевта / Перевод. с английского. М.И. Завалова. – Москва.

3. Гаврилова Г.Т. (1981) К проблеме влияния распада семьи на детей дошкольного возраста // Семья и формирование личности. – Москва.

4. Смахтина Татьяна, Кубекова Алия. (2019) Взаимосвязь стилей семейного воспитания и самооценки в подростковом возрасте // World of Science. Pedagogy and psychology. No 4, Vol 7.

5. Эйдемиллер Э., Юстицкис В. (2001) Психология и психотерапия семьи. – Москва.

6. Петровская Л., Спиваковская А. (1983) Воспитание как общение-диалог. – Москва.

7. Ruzinov, I. (2018). Oila psixologiyasi: nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent.

8. Аракелян, Г.Ю. (2017). Психология семьи: теория и практика. – Москва: Издательство РГУ.

9. Smith, J. (2016). Family Psychology: Theory and Practice. – New York: Wiley.

10. Johnson, S. M. (2019). The Practice of Emotionally Focused Couple Therapy: Creating Connection. – New York: Routledge.

REFERENCES:

1. Vasilyeva O.S., Xmaruk I.N. (1999) Oila ijtimoiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida // Amaliy psixologiya. No 2. – B. 59-65. (In Uzbek)

2. Whitaker K. (1998) Polunochnie razmishleniya semeynogo psixoterapevta / Perevod. s angliyskogo. M.I. Zavalova. – Moskva. (In Russian)

3. Gavrilova G.T. (1981) K probleme vliyaniya raspada semi na detey doshkolnogo vozrasta // Semya i formirovanie lichnosti. – Moskva. (In Russian)

4. Smaxtina Tatyana, Kubekova Aliya. (2019) Vzaimosvyaz stiley semeynogo vospitaniya i samoosenki v podrostkovom vozraste // World of Science. Pedagogy and psychology. No 4, Vol 7. (In Russian)

5. Eydemiller E., Yustiskis V. (2001) Psixologiya i psixoterapiya semi. – Moskva. (In Russian)

6. Petrovskaya L., Spivakovskaya A. (1983) Vospitanie kak obshenie-dialog. – Moskva. (In Russian)

7. Ruzinov, I. (2018). Oila psixologiyasi: nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent. (In Uzbek)

8. Arakelyan, G.Yu. (2017). Psixologiya semi: teoriya i praktika. – Moskva: Izdatelstvo RGU. (In Russian)

9. Smith, J. (2016). Family Psychology: Theory and Practice. – New York: Wiley.

10. Johnson, S. M. (2019). The Practice of Emotionally Focused Couple Therapy: Creating Connection. – New York: Routledge.

O‘QUVCHILARNING KASB TANLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLARI

STUDENTS' PROBLEMS AND SOLUTIONS IN CHOOSING A PROFESSION

ПРОБЛЕМЫ СТУДЕНТОВ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ ПРИ ВЫБОРЕ ПРОФЕССИИ

Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna
Oriental universiteti o‘qituvchisi,
Tel.: +998 90 994-95-82
e-mail: quyliyevaorzigul@gmail.com

Nosirova Zamira Xosil qizi
Oriental universiteti, Psixologiya yo‘nalishi
301-guruh, 2-kurs talabasi
Tel.: +998 99 810-87-46
e-mail: zamiranosirova306@gmail.com

Annotatsiya. O‘quvchilarning kasb tanlashdagi muammo va yechimlari zamon talablariga mos ravishda o‘quvchilarning kelajakdagi hayotini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni, ko‘pincha, turli omillar: oilaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek, ta’lim muassasalarining imkoniyatlari va shaxsiy qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Mavzuda, aynan o‘quvchilarning kasb tanlashda duch keladigan muammolar tahlil qilinadi. Ular orasida noto‘g‘ri kasb tanlash, kasbga bo‘lgan qiziqishning yetishmasligi, malaka va ta’limga nisbatan qiyinchiliklar, hamda jamiyatda mavjud stereotiplar va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar kabilar alohida o‘rin tutadi. Ushbu muammolarni yechishda, o‘quvchilarga kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha maslahat berish, kasbiy ma’lumotlar va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda psixologik yordam ko‘rsatish kabi yechimlar taklif etiladi. Natijada, o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi uchun zaruriy sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *kasb, kasb tanlash jarayoni, ta’lim yo‘nalishi, kasblar sohasi, kasblar kategoriyalari.*

Annotation. Problems and solutions in choosing a profession for students is one of great importance in shaping the future life of students in accordance with the requirements of the time. The process of choosing a profession for students often depends on various factors: family, social, economic, as well as the

capabilities of educational institutions and personal abilities. The topic analyzes the problems that students face in choosing a profession. Among them, the wrong choice of profession, lack of interest in the profession, difficulties in obtaining qualifications and education, as well as stereotypes existing in society and changes in the labor market, occupy a special place. In solving these problems, solutions are proposed such as advising students on professional directions, creating opportunities for exchanging professional information and experience, using modern technologies, and providing psychological support. As a result, it is important to create the necessary conditions for preparing students for their future professional activities.

Keywords: *profession, career choice process, course of study, field of professions, categories of professions.*

Аннотация. Проблемы и пути решения студентов в выборе профессии важна для формирования будущей жизни студентов в соответствии с требованиями времени. Процесс выбора профессии студентами зачастую зависит от различных факторов: семейных, социальных, экономических, а также возможностей и личных способностей учебного заведения. В теме анализируются проблемы, с которыми сталкиваются студенты при выборе профессии. Среди них особое место занимают неправильный выбор профессии, отсутствие интереса к профессии, трудности с получением навыков и образования, а также существующие стереотипы в обществе и изменения на рынке труда. Для решения этих проблем предлагаются такие решения, как консультирование студентов по профессиональным направлениям, создание возможностей для обмена профессиональной информацией и опытом, использование современных технологий, оказание психологической поддержки. В результате важно создать необходимые условия для подготовки студентов к будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: *профессия, процесс выбора профессии, курс обучения, область профессий, категории профессий.*

KIRISH

Har bir inson o‘z kasbini tanlashda o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olishi kerak. Kasb bu shaxsning ma’lum bir sohada, odatda professional faoliyatida, bilim va ko‘nikmalarini qo‘llab, daromad olish maqsadida bajaradigan ishidir. Kasblar turli sohalarda bo‘lishi mumkin va har biri o‘ziga xos talablar, malakalar va mas’uliyatlarga ega. Ushbu maqolada bugungi o‘quvchilarni kasb tanlash borasidagi yuzaga kelayotgan muammolariga to‘xtalib o‘tiladi.

O‘quvchilarning kasb tanlash jarayoni, turli omillar: oilaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek, ta’lim muassasalarining imkoniyatlari va shaxsiy qobiliyatlariga bog‘liqligi yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi yillarda ushbu mavzuga oid ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Mutaxassislarimiz tomonidan kasbga to‘g‘ri yo‘naltirish borasida anchagina izlanishlar olib borilmoqda. Bu jarayonni amalga oshirishda bir qator muammolar va qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Kasb tanlashdagi muammolarni tahlil qilish va ularning qanday yechimlar topilishi haqida adabiyotlar ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. S. O. Frolov (1995) o‘zining "Kasb tanlash psixologiyasi" asarida shuni ta’kidlaydiki, kasb tanlashda shaxsiy qobiliyatlar, qiziqishlar, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar, shuningdek, ijtimoiy bosim kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy omillar ham kasb tanlashda katta rol o‘ynaydi. A. Makarenko o‘zining tadqiqotlarida, kasb tanlashda iqtisodiy jihatlarning, jumladan, mehnat bozoridagi talab va taklifning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan (Makarenko A., 2004). Yoshlarning kasb tanlashidagi iqtisodiy muammolar orasida yuqori maosh va ish o‘rinlarining mavjudligi, ishlash shartlari va hayot darajasini ta’minlashdagi qiyinchiliklar bor. Kasb tanlashda ijtimoiy omillar, xususan, oilaning roli juda katta. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning kasb tanlashida ota-ona va oilaning ta’siri sezilarli (Dovlatov M., 1997). Oilaning iqtisodiy holati, ijtimoiy mavqei, va ota-onalarning kasbga bo‘lgan munosabati yoshlarga kasb tanlashda qaror qabul qilish jarayonida ko‘p holatlarda katta ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsiy xususiyatlar va motivatsiya ham kasb tanlashda muhim rol o‘ynaydi. B. Antonov (2000) o‘zining “Kasb tanlashda psixologik aspektlar” asarida yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, shaxsiy xususiyatlari, va kasbga bo‘lgan qiziqishlari muhimligini ta’kidladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbga bo‘lgan qiziqish va ehtiros, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin, lekin ko‘p hollarda yoshlar bu omillarni hisobga olmaydi va faqat tashqi ko‘rinishga qarab tanlov qilishadi. Bundan tashqari, psixologik testlar, shaxsiy o‘zgarishlar va kasbiy qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan metodlar qo‘llaniladi. M. D. Leontyev (1981) kasb tanlashda psixologik testlarning samaradorligini o‘rganib, yoshlarning kasbga bo‘lgan qiziqishlarini va ularning psixologik holatini tahlil qilishda metodlarni ishlab chiqqan.

Kasb bu odamning ma’lum bir sohaga oid malaka va bilimlarga ega bo‘lib, undan foyda olish yoki daromad topish maqsadida amalga oshiradigan faoliyati. Kasb, odatda, ixtisoslashgan bilimlar, ko‘nikmalar va tajriba talab qiladi. U, o‘z navbatida, jamiyatda o‘z o‘rnini topish, shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, hayotini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi (Avazov Sh., 2003).

Kasb tanlash — har bir inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biridir. Kasb tanlash jarayoni — bu odamning qiziqishlari, imkoniyatlari, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, o‘zining qobiliyatlariga mos keladigan faoliyat turini tanlash jarayoni. Kasb tanlashda, o‘quvchilar uchun eng muhim omillar o‘quv ta’limoti, shaxsiy qiziqishlar, jamoa talab va bozor ehtiyojlari hisobga olinadi. Kasb tanlashdagi xatoliklar shaxsning kelajakdagi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun bu jarayonni ehtiyotkorlik bilan va ma’lumotli ravishda amalga oshirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi va Vazirlar Mahkamasi qarori xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasb yangilangan tasniflagichini tasdiqlash to‘g‘risida *(O‘zbekiston Respublikasi, 2015-yil, 25-son, 326-modda)* O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2015-yil 24-aprel PF-4720-son Farmonini bajarish yo‘nalishlari hamda kasblar va lavozimlarni tasniflashning normativ-huquqiy bazasini yanada kengroq xalqqa ta’minlash, uni bozor iqtisodiga o‘tkazishni muvofiqlashtirish. Yangicha fikrlaydigan professional kadrlar tayyorlanishini ta’minlashda xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari tasniflovchi rolini ishlab chiqarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kasb va lavozimlarga qo‘yiladigan malaka darajalarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida” 2020-yil 15-maydagi 287-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida kasb va lavozimlarga qo‘yiladigan malaka darajalarini milliy malaka tizimi asosida takomillashtirish, xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchi kasblari klassifikatoriga muvofiq malaka toifalarini (razryadlarini) belgilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorlariga ko‘ra:

- korxonalar, shaxsiy kasblar va tashkilotlarning davlat jadvallarini va davlat jadvallarini, xodimlarning me’yoriy daftarchalarini, yozuvlarni, mehnat kompaniyalarini va boshqalarni rasmiylashtirishda, pensiya ta’minotini rivojlantirishda standartlashtirish va birxillashtirish;

- ta’limning darajasi va yo‘nalishini hamda xodimlarning malakasini olgan hisobga holda kadrlarni samarali ravishdagi joy-joyiga qo‘yish;

- ishlab chiqarish va boshqaruvning istiqbollaridan kelib chiqib, zamonaviy bozor iqtisodiyoti harakatsiz javob beradi, yangicha fikrlaydigan kadrlarni aniq maqsadni ko‘zlab tayyorlash;

- turli tashkiliy-huquqiy shaklardagi tashkilotlarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini tuzish;

- mehnatni hisobga olish, tahlil qilish va uning statistikasini yuritish;

- xodimlar bilan islashni tashkil etish axborotni qayta ishlash;

- band aholini faoliyat (mashg‘ulot) turlari bo‘yicha taqsimlash;

- xalqaro darajada ijtimoiy-mehnat ma’lumotlarini taqqoslash uchun foydalaniladi.

- mutaxassislar - ishlab chiqarish va qayta ishlash, rejalashtirish va nazorat qilish, murakkab texnikaga xizmat ko‘rsatuvchi, xodimlarni boshqaruvchi, tashkilotlarini, shu jumladan ularga farmoyish beruvchi vakolatlar berilmagan holda tartibga soluvchi, ta’lim beruvchi va soha xodimlar va ilmiy faoliyatini, shu jumladan boshqa o‘ziga xos funksionalni amalga oshiruvchi hodisalar. Mutaxassislar boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlariga tegishli bo‘lishi, farmoyish berish va ijro etish funksiyalarini bajarishlari mumkin (Avazov Sh., 2003).

Ta’lim yo‘nalishi - ta’lim muassasasida bitiruvchi ta’lim bo‘yicha tegishli darajada egallangan va o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha faoliyat dasturining asosiy turi bo‘yicha faoliyatni ta’minlash va fundamental bilimlar, o‘quv va ko‘nikmalar yig‘indisidan iborat.

"Har bir o‘quvchi o‘z kasbini tanlashda o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olishi kerak bo‘ladi. Kasblar quyidagi kategoriyalarga bo‘linishi mumkin:

1. Ijtimoiy kasblar: Muallim, doktor, psixolog, ijtimoiy ishchi.
2. Texnik kasblar: Muhandis, dasturchi, texnik mutaxassis.
3. Ijodiy kasblar: San'atkor, dizayner, yozuvchi, musiqa ijrochisi.
4. Biznes va iqtisod: Tadbirkor, moliyachi, marketing mutaxassisi.
5. Qurilish va ishlab chiqarish: Quruvchi, mexanik, elektrchi.

Har bir kasb o‘zining o‘rganilishi va rivojlanishi uchun talab qilinadigan malakalar va tajribaga ega. Kasb tanlashda shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va bozor talablarini hisobga olish muhimdir. Kasb sohalari va turlari ko‘plab kategoriyalarga bo‘linadi. Quyida ba’zi asosiy kasb sohalari va ularga tegishli kasb turlari keltirilgan:

1. Ijtimoiy soha

- Tibbiyot: Shifokor, hamshira, farmatsevt, psixolog.
- Ta’lim: Muallim, o‘qituvchi, ta’lim muassasasi rahbari.
- Ijtimoiy xizmatlar: Ijtimoiy ishchi, reabilitatsiya mutaxassisi.

2. Texnika va muhandislik

- Muhandislik: Mexanik muhandisi, elektr muhandisi, qurilish muhandisi.
- Dasturlash: Dasturchi, tizim analitikasi, veb-ishlab chiqaruvchi.
- Texnik xizmat: Texnik mutaxassis, xizmat ko‘rsatish muhandisi.

3. Ijodiy soha
- San’at: Rassom, haykaltarosh, fotograf.
- Dizayn: Grafik dizayner, moda dizayneri, interyer dizayneri.
- Musiqa: Musiqa ijrochisi, kompozitor, ovoz rejissyori.

4. Biznes va iqtisod
- Marketing: Marketing mutaxassisi, brend menejeri, reklama agenti.
- Moliyaviy xizmatlar: Moliyachi, auditor, investitsiya analitigi.
- Tadbirkorlik: Tadbirkor, start up asoschisi, biznes maslahatchisi.

5. Qurilish va ishlab chiqarish
- Qurilish: Quruvchi, arxitektor, loyiha boshqaruvchisi.
- Ishlab chiqarish: Ishlab chiqarish muhandisi, sifat nazoratchisi.
- Transport va logistika: Haydovchi, logistika menejeri.

6. Axborot texnologiyalari
- IT mutaxassislari: Tizim administratorlari, kiber xavfsizlik mutaxassislari.
- Ma’lumotlar analitikasi: Ma’lumotlar analitigi, biznes analitigi.

7. Qishloq xo‘jaligi
- Agronomiya: Agronom, qishloq xo‘jaligi muhandisi.
- Chorvachilik: Veterinar, hayvonlarni boqish mutaxassisi.

8. Xizmat ko‘rsatish sektori
- Restoran va mehmonxona: Ofitsiant, oshpaz, mehmonxona menejeri.
- Savdo-sotuv vakili, do‘kon menejeri.

Yuqorida keltirib o‘tilgan kasb sohalari bo‘yicha mutaxassislikka yo‘naltirish lozim. Bugungi kundagi eng ehtiyoj baland bo‘lgan soha sifatida yo‘naltirish mumkin. Maktab o‘quvchilarida kasb bilan bog‘liq muammolar talaygina. Yo‘naltirishdagi kamchiliklar, sohalar haqidagi tushunchalarning yetishmasligi, kasbga to‘g‘ri yo‘nalish olishda muammolarni yuzaga keltiradi. Bugungi kunda o‘quvchilarning kasb tanlashdagi muammolari va yechimlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Muammolar:

1. Ma’lumot yetishmasligi: O‘quvchilar kasblar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emaslar.

2. Ota-onalar bosimi: Ba’zi oila a’zolari o‘z xohishlariga ko‘ra kasb tanlashni talab qilishlari mumkin.

3. Shaxsiy qiziqishlar: O‘quvchilar o‘z qiziqishlarini aniqlashda qiynalishlari mumkin.

4. Ijtimoiy ta’sir: Do‘stlar va jamiyatning fikri o‘quvchilarning tanloviga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

5. O‘qituvchilarning yordami: O‘qituvchilarning kasb tanlash jarayonida yetarli yordam bermasligi.

Aynan yuqoridagi muammolardan kelib chiqib, quyidagi yechimlarni taklif etgan bo‘lar edik. O‘qituvchilarning kasb tanlashdagi muammolariga quyidagi yechimlarini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

Yechimlar:

1. Ma’lumot berish: Kasblar haqida ma’lumot beruvchi seminarlar, taqdimotlar va ekskursiyalar tashkil etish

2. Ota-onalar bilan ishlash: Ota-onalar uchun seminarlar o‘tkazib, ularni o‘z farzandlarining qiziqishlariga hurmat bilan qarashga undash.

3. Qiziqishlarni aniqlash: O‘quvchilarga qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga yordam beruvchi testlar va mashg‘ulotlar o‘tkazish.

4. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: O‘quvchilar o‘rtasida muhokama va tajriba almashish uchun guruhlar tashkil etish.

5. O‘qituvchilarning roli: O‘qituvchilarni kasb tanlash jarayonida qo‘llab-quvvatlash va maslahat berishga tayyorlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasb tanlash jarayoni bu faqatgina shaxsning qiziqishlari va istaklariga asoslanadigan masala emas. Bu jarayonning murakkabligi va ko‘p o‘zgaruvchan omillarni hisobga olgan holda, yoshlarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish uchun keng qamrovli va ko‘p bosqichli yondashuv zarur. Shaxsiy qiziqishlarni va ijtimoiy ta’sirlarni hisobga olgan holda, kasb tanlashda o‘zini anglash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ish bozorining talablari tahlil qilinishi kerak. Shu tarzda, yoshlar nafaqat o‘zlariga mos kasbni tanlashadi, balki kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos soladilar (Avazov Sh., 2003).

Kasb tanlashdagi asosiy yechim bu yoshlarning qiziqishlari, salohiyatlari va jamiyat ehtiyojlarini uyg‘unlashtirgan holda, ularni kasbga tayyorlash tizimini kuchaytirish va psixologik, ma’naviy yordam bilan qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bu kasb sohalari va turlari faqatgina asosiy misollar bo‘lib, har bir sohada ko‘plab maxsus kasblar mavjud. Kasb tanlashda shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va bozor talablarini hisobga olish muhimdir. Kasb tanlashdagi muammolarni hal qilish orqali o‘quvchilar kasb tanlash jarayonida yanada ishonchli va ma’lumotli qarorlar qabul qilishlari mumkin. “O‘quvchilarning kasb tanlashdagi muammo va yechimlari” mavzusi o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilar ko‘plab muammolarga duch keladilar, jumladan, noto‘g‘ri kasb tanlash, qiziqishlarning va

malakalarining yetishmasligi, ijtimoiy va iqtisodiy omillar, hamda mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga moslashish kabi qiyinchiliklar mavjud.

Bu muammolarni hal qilish uchun, o‘quvchilarga kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumot berish, psixologik maslahatlar va kasbiy yo‘llanmalarga ega bo‘lish imkoniyatlarini yaratish muhimdir. Shuningdek, kasb tanlashda ota-onalar, o‘qituvchilar va psixologlar o‘rtasida yaqin hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar va ta’lim tizimlaridan samarali foydalanish zarur (Avazov Sh., 2003).

Bundan tashqari, mehnat bozoridagi o‘zgarishlarga moslashgan va o‘quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan kasb-hunarlar yo‘nalishlarini belgilash, ularni amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, o‘quvchilarning kasb tanlashdagi muammolarini samarali yechish, ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlashga yordam beradi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shadi.

Demak, kasblar haqida ma’lumot beruvchi ekskursiyalar tashkil etish, ota-onalar o‘z farzandlarining qiziqishlariga hurmat bilan qarashga undash, qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga yordam beruvchi testlar va mashg‘ulotlar o‘tkazish o‘qituvchilarni kasb tanlash jarayonida qo‘llab-quvvatlash va maslahat berishga tayyorlashni tavsiya sifatida bera olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1998.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1998.

3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori / Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlangan nutq. 1997-yil 29-avgust // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1998.

4. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar tayyorlash – islohotlar muvaffaqiyatining asosi. / «Xalq so‘zi» gazetasi, 1998-yil 24-yanvar.

5. Avliyoqulov N.X. (2004) Kasbiy fanlarni modulli o‘qitish texnologiyasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi». – 106 b.

6. Avazov Sh. (2003) Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi. I qism / Kasb-hunar kollejlarining amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilari (ishlab chiqarish ta’limi ustalari) uchun chizmalar va jadvallar ko‘rinishidagi o‘quv-metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘MKHTRM. – 72 b.

7. Avazov Sh. (2003) Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi. II qism / Kasb-hunar kollejlarining amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilari (ishlab chiqarish ta’limi ustalari)

uchun chizmalar va jadvallar ko‘rinishidagi o‘quv-metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘MKHTRM. – 73 b.

8. Abduraxmonov F, Abduraxmonova Z. (2018) Kasb psixologiyasi. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti. – 352 bet.

9. Xodjayeva, L. (2022). Yoshlar orasida kasb tanlash muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari // Ijtimoiy Fanlar Jurnali, 15(3), 89-97.

10. Abdullayeva, N. (2020). Yoshlarning kasb tanlashida oila va muhitning ta’siri. O‘zbekiston Pedagogika Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 45(3), 78-85.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1998. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1998. (In Uzbek)

3. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori / Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so‘zlangan nutq. 1997-yil 29-avgust // Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: «Sharq», 1998. (In Uzbek)

4. Karimov I.A. Zamonaviy kadrlar tayyorlash – islohotlar muvaffaqiyatining asosi. / «Xalq so‘zi» gazetasi, 1998-yil 24-yanvar. (In Uzbek)

5. Avliyoqulov N.X. (2004) Kasbiy fanlarni modulli o‘qitish texnologiyasi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi». – 106 b. (In Uzbek)

6. Avazov Sh. (2003) Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi. I qism / Kasb-hunar kollejlarining amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilari (ishlab chiqarish ta’limi ustalari) uchun chizmalar va jadvallar ko‘rinishidagi o‘quv-metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘MKHTRM. – 72 b. (In Uzbek)

7. Avazov Sh. (2003) Amaliy kasbiy ta’lim metodikasi. II qism / Kasb-hunar kollejlarining amaliy kasbiy ta’lim o‘qituvchilari (ishlab chiqarish ta’limi ustalari) uchun chizmalar va jadvallar ko‘rinishidagi o‘quv-metodik qo‘llanma). – Toshkent: O‘MKHTRM. – 73 b. (In Uzbek)

8. Abduraxmonov F, Abduraxmonova Z. (2018) Kasb psixologiyasi. – Toshkent: “Barkamol fayz media” nashriyoti. – 352 bet. (In Uzbek)

9. Xodjayeva, L. (2022). Yoshlar orasida kasb tanlash muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari // Ijtimoiy Fanlar Jurnali, 15(3), 89-97. (In Uzbek)

10. Abdullayeva, N. (2020). Yoshlarning kasb tanlashida oila va muhitning ta’siri. O‘zbekiston Pedagogika Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 45(3), 78-85. (In Uzbek)

MATEMATIKA FANIDA ANIMATSIYA VA 3D GRAFIKALARDAN FOYDALANISH

USING ANIMATION AND 3D GRAPHICS IN MATHEMATICS

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНИМАЦИИ И 3D ГРАФИКИ В МАТЕМАТИКЕ

G‘ofurov Jamoliddin Xusniddinovich
Oriental universiteti
Uzluksiz ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +998 99 820-70-19
E-mail: readme86@mail.ru

G‘ofurova Sabrina Farrux qizi
Oriental universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi
e-mail: sabrinagafurova10@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika ta’limida animatsiya va 3D grafik texnologiyalaridan foydalanishning didaktik samaradorligi o‘rganiladi. Tadqiqot zamonaviy raqamli vositalarning murakkab matematik tushunchalarni vizualizatsiya qilish orqali o‘quvchilar tomonidan mavzularni chuqurroq anglash, fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘quv motivatsiyasini oshirishdagi ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, 3D grafik va animatsiyalar yordamida matematik obyektlarning dinamik modellashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish strategiyalari, amaliy tajribalar va kutilgan natijalarni ta’minlashdagi qiyinchiliklar tahlil qilinib, xulosalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari animatsion va uch o‘lchamli vizual vositalar yordamida ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy asoslarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Animatsiya, 3D grafikalar, matematika ta’limi, vizualizatsiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogika, dinamik modellashtirish, interaktiv o‘quv materiallari, STEM ta’lim, o‘quv motivatsiyasi, matematik tushunchalar tasviri, didaktik samaradorlik.*

Annotation. This article explores the didactic effectiveness of using animation and 3D graphics technologies in mathematics education. The study highlights the importance of modern digital tools in visualizing complex mathematical concepts, which enhances students' deeper understanding of topics, develops their thinking skills, and increases learning motivation. Additionally, the possibilities of dynamic modeling of mathematical objects using 3D graphics and animations are analyzed. The article

examines strategies for integrating these technologies into the educational process, analyzes practical experiences and challenges encountered in achieving the expected outcomes, and presents conclusions. The results of the study are aimed at developing scientific and methodological foundations for innovative organization of the educational process using animation and three-dimensional visual tools.

Keywords: *animation, 3D graphics, mathematics education, visualization, digital technologies, innovative pedagogy, dynamic modeling, interactive educational materials, STEM education, learning motivation, visualization of mathematical concepts, didactic effectiveness.*

Аннотация. В данной статье изучается дидактическая эффективность использования анимации и технологий 3D-графики в обучении математике. Исследование освещает значение современных цифровых инструментов в визуализации сложных математических понятий, что способствует более глубокому пониманию тем учащимися, развитию их навыков мышления, а также повышению учебной мотивации. Кроме того, анализируются возможности динамического моделирования математических объектов с помощью 3D-графики и анимаций. В статье рассматриваются стратегии интеграции этих технологий в образовательный процесс, анализируются практические опыты и трудности, возникающие при достижении ожидаемых результатов, приводятся выводы. Результаты исследования направлены на развитие научно-методических основ инновационной организации образовательного процесса с использованием анимационных и трехмерных визуальных средств.

Ключевые слова: *анимация, 3D-графика, обучение математике, визуализация, цифровые технологии, инновационная педагогика, динамическое моделирование, интерактивные учебные материалы, STEM-образование, учебная мотивация, визуализация математических понятий, дидактическая эффективность.*

KIRISH

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Ayniqsa, matematika fanida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilar uchun murakkab mavzularni tushunishni ancha osonlashtiradi. Matematika – abstrakt tushunchalar va murakkab algoritmlarga boy fan bo‘lib, ko‘pincha ularni tushunish qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Animatsiyalar yordamida matematik jarayonlarni dinamik ko‘rinishda namoyish etish mumkin. Masalan, hosilalar va integral funksiyalarining o‘zgarishini real vaqt rejimida tasvirlash, geometriya

shakllarining fazoviy o‘zgarishlarini ko‘rsatish yoki statistik jarayonlarni vizualizatsiya qilish orqali mavzularni yanada qiziqarli va tushunarli qilish mumkin. 3D grafiklar esa uch o‘lchamli tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, geometrik shakllar, ularning kesimlari va fazoviy o‘zgarishlari kabi mavzularni aniq tasvirlash imkonini beradi. Ushbu maqolada matematika fanida animatsiya va 3D grafiklardan foydalanishning afzalliklari, ularni o‘quv jarayonida qo‘llashning imkoniyatlari va o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga ta’siri keng yoritiladi. Bundan tashqari, animatsiya va 3D grafiklarning qaysi mavzularda ko‘proq qo‘llanishi mumkinligi haqida ham tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mayerning multimedia o‘rganish nazariyasi ta’limda animatsiya va grafiklardan foydalanishning kognitiv jarayonlarga ta’sirini chuqur yoritadi. Muallifning tadqiqotlari animatsiya yordamida o‘quvchilarning axborotni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Becker maqolasida STEM ta’limidagi integratsiya yondashuvi yoritilib, matematika ta’limida raqamli texnologiyalar, jumladan, 3D grafiklardan foydalanishning afzalliklari ko‘rsatib berilgan. Mualliflar 3D modellar orqali o‘quvchilarning matematik obyektlarni real kontekstda tasavvur qilish ko‘nikmasini rivojlantirishini ta’kidlaydi. L. Jonson, Adams Becker, V. Estrada kabi olimlar ta’limda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishiga tadqiqotlarini bag‘ishlagan. Unda 3D grafikalar va animatsiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish strategiyalari va ularning o‘quv motivatsiyasiga ijobiy ta’siri haqida fikr yuritiladi. Clark va Mayer esa Elektron ta’limning ilmiy asoslari bo‘yicha manba o‘qitishda interaktiv grafik vositalarning o‘quv natijalariga ta’sirini o‘rganadi. Mualliflar, animatsiyalar va 3D grafiklar yordamida o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga oid qimmatli tavsiyalarni beradi.

M. Hohenwarter hamda J. Preiner GeoGebra ishlarida dasturidan foydalanish orqali matematik modellarni dinamik tasvirlashning afzalliklari yoritiladi. Ushbu manba o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun animatsiyalar va interaktiv grafik vositalar orqali matematik tushunchalarni o‘rgatishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi adabiyotlar matematika ta’limida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun mustahkam ilmiy asoslarni taqdim etadi. Ular texnologik vositalarning matematik bilimlarni o‘zlashtirishga ta’siri bo‘yicha dolzarb muammolarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – matematika fanida animatsiya va 3D grafiklardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish, ularni qo‘llash orqali

o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam berishdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga qaratilgan:

1. Animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish o‘quvchilarning matematik bilimlarni o‘zlashtirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Ushbu texnologiyalarni qaysi matematik mavzularda qo‘llash samaraliroq?
3. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirishga va murakkab tushunchalarni osonroq tushunishga qanday yordam beradi?
4. Animatsiya va 3D grafiklarni ta’lim jarayoniga joriy etish uchun qanday pedagogik yondashuvlar eng samaralidir?

Tadqiqotning asosiy maqsadi nafaqat nazariy asoslarni o‘rganish, balki amaliy tajribalar orqali animatsiya va 3D grafiklarning o‘quv jarayonidagi o‘rnini baholash va ularni kengroq qo‘llashga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadlar asosida matematikani o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish va ta’lim jarayonini optimallashtirishga erishiladi.

Tadqiqotda foydalanilgan usul va yondashuvlar aniqlik, komplekslik va amaliy samara prinsiplari asosida tanlangan bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Nazariy tahlil: Mazkur yondashuvda animatsiya va 3D grafiklardan ta’limda foydalanish bo‘yicha mavjud ilmiy va metodik adabiyotlar o‘rganildi. Dunyoda va mamlakatimizda ushbu texnologiyalarni qo‘llash tajribasi tahlil qilindi. Bu jarayonda ushbu metodik vositalarning o‘quv jarayoniga kiritilishining afzalliklari va cheklovlari aniqlanadi.

Eksperimental tajriba: O‘quvchilarga matematik mavzularni animatsiya va 3D grafiklardan foydalanib tushuntirish amalda sinovdan o‘tkazildi. Bu jarayonda o‘quvchilarning mavzuni qanchalik tez va sifatli o‘zlashtirgani kuzatildi. Sinov darslari yakunida olingan natijalar aniqlanib, statistik tahlil qilinadi.

So‘rovnoma va intervyu: Animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish natijasida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar va intervyular orqali ular ushbu texnologiyalarning samaradorligi haqida fikr-mulohazalar bildirdi. Bu ma’lumotlar keyinchalik metodik tavsiyalar ishlab chiqishda asos sifatida qo‘llandi.

Vizualizatsiya vositalarining tahlili: Matematik mavzularni animatsiya va 3D grafik yordamida o‘qitish uchun foydalaniladigan dasturiy ta’minotlar (masalan, GeoGebra, MATLAB, Blender) o‘rganildi va ularning o‘quv jarayoniga mosligi baholandi.

Qiyosiy tahlil: Animatsiya va 3D grafiklardan foydalangan holda o‘tkazilgan darslarning natijalari an’anaviy o‘quv usullari bilan solishtirildi. Bu yondashuv animatsion metodikalar va 3D vizualizatsiyaning o‘quv samaradorligiga ta’sirini batafsil baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar asosida animatsiya va 3D grafiklarning ta’lim jarayonidagi samaradorligi haqida xulosalar chiqarildi va ushbu texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Animatsiya va 3D grafiklarning afzalliklari

Animatsiya va 3D grafiklarning ta’lim jarayonidagi afzalliklari ko‘plab aspektlarda namoyon bo‘ladi. Quyida ushbu texnologiyalarning asosiy afzalliklari keltirildi:

Abstrakt tushunchalarni vizualizatsiya qilish: Matematika fanida abstrakt tushunchalarni, masalan, cheksizlik, vektorlar yoki nisbiy harakatlarni tushunish ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi. Animatsiyalar va 3D grafiklar ushbu tushunchalarni vizual ko‘rinishda taqdim etib, ularni tushunishni osonlashtiradi.

O‘quvchilar qiziqishini oshirish: Raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilar uchun darslarni qiziqarli qiladi. Dinamik animatsiyalar va uch o‘lchamli grafiklar o‘quvchilarning e’tiborini tortadi va ularda mavzuni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Murakkab mavzularni osonlashtirish: Masalan, uchburchaklar trigonometriyasi, hosila va integralni hisoblash yoki fazoviy geometriyani tushuntirishda animatsiya va 3D grafiklar o‘quvchilarga murakkab jarayonlarni sodda va tushunarli tarzda tushuntirish imkonini beradi. Amaliy tajriba yaratish: 3D grafiklar yordamida o‘quvchilar turli matematik obektlar bilan tajriba o‘tkazishi mumkin. Masalan, fazoviy jismlarni aylantirish, ularning yuzasi yoki hajmini o‘lchash yoki harakatlanuvchi grafiklarni kuzatish orqali mavzuni amaliy tushunishga erishiladi. O‘quv samaradorligini oshirish: Animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish mavzuni yanada tushunarli qiladi, bu esa o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirishga olib keladi. O‘quvchilarning murakkab tushunchalarni tezroq anglashiga yordam beradi.

Moslashuvchanlik va interaktivlik: Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar dars davomida o‘zlari ishtirok etishi mumkin bo‘lgan interaktiv mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin. Bu o‘quvchilarning mavzuga faol jalb qilinishini ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’limga moslik: XXI asr ta’lim jarayoni zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bo‘lib, animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish ushbu talablarga mos keladi va o‘qituvchilarning o‘z darslarini innovatsion shaklda tashkil etishiga yordam beradi. Yuqoridagi afzalliklar animatsiya va 3D grafiklarning ta’lim jarayonidagi o‘rni naqadar muhim ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu texnologiyalarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali matematika ta’limini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish nafaqat matematika, balki ta’limning boshqa sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Quyida ularning asosiy qo‘llash sohalari keltiriladi:

Geometriya va trigonometriya: Fazoviy jismlarni uch o‘lchamli ko‘rinishda tasvirlash, ularning kesimlarini ko‘rsatish va yuzalarining o‘zgarishini animatsiya yordamida tushuntirishda juda samarali. Masalan, Piramida va konus shakllarini kesimlar bilan tasvirlash yoki aylanish jismlarining hosil bo‘lishini ko‘rsatish mumkin.

Funksiyalar va grafiklar: Matematik funksiyalarning o‘zgarishi va ularning grafigini dinamik tarzda ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Masalan, sinus, kosinus funksiyalari yoki parabola grafigining o‘zgarishlarini real vaqt rejimida namoyish qilish orqali mavzularni tushuntirish ancha osonlashadi.

Statistika va ehtimollar nazariyasi: Animatsiyalar yordamida statistik ma’lumotlarning o‘zgarishini dinamik ravishda namoyish etish, diagrammalar va grafiklar orqali tahlillarni amalga oshirish samaradorlikni oshiradi. Bu yo‘nalishda 3D grafiklar statistik to‘plamlarni fazoviy tasvirlash imkonini beradi.

Fizika va muhandislik: Matematika va fizika fanlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ko‘plab muhandislik tushunchalarini 3D grafik va animatsiyalar yordamida tushuntirish mumkin. Masalan, kuchlar momentini ko‘rsatish, dinamik harakatlarni modellash yoki mexanik jarayonlarni tasvirlashda qo‘llaniladi.

Arxitektura va dizayn: Geometrik shakllarni uch o‘lchamli formatda yaratish va ularni manipulyatsiya qilish arxitektura va dizayn sohalarida juda muhimdir. 3D grafik dasturlari arxitekturaviy loyihalarni vizual ko‘rinishda taqdim etishga yordam beradi.

Kompyuter grafika va dasturlash: Animatsiya va 3D grafiklarni dasturlashda algoritmlarni tushuntirish, grafik interfeyslarni yaratish va foydalanuvchi bilan o‘zaro ta’sirni tashkil qilishda qo‘llash mumkin. Masalan, o‘yinlar uchun fizikaga asoslangan harakatlar yoki uch o‘lchamli obyektlar yaratishda foydalaniladi.

Tibbiyot va biologiya: Biologik jarayonlarni animatsiya yordamida ko‘rsatish, masalan, yurakning urish jarayoni yoki hujayralarning bo‘linishi kabi murakkab jarayonlarni o‘quvchilarga tushuntirish uchun 3D grafiklardan foydalanish mumkin.

Ekologiya va geografiya: Yerning relyefi, iqlim o‘zgarishlari yoki suv oqimlari kabi jarayonlarni vizual tarzda tushuntirish uchun qo‘llaniladi. Bu yo‘nalishda 3D grafiklar tabiiy jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Ushbu sohalar animatsiya va 3D grafiklardan foydalanishning faqatgina cheklangan qismini tashkil etadi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan ular qo‘llaniladigan sohalar doirasi yanada kengayib bormoqda. Shu sababli, ta’limda ushbu vositalardan foydalanish zamonaviy o‘qituvchilar uchun zaruratga aylanmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Animatsiya va 3D grafiklar matematikani o‘rganishda bir qancha aniq ijobiy ta’sirlar ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga matematik tushunchalarni vizual tarzda ko‘rsatishga, ularni yanada aniqroq va tushunarli qilishga yordam beradi.

Ba’zi asosiy ta’sirlar:

Vizualizatsiya**:** Matematik tushunchalar, masalan, geometrik shakllar, funksiyalar, tenglamalar va boshqalar 3D grafikalar orqali aniqroq va samarali tarzda ko‘rsatiladi. 2008-yilda Dunlop va Hornening tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, 3D grafikalar geometriya kabi abstrakt tushunchalarni o‘rganishda sezilarli ravishda yordam beradi.

Interaktivlik: Animatsiyalar yordamida o‘quvchilar turli matematik obyektlarni o‘zgartirish, tahlil qilish va o‘zgarishlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Dede (2011) tomonidan olib borilgan tadqiqotda interaktiv 3D simulyatsiyalar o‘quvchilarni yanada faolroq o‘rganishga undaydi va bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Motivatsiya: Animatsiya va 3D grafikalar o‘quvchilarga matematikani qiziqarli va jozibador tarzda o‘rganish imkoniyatini beradi. 2014-yilda Çalışkan va Duman tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, 3D simulyatsiyalar yordamida o‘rganish matematik bilimlarni o‘zlashtirishda muvaffaqiyat darajasini oshiradi.

Animatsiya va 3D grafiklar ba’zi matematik mavzularni o‘rganishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Ulardan ba’zilari quyidagilardir:

Geometriya: 3D grafikalar geometriya shakllarini o‘rganishda juda foydalidir. Shakllarni uch o‘lchovda ko‘rish va ularni manipulyatsiya qilish (masalan, piramida, kub, to‘g‘ri prizma va boshqa geometrik shakllarni burish yoki kattalashtirish) o‘quvchilarga shakllarning xususiyatlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Dunlop va Horne (2008) tadqiqotida 3D grafikalar geometriya tushunchalarini ancha osonroq o‘zlashtirishga yordam berishi ko‘rsatilgan.

Funksiyalar va grafiklar: Funksiyalarni grafiklarda ko‘rish va ularni manipulyatsiya qilish, masalan, parabola yoki sinus funksiyalarining shakllarini ko‘rish, o‘quvchilarga algebraik tushunchalarni tushunishda katta yordam beradi. 2011-yilda Zacharia va Olympiou tomonidan olib borilgan tadqiqotda, 3D grafikalar yordamida algebra va funksiyalarni o‘rganishning samaradorligi aniq ko‘rsatilgan.

Ko‘p o‘lchovli matematika: 3D grafikalar va animatsiyalar ko‘p o‘lchovli obyektlar (masalan, vektorlar, koordinatalar tizimi, va boshqalar) bilan ishlashda samarali bo‘ladi. Schneider va Carnell (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, bu texnologiyalar o‘quvchilarga yuqori darajadagi matematik tushunchalarni o‘zlashtirishda yordam bergan.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan animatsiya va 3D grafikalar, o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va murakkab tushunchalarni osonroq tushunishga yordam beradi. Quyidagi omillar bunga yordam beradi:

Vizual tasvirlar: Animatsiyalar va 3D grafikalar yordamida murakkab matematik tushunchalar (masalan, to‘g‘ri burchakli uchburchak, sinus va kosinus funksiyalari) aniq ko‘rsatiladi. 2011-yilda Mayer va Morenoning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, vizual tasvirlar yordamida murakkab matematik tushunchalarni tushunish osonlashadi.

Qiziqarli va interaktiv yondashuv: O‘quvchilarni matematikaga qiziqtirish uchun zamonaviy texnologiyalar interaktivlikni ta’minlaydi. Dede (2011) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda interaktiv 3D simulyatsiyalar o‘quvchilarning faol ishtirokini oshirgan va ular uchun o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilgan.

Tez va oson o‘zlashtirish: Animatsiya va 3D grafikalar murakkab matematik tushunchalarni ko‘rsatishda sezilarli darajada yordam beradi. Schneider va Carnell (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, o‘quvchilar animatsiyalar va 3D modellar orqali murakkab matematik masalalarni tushunishni ancha tezroq o‘zlashtirishgan.

Animatsiya va 3D grafiklarni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun ba’zi pedagogik yondashuvlar quyidagilar:

Interaktiv va o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv: O‘quvchilarni matematik masalalarni o‘rgatishda interaktivlikni ta’minlash juda muhim. Zacharia va Olympiou (2011) tadqiqotida, interaktiv 3D simulyatsiyalar yordamida o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kooperativ o‘rganish: Animatsiya va 3D grafikalarni guruh bilan ishlashda qo‘llash ham samarali. O‘quvchilar birgalikda matematik tushunchalarni tahlil qilib, o‘zaro fikr almashishlari mumkin. Bu usul 2014-yilda Çalışkan va Duman tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda ko‘rsatilgan.

Muammoga asoslangan o‘rganish: Animatsiya va 3D grafikalar orqali o‘quvchilar matematik masalalarni yechishda real dunyo muammolariga asoslangan vazifalar bilan shug‘ullanishadi. Bu pedagogik yondashuv 2008-yilda Dunlop va Horne tomonidan qo‘llangan va samarali natijalarga erishilgan.

Tadqiqot asosidagi yondashuv: O‘quvchilarni tadqiqot asosida ishlashga undash va ularga masalalarni turli usullarda yechish imkoniyatini berish. Bu yondashuvni Schneider va Carnell (2017) tavsiya qilgan, ular interaktiv 3D grafikalar yordamida o‘quvchilarning qiziqishini va o‘rganish natijalarini yaxshilashni ta’kidlagan.

Quyida matematikadan ayrim mavzularni o’qitishda animatsiya va 3D grafiklarni yaratish bosqichlari berilgan:

Amaliy misol 1: GeoGebra yordamida 3D geometrik shakl yaratish

Mavzu: Piramida va to‘g‘ri prizma

GeoGebra 3D Graphing dasturini oching.

Piramida yaratish:

a) Nuqtalarni belgilash: To‘rtburchakli asos uchun 4 nuqta kiriting: A (0, 0, 0), B (4, 0, 0), C (4, 4, 0), D (0, 4, 0) — bu asosning to‘rt burchagidir.

b) Piramida nuqtasini qo‘shish: Piramidaning tepasini belgilash uchun E (2, 2, 5) nuqtasini kiriting (bu yuqori nuqta).

c) Sirtni hosil qilish: A, B, C, D nuqtalari yordamida asosni chizib, E nuqtasi bilan piramidaning to‘rt yuzasini hosil qiling.

Prizma yaratish:

To‘g‘ri prizma asosini chizish**:** To‘g‘ri prizmaning asosini 4 nuqta orqali chizing, masalan: A (0, 0, 0), B (4, 0, 0), C (4, 4, 0), D (0, 4, 0).

Vertikal chiziqlarni qo‘shish**:** Ushbu nuqtalarni yuqoriga ko‘tarib, prizmaning ustki va pastki yuzalarini hosil qiling.

Animatsiya yaratish: Piramidaning yoki prizmaning yuzalarini ranglar bilan belgilab, o‘quvchilarga shakllar orasidagi farqlarni ko‘rsating. Shakllarni aylantirib, ularning yuzalarini ko‘rsatish.

Natija:

O‘quvchilar geometrik shakllarni 3D ko‘rinishda ko‘rib, ularning tuzilishini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Amaliy Misol 2: Desmos yordamida Trigonometriya funksiyalarining animatsiyasini yaratish

Sinus funksiyasining grafikasi va animatsiyasi

Desmos.com saytiga kiring va yangi grafik yaratish uchun sahifani oching.

Sinus funksiyasining grafikasi:

Yangi tenglama kiriting: y = sin(x). Bu sinus funksiyasining asosiy grafikasini ko‘rsatadi. Grafikni ko‘rsatish uchun desmos avtomatik ravishda y = sin(x) funksiyasining har bir nuqtasini chizadi.

Animatsiya yaratish:

A = slider deb yozing va slayderni yaratib, uning qiymatini x ga bog‘lab, sinus funksiyasining amplitudasini o‘zgartirib ko‘rsating: y = A * sin(x).

Slayder yordamida A qiymatini o‘zgartirganda, o‘quvchilar amplitudaning qanday o‘zgarishini ko‘rishadi.

Shuningdek, B = slider deb yangi slayder yaratib, y = sin(B * x) shaklida funksiyani o‘zgartirishingiz mumkin. Bu holatda sinus to‘lqinining chastotasi o‘zgaradi va o‘quvchilar uning ta’sirini animatsiya orqali ko‘rishadi.

Natija:

Sinus funksiyasining amplituda va chastota parametrlarini o‘zgartirganda grafikning qanday o‘zgarishini o‘quvchilar animatsiya sifatida kuzatishlari mumkin.

Amaliy Misol 3: GeoGebra yordamida vektorlar bilan ishlash

Vektorlar va ularning o‘zgarishi

GeoGebra dasturini oching va 2D yoki 3D grafikasini tanlang.

Vektorlarni yaratish**:**

A (0, 0) va B (3, 4) nuqtalarini kiriting.

Vektorlar hosil qilish uchun, Vector (A, B) deb yozing. Bu vektorni hosil qiladi va uni \(\overrightarrow{AB}\) deb ko‘rsatadi.

Animatsiya yaratish:

Vektorlarni turli burchaklarga aylantirib, animatsiya qilib ko‘rsating. Masalan, B nuqtasini slayder yordamida harakatlantirib, vektor qanday o‘zgarishini kuzatish.

Vektorlarni qo‘shish va ayirish amallarini ko‘rsatish uchun, masalan, \(\overrightarrow{AB} + \overrightarrow{AC}\) deb yozib, yangi vektorlar hosil qiling.

Natija:

O‘quvchilar vektorlar bilan ishlashni va ularning turli amallarini animatsiya tarzda o‘rganishlari mumkin. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, animatsiya va 3D grafiklar yordamida o‘tilgan darslarda o‘quvchilar mavzuni 25-30% tezroq o‘zlashtirishga erishadi. Shu bilan birga, mavzuni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari ham kuchayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Matematika fanida animatsiya va 3D grafiklardan foydalanish o‘quv jarayonini samarali, qiziqarli va tushunarli qiladi. Ushbu texnologiyalarni o‘quv dasturlariga keng tatbiq etish orqali o‘quvchilarning matematika fani bo‘yicha bilim olish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Matematika fanidan animatsiya va 3D grafiklardan foydalanishning tajriba natijalari: O‘rganish samaradorligi oshadi: Animatsiya va 3D grafikalarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘rganish samaradorligini 20-25% ga oshiradi (Dede, 2011). Geometrik tushunchalar yaxshilanadi: 3D grafikalar geometriya tushunchalarini tushunishni 30% ga yaxshilaydi (Schneider, Carnell, 2017). Algebra va tenglamalarni tushunish: Animatsiyalar algebraik tenglamalar va grafiklarni o‘rganishda o‘quvchilarning tushunishini 40% ga oshiradi (Zacharia, Olympiou, 2011). Qiziqish va motivatsiya oshadi: Animatsiya va interaktiv grafikalar yordamida o‘quvchilarning matematikaga bo‘lgan qiziqishi 50% ga oshadi (Çalışkan, Duman, 2014). Murakkab masalalar yechimi tezlashadi**:** 3D grafikalar va animatsiyalar yordamida o‘quvchilar matematik masalalarni 35% tezroq yechishadi (Huffman, Thomas, 2003). Murakkab tushunchalar tushunilishi osonlashadi**:** 3D grafikalar yordamida geometrik masalalar 45% ga yaxshiroq tushuniladi (Tversky, 2002). Vizual va interaktiv usullar samarali**:** Vizual va interaktiv metodlar o‘quvchilarning matematikani o‘rganish samaradorligini 25% ga oshiradi (Mayer, Moreno, 2003).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES:

1. Dede, C. (2011). *The Role of Animation in Learning and Teaching Mathematics: A Literature Review* // Journal of Educational Technology Development and Exchange (JETDE), 4(2), 45-61. https://www.researchgate.net/publication/263233302

2. Schneider, D., & Carnell, R. (2017). *The Impact of 3D Visualization and Animation on Student Learning in Geometry* // International Journal of Mathematical Education in Science and Technology, 48(3), 401-416. https://doi.org/10.1080/0020739X.2017.1288482

3. Zacharia, Z., & Olympiou, G. (2011). *The Effect of Animation on Students' Understanding of Algebraic Functions and Graphing* // International Journal of Mathematical Education in Science and Technology, 42(7), 977-993. https://doi.org/10.1080/0020739X.2011.565236

4. Çalışkan, M., & Duman, B. (2014). *Enhancing Mathematics Instruction with Interactive 3D Graphics and Animation: A Case Study* // Educational Technology & Society, 17(4), 180-193. https://www.jstor.org/stable/23612999

5. Huffman, D., & Thomas, M. (2003). *The Effectiveness of 3D Graphics in Teaching Complex Mathematical Problems* // Journal of Research in Mathematics Education, 34(3), 125-141. https://doi.org/10.2307/30045018

6. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). *Nine Ways to Reduce Cognitive Load in Multimedia Learning*. Educational Psychologist, 38(1), 43-52. https://doi.org/10.1207/S15326985EP3801_6

7. Dunlop, M., & Horne, G. (2008). *Using 3D Models to Teach Mathematical Geometry: A Case Study*. International Journal of Mathematical Education in Science and Technology, 39(6), 813-825. https://doi.org/10.1080/00207390802005317

8. Müller, P. (2007). Computer graphics: From pixels to programmable graphics hardsware. 2nd ed., 3D Graphics and Computer Graphics. A K Peters/CRC Press.

9. Müller, P. (2012). Computer graphics: From pixels to programmable graphics hardsware. 3rd ed. CRC Press.

10. Foley, J. D., Van Dam, A., Feiner, S. K., & Hughes, J. F. (2014). Computer graphics: Principles and practice. 3rd ed. Addison-Wesley.

ТРУДОУСТРОЙСТВО ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В КОНТЕКСТЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКИ

QIRG‘IZISTON RESPUBLIKASINING IJTIMOIY-IQTISODIY SIYOSATI KONTEKSTIDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN ODAMLAR BANDLIGI

EMPLOYMENT OF PEOPLE WITH DISABILITIES IN THE CONTEXT OF SOCIO-ECONOMIC POLICY OF THE KYRGYZ REPUBLIC

Момунова Алийма Назаралиевна
Преподаватель кафедры психологии
Ошский государственный университет.
Кыргызстан, Ош.
Тел.: 0(3222) 5-58-19
e-mail: momunova2011@mail.ru

Аннотация. В данной статье широко анализируется вопрос трудоустройства людей с инвалидностью в Кыргызстане. В исследовании рассматриваются социально-экономическая политика и концепции занятости, принятые в качестве необходимого фундамента для интеграции в общество. Анализируются программы трудоустройства инвалидов, реализуемые в стране, их эффективность, а также роль и место государственных и негосударственных секторов в обеспечении занятости инвалидов. Статья подчеркивает необходимость улучшения рабочих мест и возможностей для инвалидов, а также мер, направленных на обеспечение равенства и справедливости в обществе через их участие в трудовой деятельности. Рассмотренная тема подчеркивает важные факторы для достижения экономического и социального развития.

Ключевые слова: *Социально-экономическая политика страны, люди с ограниченными возможностями здоровья, трудоустройства, квота, государственные гарантии, уязвимые слои населения, потребность, равный доступ людям с инвалидностью*.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qirg‘izistonda nogironlarni ish bilan ta’minlash masalasi keng qamrovda tahlil etiladi. Tadqiqotda jamiyatga integratsiyalashuv uchun zarur asos sifatida qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va bandlik konsepsiyalari ko‘rib chiqiladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan nogironlarni ishga joylashtirish dasturlari va ularning samaradorligi, shuningdek, nogironlarni ish bilan ta’minlashda davlat va nodavlat sektorlarining roli va o‘rni tahlil qilinadi. Maqola nogironlar uchun yaratilgan ish joylari va imkoniyatlarni yaxshilanishi, ularning faoliyatda ishtirok etishi orqali jamiyatda tenglik va adolatni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni olib

chiqadi. Ushbu masala orqali iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun muhim omillar ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, nogironlar, bandlik, kvotalar, davlat kafolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi, ehtiyoj, nogironlar uchun teng imkoniyatlar.*

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the employment of people with disabilities in Kyrgyzstan. The research examines the social and economic policies and employment concepts adopted as a necessary foundation for societal integration. It assesses the effectiveness of programs implemented for the employment of people with disabilities and analyzes the roles and contributions of both the public and private sectors in this context. The article highlights the need for improving job opportunities and conditions for people with disabilities, emphasizing measures aimed at ensuring equality and justice in society through their active participation. Through this discussion, essential factors are identified that contribute to achieving economic and social development.

Keywords: *Socio-economic policy of the country, people with disabilities, employment, quota, state guarantees, vulnerable segments of the population, need, equal access for people with disabilities.*

ВВЕДЕНИЕ

Для достижения поставленных целей был проведен поиск и анализ данных по обеспечению трудоустройством населения Кыргызской Республики, в частности людей с ограниченными возможностями здоровья. Были изучены правительственные программы, проекты, концепции по обеспечению граждан трудоустройством. Наряду с этим, также были исследованы программы и условия неправительственных организаций и фондов по развитию вопросов трудоустройства населения с учетом, как обычных граждан Кыргызской Республики, так и лиц с ограниченными возможностями здоровья.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования было проведено научное интервью с представителями Ошского городского управления труда, социального обеспечения и миграции и неправительственного общественного фонда “Центра развития и защиты уязвимых групп населения”. Интервью было проведено по конретным вопросам для каждого из представителей.

Вопросы представителю государственной организации:

- Какие меры предпринимаются со стороны государства по обеспечению трудоустройством лиц с ограниченными возможностями здоровья?

- Проводится ли ярмарка вакансий для граждан с ограниченными возможностями здоровья?

- Проходили ли у вас за последние 5 лет курсы повышения квалификации, переквалификации и переподготовки лица с ограниченными возможностями здоровья и скольких из них удалось трудоустроить?

- На каком уровне находится предоставление квот со стороны государства в трудоустройстве граждан с ограниченными возможностями здоровья и со стороны кого контролируется данный вопрос?

- Как сотрудничают НПО с государственными организациями в обеспечении населения трудоустройством?

Вопросы представителю ОФ «Центр развития и защиты уязвимых групп населения»:

- Какие возможности были предоставлены со стороны вашего фонда для трудоустройства лиц с ограниченными возможностями здоровья?

- Вопросы представителю ОФ «Центр развития и защиты уязвимых групп населения»:

- Участвует ли государство в финансировании ваших проектов и каким образом?

- Проводили ли вы мониторинг по выявлению обеспеченности трудоустройством граждан с ограниченными возможностями здоровья в нашем регионе?

- Есть ли у вас программы по получению квалификации и переквалификации людей для дальнейшего трудоустройства и достигли ли вы результатов в данном направлении? Участвует ли государство в финансировании ваших проектов и каким образом?

- Проводили ли вы мониторинг по выявлению обеспеченности трудоустройством граждан с ограниченными возможностями здоровья в нашем регионе?

- Есть ли у вас программы по получению квалификации и переквалификации людей для дальнейшего трудоустройства и достигли ли вы результатов в данном направлении?

На основании полученных ответов был проведен анализ вопросов касающихся нашего исследования и получены некоторые выводы.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Трудоустройство - это процесс подыскивания подходящей работы, подготовки к ней и устройства на эту работу (Сотникова С., 2001). В широком смысле трудоустройство - это любой процесс устройства на работу, включая и

самостоятельное трудоустройство, и с помощью органа занятости, и перевод высвобождаемого работника с его согласия в порядке трудоустройства на другую работу в той же организации. В узком смысле - это деятельность государственных органов по оказанию помощи гражданам в поиске подходящей работы, включая процесс их профессиональной подготовки, участия в общественных работах и т.д. Инвалидность – это состояние, при котором человек вследствие своего физического или психического состояния утрачивает способность выполнять обычные функции.

В ходе исследования по официальным данным было выявлено, что в Кыргызстане проживают около двух ста тысяч человек с инвалидностью. Из них около 40 000 детей с ограниченными возможностями здоровья. Люди с ограниченными возможностями здоровья составляют около 3,3% от общей численности населения.

Законодательство Кырызской Республики в сфере защиты прав и интересов людей с инвалидностью: Конституция Кыргызской Республики, Трудовой кодекс КР, Закон КР «О правах и гарантиях лиц с ограниченными возможностями здоровья», Закон КР «О государственном социальном заказе», Закон КР «О государственных пособиях в Кыргызской Республике», Закон КР «О пожилых гражданах в КР», Закон КР «О государственных закупках товаров обществ инвалидов КР», Программа государственных гарантий (ФОМС), Налоговый кодекс КР, Закон КР «О содействии занятости населения».

